

O'zbek tili 6

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
6-sinfi uchun darslik

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan*

Yangi nashr



Toshkent – 2022

UO'K 811.512.133(075.3)
KBK 81.2(5O')ya72
O'16

Mualliflar:

Dilafroz Xidoyatova
Namoz Rasulov
Nargisa Yuldasheva
Nodira Usmonova
Yulduz Xasanova

Taqrizchilar:

Muhabbat Qurbonova – O'zMU professori, filologiya fanlari doktori.

Umida Hikmatillayeva – Indiana universiteti (AQSH) doktoranti.

Nigina Sadinova – SamDCHTI katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.

Sayyora Suyumova – Toshkent shahridagi 246-maktabning o'zbek tili fani o'qituvchisi.

Moxigul Sultonova – Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi 54-maktabning o'zbek tili fani o'qituvchisi.

O'zbek tili [Matn]: 6-sinf uchun darslik / Dilafroz Xidoyatova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 176 b.

ISBN 978-9943-8173-9-5

UO'K 811.512.133(075.3)
KBK 81.2(5O')ya72

*Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari
hisobidan chop etildi.*

*Original maket va dizayn konsepsiyasi
Respublika ta'lim markazi tomonidan ishlandi.*


ISBN 978-9943-8173-9-5

© Respublika ta'lim markazi, 2022

MUNDARIJA

1-chorak

O‘ZBEKISTONGA XUSH KELIBSIZ!




O‘zbekistonga xush kelibsiz!.....	6
Tengdoshlarim.....	8
Samarqand	10
Samarqandning yuragi	13
Naqadar go‘zal!	15
Samarqand – Buxoro	17
Buxoro – Xiva.....	21
Xiva – Nukus	24
Nukus – Toshkent.....	26
Zamonaviy Toshkent.....	29
Buni bilasizmi?.....	32
“Jonlangan” tuproq	34
Oltin qo‘llar.....	37
Qayga borsam, boshda do‘ppim	39
Milliy liboslar.....	41
Xalq durdonalari.....	43
Zargarlik.....	45
Betakor ustunlar.....	47
Milliy taomlar.....	49
Minoralar.....	52
Mustahkamlash.....	53
Adabiy o‘qish. Hunar haqida ertak.....	55

2-chorak


QANI, KETDIK

Kamarlarni taqing!	56
Avtobus nega qizil?	58
Tezyurar poyezd.....	60
Avtobus.....	62
Nurli manzillar	65
“Sahro kemasi”	67
Parvozga tayyormisiz?.....	68
Iltilmos, suyanmangiz!.....	70
Haydovchilik guvoohnomasi.....	73
Yo‘l qoidasi.....	75
Yo‘ldagi saboq.....	77
Yo‘ldagi madaniyat.....	78
Yo‘l bering!.....	80
Imkoniyat eshiklari.....	82
Mustahkamlash.....	84
Adabiy o‘qish. Yosh futbolchi.....	86



MUNDARIJA


3-chorak **TEXNOPARK**




Robototexnika nima?.....	88
Dron	90
Sehri tomchilar.....	91
Kelajak energiyasi.....	93
Shamol energiyasi.....	94
Yashil binolar.....	96
3D printer.....	99
“Kindl kitob”	100
Globus	102
Alisher Navoiy	105
Observatoriya	106
Algoritm.....	108
GINNES rekordlari.....	110
Aqlga sig‘mas narsalar	112
Internet.....	114
Favqulodda vaziyatlar.....	117
Taomlanish.....	119
Dori-darmon.....	121
Begona odamlar bilan munosabat.....	123
Hayvonlarga munosabat. G‘amxo‘rlik	125
Loyiha turlari	127
Irodaning loyihasi	129
Yosh tadqiqotchi.....	130
Adabiy o‘qish. Besh bolali yigitcha.....	132
Takrorlash.....	135

4-chorak **BORIGA BARAKA**

Diqqat! Diqqat!	136
“Ko‘ngil ko‘zi” aksiyasi	138
Maktabdagi aksiya	140
Barakasini bersin	141
Bolalarga bering dunyoni	143
Maktabdagi kimoshdi savdosi rejasi	145
Kimoshdi savdosi tarixi	147
Javob xati	148
Qimmatbaho kitob	150
“Kimoshdi” musobaqasi	153
Adabiy o‘qish. Haqiqiy g‘olib	154
Loyiham reklamasi	157
To‘g‘ri yo‘l	159
Millioner tengdoshlarim	161
Ishtiyok	163
Mustahkamlash	165
Yaxshilikni o‘z vaqtida qil	167
Lug‘at	169





1-chorak
**O‘ZBEKISTONGA
XUSH KELIBSIZ!**

O'ZBEKISTONGA XUSH KELIBSIZ!

1. Tinglang. Yozing.

... .. , Maks!

*Yaxshimisan? Ishlaring yaxshimi?
Oxirgi xatingda ... va Buxoro haqida so'ragan eding. Istasang,
ta'tilni birga O'zbekistonning tarixiy shaharlarida o'tkazamiz.*

Seni va do'stlaringni O'zbekistonga Toshkent, Samarqand, Buxoro, ... va boshqa shaharlarga birga sayohat qilamiz. Javobingni kutaman.

Hurmat bilan ... Alisher.

2. O'qing.



3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

1. Toshkent.
2. ...



4. Gapiring.

12 ta

poytaxt

qadimiy

kitob

birinchi

eng

vatanim


qishloq

shahar

5. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna:

1. QARSHI.



① A Q I R S H

② N O V I Y A

③ N A D R A Q M A S



④ Z A Z I J X

⑤ T I M R E Z

⑥ O N J D I A N

Mustaqil topshiriq

Agar sizning chet ellik do'stingiz O'zbekistonga kelsa, uni qaysi shaharlarga olib borar edingiz? O'zbekiston xartasini chizing va unda shu shaharlarni belgilang.

TENGDOSHLARIM

1. O'qing.



Tanish, bular mening do'stlarim: yaponiyalik Suzuko, ingliziyalik Agata, rossiyalik Danil va keniyalik Zembi.

Mening ismim Alisher. Yoshim 12 da. Tanishganimdan xursandman. Sizlar bilan O'zbekistonning tarixiy shaharlariga sayohat qilamiz. Sayohatimizni Samarqand shahridan boshlaymiz.

Samarqandga qanday boramiz?



U yerga "Afrosiyob" tezyurar poyezdida boramiz.

DIQQAT QILING!

-lik
-dan

- Qayerlikсан?
- O'zbekistonlikman.
- O'zbekistondanman.

tengdosh
qayerlikсан
tanishing
tanishganimdan xursandman
tezyurar poyezd
yo'nalish

2. O'ylang va toping. Gapiring. Yozing.

Namuna:

Maks qayerlik?
Maks AQSHlik.


Maks qayerdan?
Maks AQSHdan.



Agata



Alisher



Zembi



Danil



Suzuko



Maks

3. Tinglang.

“AFROSIYOB” TEZYURAR POYEZDI



4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. “Afrosiyob” tezyurar poyezdi Ispaniyada ishlab chiqarilgan.

1. “Afrosiyob” tezyurar poyezdi ___da ishlab chiqarilgan.
2. U ___ yo‘nalishi bo‘ylab harakatni boshlagan.
3. ___ uchun ham qulayliklarga ega.
4. Poyezdga jami bo‘lib ___ odam sig‘adi.
5. ___ yil birinchi marta ___ga olib kelingan.

5. O‘ylang va toping. Yozing.

1. Poyezdga jami bo‘lib 257 ta **odam** sig‘adi.

Ajratib ko‘rsatilgan so‘z o‘rnida qo‘llanadigan so‘zni toping.

- A) bola B) kishi C) yo‘lovchi

2. U Ispaniyada **ishlab chiqarilgan**.

Ajratib ko‘rsatilgan so‘z o‘rnida qo‘llanadigan so‘zni toping.

- A) tayyorlangan B) ishlatilgan C) topilgan

3. O‘zbekiston bo‘ylab **eng yuqori** tezlikda harakatlanuvchi transport “Afrosiyob” tezyurar poyezdidir.

Ajratib ko‘rsatilgan so‘z o‘rnida qo‘llanadigan so‘zni toping.

- A) eng chaqqon B) eng kuchli C) eng baland

Mustaqil topshiriq

“Afrosiyob” tezyurar poyezdi haqida ma‘lumotlar to‘plang va transportlar mavzusi-da kollaj tayyorlab keling.


SAMARQAND

1. O‘qing.

SAMARQAND

Samarqand sayyoramizdagi eng qadimiy shaharlardan biri bo‘lib, Rim va Afina bilan tengdoshdir. U 2750 yoshdan oshgan. Samarqand ulkan kashfiyotlar markazi ham hisoblanadi. Ayrim ma‘lumotlarga qaraganda, 650-yildayoq Samarqandda qog‘ozli kitoblar bo‘lgan. Ulug‘bek rasadxonasida esa globus bo‘lgani haqida ma‘lumotlar bor.





Samarqand Amir Temur davrida poytaxtga aylantirildi. Shaharning markaziy maydoni – Registon barpo etildi. Bibixonim jome masjidi, Go’ri Amir maqbarasi, Shohizinda ansambli va bir qancha bog’lar bunyod etildi. Mirzo Ulug’bek davrida Samarqand yanada ko’rkamlashdi. Ulug’bek rasadxonasi qurildi.

Ilk bor bu yerga kelgan mehmonlar sayohatini shaharning me’morchilik obidalarini tomosha qilishdan boshlashadi. Bu ko’hna binolar hali ham o’z go’zalligi va ulug’vorligini yo’qotmay, jahon ahlini lol qoldirib kelmoqda.

eng qadimiy
bunyod etildi
rasadxona
tomosha qilmoq
ko’hna
aylanmoq
jo’natmoq
zavqlanmoq
taklif qilmoq

2. O’ylang va toping. Yozing.

Samarqand	globus bo’lgan.
Mirzo Ulug’bek davrida	Samarqandni poytaxtga aylantirdi.
Amir Temur	Rim va Afina bilan tengdosh.
Ulug’bek rasadxonasida	Samarqand yanada ko’rkamlashdi.

3. Tinglang. O’ylang va toping. Yozing.

eng qadimiy g’oyat go’zal juda katta nihoyatda kuchli

Namuna Samarqand 2750 yil avval barpo etilgan **qadimiy** shahardir.

2750 73
7 1925–1930

DIQQAT QILING!

eng
g’oyat
juda
nihoyatda

4. O’ylang va toping. Yozing.

keng past ~~xafa~~
xursand tor baland


? Xafa




?



?



?



?

5. O'ylang va toping. Gaping.

SAMARQANDDA BIR KUN



Mustaqil topshiriq

Amir Temur va Mirzo Ulug'bek hayoti va faoliyati haqida ma'lumot topib keling.



SAMARQANDNING YURAGI



1. O'qing.

Samarqandga kelgan sayyohlar birinchi Registon maydoniga borishadi. Registon maydoni Samarqandning yuragi hisoblanadi. U yerda Ulug'bek, Tillakori va Sherdor madrasalari qad rostlagan.



“Registon” so'zi “qumloq joy” degan ma'noni anglatadi. O'rta asrlarda shahar markazi “Registon” deb atalgan. Shu nomdagi maydonlar Toshkent, Shahrisabz va Buxoroda ham bo'lgan.



Samarqandning Registon maydoni Markaziy Osiyoning eng salobatli maydonlaridan bo'lgan.



Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroporti O'zbekistonning **eng katta** va **zamonaviy** aeroporti hisoblanadi.




Buyuk ipak yo'lining bir tarmog'i Samarqand shahri orqali o'tgan.




2001-yilda Registondagi uch madrasa YUNESKOning butunjahon madaniy merosi yodgorliklari ro'yxatiga kiritilgan.

2. Savollarga javob bering. Yozing.

1. Berilgan ma'lumotlardan qaysi biri Registon maydoniga oid emas?
2. Danil bergan ma'lumotdagi ajratib ko'rsatilgan so'zga qarama-qarshi ma'noli so'z qaysi?
3. YUNESKO haqida nimalarni bilasiz?
4. Samarqandning yana qanday tarixiy joylari haqida bilasiz?



DIQQAT QILING!



3. Tinglang. O'ylang va toping. Gapiring.

Namuna *Ulug'bek rasadxonasi Mirzo Ulug'bek farmoniga muvofiq qurilgan.*

Assalomu alaykum, qadrlil oilam! Bugungi maktubim Ulug'bek rasadxonasi haqida bo'ladi.

*Ulug'bek rasadxonasi Mirzo Ulug'bek farmoniga muvofiq (**qurilmoq**). Rasadxona joylashgan ushbu hudud mahalliy aholi orasida "Naqshi jahon" nomi bilan mashhur (**bo'lmoq**). Ulug'bek rasadxonasida olib borilgan kuzatishlar va tadqiqotlar natijasida **1018** ta yulduzning o'rnini aniqlangan va jadvali (**tuzilmoq**). O'sha davrda matematika va astronomiya fanlariga oid ko'plab nodir asarlar (**yaratilmoq**). Bundan tashqari, ushbu rasadxona qoshida fanning deyarli barcha sohalariga oid qariyb **10 000** jild kitob saqlangan kutubxona ham bo'lgan.*

Sizlarga yozmoqchi bo'lganim hozircha shulardan iborat edi. Do'stlaringiz bilan tushgan rasmlaringizni jo'natyapman. Fikrlaringizni kutib qolaman.

Sevimli Maksingiz.

rasadxona  observatoriya

4. O‘ylang va toping. Gapiring.

o‘qimoq

bormoq

yashamoq

ko‘rmoq

sayohat qilmoq

~~qiziqtirmoq~~

Namuna Samarqandning tarixi xorijliklarni doim **qiziqtirgan**.

1. Samarqandning tarixi xorijliklarni doim ____ .
2. Men bolaligimda oilam bilan Rimga ____ .
3. Tarixdagi eng kuchli sarkardalar va olimlar Samarqandda ____ .
4. Sinfdozlarimiz bilan Samarqand tarixini sevib ____ .
5. Sen kitoblarda Registonning rasmini ko‘p ____ .
6. Siz O‘zbekistonning qaysi tarixiy shaharlariga ____ ?

Mustaqil topshiriq

Oilangizning biror a‘zosiga Samarqand haqida xat yozing.





NAQADAR GO‘ZAL!

1. O‘qing.

Samarqandning Registon ansambli – dunyoga mashhur tarixiy binolardan biri. Bunday tarixiy va mashhur binolarni boshqa mamlakatlarda ham uchratish mumkin. Parijda qurilgan Eyfel minorasi, Agrada joylashgan Toj mahal me‘moriy yodgorligi, Misr piramidalari va Moskva shahridagi Qizil maydon doim sayyohlar bilan gavjum bo‘ladi.

Bu mashhur joylarning barchasi ham qadimiy emas. Masalan, Parijdagi Eyfel minorasi XIX asrda qurilgan. Ushbu minora o‘zining noyob arxitekturasi bilan mashhur. Shuning uchun Parijga borgan har bir sayyoh Eyfelni ko‘rmasdan qaytmaydi.

2. O‘ylang va toping. Gapiring.



3. Tinglang.



4. O'ylang va toping. Gapiring.


T/r	Ma'lumotlar	To'g'ri ✓	Noto'g'ri ✗
1	Bolalar sayohatni Toshkentdan boshlashdi.		
2	Samarqandga "Afrosiyob" poyezdida borishdi.		
3	Alisher Danil va uning do'stlarini O'zbekistonga taklif qildi.		
4	Mirzo Ulug'bek o'z rasadxonasida 1018 ta yulduzning joylashuvini o'rgangan.		
5	Registon uch madrasadan: Tillakori, Bibixonim va Sherdor madrasalaridan iborat.		

5. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. O'zga yurtda shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l.

- o'zga yurtida bo'lguncha shoh gado o'z yurtida bo'l.
- yurting ona beshiging oltin.
- ona omon yurtning bo'lsa bo'lmas rangi ro'ying somon.
- chamanni odam sevar vatanni bulbul
- vatan bilmagan o'z qadrini bilmas qadrini.

6. O‘ylang va toping. Yozing.



1. 2011-yili O‘zbekistonga olib kelinib, ilk bor Toshkent – Samarqand yo‘nalishida harakatlangan poyezd.
2. Maksning yaponiyalik do‘sti kim?
3. Yulduzlar o‘rganiladigan joy.
4. O‘zbekistonning poytaxti.
5. “Samarqandning yuragi” qayer?
6. Registondagi madrasalardan birining nomi.

Mustaqil topshiriq

Sayohatga borganingizda u yerdan esdalik uchun qanday sovg‘a olgansiz? Shu haqida ma’lumot bering.

SAMARQAND – BUXORO



Vokzallar	Qatnov jadvali
	Jo‘nash vaqti
Samarqand	10:21
	Kelish vaqti
Buxoro	12:00




1. O'qing.



2. O'ylang va toping. Gapiring.

1. Bir yuz qirqdan ortiq ...
2. Bir ming to'qqiz yuz to'qson yettinchi yilda ...
3. Ikki ming besh yuz yildan ortiq ...

DIQQAT QILING!



3. Tinglang.

BUXORO



4. O'ylang va toping. Yozing.

Ma'lumotlar	Buxoro arki	Labihovuz
Buxoro hukmdorlarining qarorgohi bo'lgan.		
Ipak yo'lining savdo maydonlaridan biri bo'lgan.		
Miloddan avvalgi I asrdan qurila boshlagan.		
Xo'ja Nasriddin haykali o'rnatilgan.		
Hozirgi ark qadimgi binoning taxminan 20 foizi.		

5. O'ylang va toping. Yozing.

yetib bormoq

zavqlanmoq

aylanmoq

sotib olmoq

~~tomosh~~ qilmoq

ko'hna
qarorgoh
taxminan
xonaqoh
buyruq
tashabbus

Namuna 1. Men kechki Buxoroni **tomosha qildim**.

1. Men kechki Buxoroni ____ .
2. Sen Labihovuzda o'tkazilgan jonli tadbirlarda ____ ?
3. Biz Samarqanddan Buxoroga avtobusda ____ .
4. Alisher do'stlari bilan Buxoro arkini ____ .
5. Sayyohlar Labihovuz rastalaridan esdalik sovg'alari ____ .

LATIFA

Maktabda Afandidan domlasi so'rabdi:

– Nasriddin! To'rtidan to'rtini olsa, nima qoladi?

Afandi javob berolmabdi.

– Masalan, cho'ntagingda to'rt tanga pul bor edi. Shu pul cho'ntagingdan tushib qolsa, nima qoladi?

– Nima qolar edi, tanga tushib ketgan teshik qoladi-da, – deb javob beribdi Afandi.




Mustaqil topshiriq

Buxoro haqida ma'lumotlar to'plang va yozing. Unga Buxoro shahri tasvirlangan rasmlardan yopishtirib, yo'lovchi kundaligi maketini yasab keling.

BUXORO – XIVA

1. O'qing. Gapiring.




2. Tinglang.



3. Savollarga javob bering. Yozing.

1. Xiva shahri O'zbekistonning qaysi viloyatida joylashgan?
2. Shahar nima uchun Xiva deb nomlangan?
3. Xivaning ichki va tashqi qismlari qanday nomlanadi?
4. Nima uchun Xiva "tirik muzey-shahar" deb ataladi?
5. Xivaga qachon asos solingan?






4. O'ylang va toping. Gapiring. Yozing.

Namuna *Mirzo Ulug'bek (1) – rasadxona (5)*

- 1) Mirzo Ulug'bek; 2) Ichan qal'a; 3) Labihovuz; 4) Registon; 5) Rasadxona; 6) Sherdor; 7) Dishan qal'a; 8) Nasriddin Afandi.



DIQQAT QILING!



U Xivaga bugun boribdi.

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna Ular yaxshi yetib olibdilar.

(Alisherning onasi va otasi suhbatlashishyapti.)

Alisherning otasi:

– Alisher Xorazmga yetib boribdimi?

Alisherning onasi:

– Biroz avval qo‘ng‘iroqlashdik. **Ular yaxshi (yetib olmoq).** Tushgacha mehmonxonada dam olibdilar. **Bolalar tushdan so‘ng Xivani (tomosha qilmoq).**

Alisherning otasi:

– Xivadagi rasmlaridan ham yuboribdimi?

Alisherning onasi:

– Albatta, yuboribdi. Menimcha, ular Xivani hali to‘liq ko‘rishga ulgurmagan. Bolalar juda xursand edi. **Suzuko minora oldida rasmga chiroyli (tushmoq).** Mana shu minoraning otini topa olmadim. Esladingizmi, biz ham shu yerda rasmga tushgan edik?

Alisherning otasi:

– Ha, bu – Kaltaminor. U – Xivaning ramzi.

Alisherning onasi:

– **Alisher ukalariga cho‘girma (sotib olmoq).** Xabarining so‘ngida barchamizga **(salom yo‘llamoq).**

Alisherning otasi:

– **Men o‘g‘limizni qattiq (sog‘inmoq).**



Mustaqil topshiriq

Ichan qal‘adagi minoraning maketini yasang (chizing).

XIVA – NUKUS

1. O‘qing.



Nukus – Qoraqalpog‘istonning poytaxti, O‘zbekistonning eng shimoli-g‘arbiy shaharlaridan biri. Nukus shahrida diqqatga sazovor joylar, tarixiy yodgorliklar va zamonaviy binolarni ko‘rishingiz mumkin. “Do‘stlik” xiyoboni, Savitskiy nomidagi san‘at muzeyi, Berdaq milliy muzeyi shular jumlasidandir.

Nukusdan tashqari, Mo‘ynoq, Beruniy, Xo‘jayli, Chimboy, Qo‘ng‘irot, Shumanay, Amudaryo, To‘rtko‘l kabi tumanlar ham bor. Mo‘ynoq – hozirda sayyohlarni o‘ziga eng ko‘p jalb qilayotgan joylardan biri.

Qoraqalpog‘istonning eng yirik ko‘li Orolidir.

2. Savollarga javob bering. Gapiring.

1. Nukus to‘g‘risida qanday ma‘lumotlarni bilasiz?
2. Amir Temur nomidagi bog‘ va xiyobonlar yana qayerlarda bor?
3. Orol dengizi haqida nimalarni bilasiz?

3. Tinglang.



4. O'ylang va toping. Yozing.

Luvr muzeyi

o'tov

170 yil

amaliy san'at

1966-yil

Igor


Nukus

1997-yil

5. O'qing.



Bolalar, bilasizmi, Berdaq milliy muzeyi qoraqalpoq adabiyoti asoschisi, shoir Berdaq nomiga qo'yilgan. Asl ismi – Berdimurod Qarg'aboy o'g'li. U Mo'ynoq tumanida yashagan ekan.



Qoraqalpog'iston san'at muzeyi uning asoschisi va birinchi direktori – Igor Vitallyevich Savitskiy nomi bilan atalgan. I.V. Savitskiy 1915-yilda Kiyevda tug'ilgan. U buyuk rassom bo'lgan.

6. Yozing.

Namuna:

Men
Sen
U

rasmlarni saqlamoq + ~~saqlamoq~~ + -ib, -b

-man
-san
-di

Biz
Siz
Ular

rasmlarni saqlamoq + ~~saqlamoq~~ + -ib, -b

-miz
-siz
-dilar



~~saqlamoq~~, to'plamoq, yopishtirmoq, kesmoq

Mustaqil topshiriq

Biror-bir buyuk rassom yoki shoir haqida ma'lumot yozib keling.

NUKUS – TOSHKENT

1. Tinglang.




2. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Toshkent qadimda Shosh deb atalgan.

1. Toshkent qadimda (*Semizkand / Shosh*) deb atalgan.
2. Buyuk ipak yo'lining (*sharqiy / shimoliy*) tarmog'i Toshkent orqali o'tgan.
3. Yirik bozorlardan biri Chorsu (*Jo'ba / Registon / Sardoba / Eski Jo'va*) nomlari bilan yuritilgan.
4. Toshkentda (*Xoja Ahror / Yunusxon / Islomxo'ja / Ko'kaldosh / Hazrati imom / Hastimom / Zangi ota*) va boshqa masjid, madrasa va ziyoratgohlar barpo etilgan.


3. O'qing. O'ylang va toping. Gapiring.



Ko'kaldosh madrasasini XVI asrda Darvishxon qurdirgan.



Chorsu – 1000 yillik tarixga ega bozor.



Abulqosimxon eshon madrasasi
1850-yilda qurilgan.




Toshkentlik mashhur olim Qaffol Shoshiy
maqbarasi joylashgan hududda
Hazrati imom majmuasi qurilgan.

DIQQAT QILING!



uyni qurdi.



-i, -il
qurildi.

Kim qurdi?

4. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Singlim idishlarni yuvdi. Oshxonadagi idishlar yuvildi.

1. Singlim idishlarni yuvdi. Oshxonadagi idishlar ____ .
2. Bog'bon olmalarni uzdi. Bog'dagi olmalar ____ .
3. Nigora ko'chani supurdi. Ko'chalar ____ .
4. Alisher kitobni o'qidi. Kitoblar ____ .
5. Navbatchi gullarga suv quydi. Gullarga suv ____ .

xalqaro savdo
mashhur
ziyoratgoh
yuritmoq
yirik
mamnunman
safar
bag'oyat
rasta
ishtaha ochmoq

5. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna Uchquduq Navoiy viloyatida.

3 + quduq

4 + ko'l

ko'l + ko'l

ko'l + kent

ko'l + tepa

3 + ko'l

6 + ariq

ko'l + qamish

Yangi + ko'l

6. O'qing.

Ta'limiz tugashiga ham sanoqli kunlar qoldi. O'zbekistonning tarixiy joylarni ham tomosha qilib keldik. Bundan juda ham mamnunman. Lekin safarimiz yakunlanib borayotgani meni biroz xafa qilyapti.



1 Tashkentning bir-biridan go'zal tarixiy obidalarini ham ko'rib keldik.

3 Sizlarga O'zbekiston yoqqanidan bag'oyat xursandman. Ertaga sizlarni zamonaviy Tashkent bilan ham tanishtiraman.




4 Bilasizlarmi, menga Tashkentning Chorsu bozoridaagi hunarmandchilik buyumlari sotiladigan rasta juda yoqdi.

5 To'g'ri, u yerda bir-biridan chiroyli buyumlar bor ekan. Bozorni tomosha qilayotganimizda non sotadigan rasta menga juda ma'qul bo'ldi.



6 Men O'zbekistonni yaxshi xotiralar bilan eslab yuraman.



7 Bay-bay, issiqqina nonlardan taraladigan isni aytmasanmi!?

8 Men keyingi yil O'zbekistonga yana kelaman.

7. O‘ylang va toping. Gaping.

T/r	Ma'lumotlar	To'g'ri ✓	Noto'g'ri ✗
1	Alisher mehmonlarni zamonaviy Toshkent bilan ham tanishtiradi.		
2	Agataga bozorda non sotadigan rasta juda ma'qul bo'ldi.		
3	Agataning non isidan ishtahasi ochildi.		
4	Chorsu bozori – faqat hunarmandchilik buyumlari sotiladigan bozor.		
5	Maks safar yakunlanib borayotganidan biroz xafa.		

Mustaqil topshiriq

“O‘zbekistonning diqqatga sazovor joylari” mavzusida kollaj tayyorlash.

ZAMONAVIY TOSHKENT

1. O‘qing. Gaping.



Toshkent teleminorasi O‘rta Osiyodagi eng baland binodir. Uning balandligi 375 metr. Teleminora qurilishi 1978-yili boshlangan va 6 yil davomida bitkazilgan.

Inshootning balandligi bo‘yicha Markaziy Osiyoda birinchi, MDHda esa Moskvadagi Ostankino teleminorasidan keyin – ikkinchi o‘rinda turadi. Dunyo miqyosida esa 12-o‘rinda turadi.



Teleminorada sayyohlar uchun tomosha maydonchasiga ekskursiya va harakatlanuvchi “Koinot” restorani xizmatlari yo‘lga qo‘yilgan.

100 metr balandlikdagi tomosha maydonchasiga shahar manzarasini tomosha qilish uchun bir necha binokulyarlar o‘rnatilgan.



Toshkentning teleminoradan boshqa diqqatga sazovor joylari juda ko‘p.

2. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Toshkent teleminorasi balandligi bo‘yicha O‘rta Osiyoda birinchi o‘rinda turadi.

1. Toshkent teleminorasi balandligi bo‘yicha (*dunyoda, MDHda, O‘rta Osiyoda*) birinchi o‘rinda turadi.

2. Teleminora MDHda (*Ostankino, Eyfel, Burj Xalifa*) minorasidan keyingi o‘rinda turadi.

3. Minorada (*“Sayyora”, “Koinot”, “Yulduzlar”*) restorani bor.


4. Toshkent teleminorasi (*4 yil, 5 yil, 6 yil*) davomida qurilgan.

5. Toshkent teleminorasi (*375, 467, 573*) metr.

6. Ostankino minorasi (*Toshkent, Moskva, Pekin*)da joylashgan.

7. (*Dubay, Toshkent, Moskva*) teleminorasi balandligi bo‘yicha dunyoda 12-o‘rinda turadi.

3. Tinglang.



4. O‘ylang va toping. Yozing.

Minora nomi	Qurilgan yili	Balandligi	Joylashgan shahri
Burj Xalifa			<i>Dubay</i>
Eyfel			
Toshkent teleminorasi			

5. O'ylang va toping. Gapiring.



6. Yozing.

Namuna *Eshik ochildi.*

o'chmoq, ishlatmoq, topmoq, ichmoq, to'xtatmoq, yozmoq

Mustaqil topshiriq

Dunyodagi baland mineralarning ro'yxatini yozib keling.

BUNI BILASIZMI?

1. O'ylang va toping. Gapiring.



Juda foydali ma'lumot



Yodimda qolgan ma'lumot



Yodimdan ko'tarilgan ma'lumot

2. O'ylang va toping. Yozing.

MYUNSTERBERG


v	b	u	y	u	k	i	p	a	k	y	o'	l	i	t	o	sh	k	e	n	t
k	e	n	i	y	a	s	a	m	a	r	q	a	n	d	b	u	x	o	r	o
y	a	p	o	n	i	y	a	r	e	g	i	s	t	o	n	x	i	v	a	k
o	z	b	e	k	i	s	t	o	n	d	i	sh	a	n	q	a	l	'	a	n
r	o	s	s	i	y	a	g	o	r	i	a	m	i	r	sh	e	r	d	o	r
a	d	i	ch	a	n	q	a	l	'	a	t	i	l	l	a	k	o	r	i	q

3. O'ylang va toping. Yozing.

1. Men



bilan




ga bordim.

2.



da



binolarini ko'rdim.

3. Maks do'stim



lik, Zemi esa



lik, Agata



lik.

4.



ga



da yetib keldik.

5. Buxoroga



da bordik.

4. O'ylang va toping.

1. Ark qal'asi qayerda joylashgan?

A) Buxoroda B) Samarqandda D) Xivada

2. Mirzo Ulug'bek qayerda yashagan?

A) Buxoroda B) Samarqandda
D) Xivada

3. Samarqand qaysi mashhur shaharlar bilan tengdosh?

A) Rim, Nyu York B) Afina, Rim
D) Tokio, Buxoro

4. Shohizinda ansambli qayerda joylashgan?

A) Buxoroda B) Samarqandda D) Xivada

5. Buxoroning yoshi nechada?

A) 2750 B) 2025 D) 2500

6. Qaysi majmua Buyuk ipak yo'lining savdo maydonlaridan biri bo'lgan?

A) Labihovuz B) Buxoro arki
D) Registon

7. Xiva qachon barpo etilgan?

A) XV asr B) III asr D) mil. avv. V asr

8. Nasriddin Afandi qaysi tarixiy shahar qahramoni?

A) Buxoro B) Samarqand D) Toshkent

5. O'ylang va toping. Gapiring.

RASMLAR ORASIDAGI BOG'LIQLIK



6. Tinglang.

TOSHKANIM, ONAM



Buncha yaxshi bo'lmasang,
Toshkanim, onam.
Seni birpas ko'rmasam,
Ko'zlarimda nam.

Kimsan o'zing, nimasan,
Sehrgarmisan?
Bunchalar qiynamasang,
Zulfizarmisan?

Yurolmadim yiroqda,
Seni sog'inib.
Bamisoli firoqda
Yonib, oh urib.

Sensiz xayolim, holim
Parokandadir.
Qayda bo'lsam, xayolim,
Ko'nglim sendadir.

Buncha yaxshi bo'lmasang,
Toshkanim, onam.
Seni bir on ko'rmasam,
Ko'zlarimda nam.

Turob To'la

Mustaqil topshiriq

“Toshkanim, onam” she'rini yod oling. Siz yana qanday tarixiy shaharlarni bilasiz?

“JONLANGAN” TUPROQ

1. Ko'ring.



2. Savollarga javob bering.

1. Agar hamma kulolchilik bilan shug'ullansa, tuproq tugab qoladimi?
2. Kulolga ingliz va fransuz tilini bilish nimaga kerak?
3. Kulolchilik mahsulotlarini tayyorlash uchun havo kerakmi?
4. Uyingizda loydan yasalgan idishlardan nimalar bor?
5. Kulolning biznesini tahlil qiling.
6. Kulolchilik mahsulotlari qayerda yaxshi sotiladi?

3. O'qing.

Texnologiya fani o'qituvchisi kulol bilan uchrashuv tashkil qildi. O'quvchilar Rish-tondagi mashhur kulol Saidjon Ahmedovning uyiga borishdi. Kulol va uning shogirdlari o'quvchilarni yaxshi kutib olishdi. Saidjon Ahmedov ustozlari – Turg'unboy Mirzaboyev va A'zam Ahmadqulovni esladi. O'zining birinchi yasagan xumcha-sini asrab qo'yganini aytdi. Saidjon Ahmedovning bir nechta shogirdlari bor ekan. Saidjon Ahmedovning xonadoniga doim sayyohlar tashrif buyurishadi. Kulol va uning shogirdlari ingliz va fransuz tillarini bilishadi.

Suhbatdan so'ng kulol o'quvchilarga kosa yasab ko'rsatdi. Endi u olovda qizdi-riladi. Kulollar o'z ishlarida kulolchilik charxi, loy va suvdan foydalanishar ekan. Od-diygina tuproq "jonlanib", undan kosa, piyola, choynak, lagan, xum, ko'za, guldon, tuvak, hushtak kabi san'at asarlari paydo bo'ladi.

4. O'ylang va toping. Yozing.

	Ma'lumotlar	A	B
1	Kulolchilik buyumlari yasovchilar ___ deyiladi.	usta	kulol
2	Kulolchilik buyumlari ___ yasaladi.	tuproqdan	misdan
3	Kulolchilik dastgohi ___ deyiladi.	kulolchilik tandiri	kulolchilik charxi
4	O'zbekistondagi eng mashhur kulol-chilik markazi ___ hisoblanadi.	Rishton	Toshkent
5	Kulolchilik buyumlariga ___ kiradi.	kosa, piyola, lagan, ko'za, xum, o'yinchoqlar	chelak, xokandoz, tog'ora

DIQQAT QILING!



keldi



kelishdi

-sh,
-ish

Usta yasadi.
Shogirdlar yasashdi.

5. Yozing.

Namuna O'zbekistonda kulollar o'z kulolchilik maktablarini tashkil etishgan.

O'zbekistonda kulollar o'z kulolchilik maktablarini tashkil et...gan. Ular orasida Rishton va G'ijduvon kulolchilik maktablari buyumlari o'zining nafisligi va betakrorligi bilan ajralib turadi. Oddiygina loydan bejirim, chiroyli buyumlar yasaydigan qo'li gul hunarmandlar o'z asarlarida milliylikni aks ettirishga harakat qil...gan. Mahalliy kulollar ajdodlarining kulolchilik san'ati sirlarini avlodlarga meros qilib qoldir...gan. Chet ellik sayyohlar o'zbek milliy kulolchilik mahsulotlariga katta qiziqish bilan qara...gan va esdalik uchun sotib ol...gan.

6. O'ylang va toping. Yozing.

Mustaqil topshiriq

O'zingiz xohlagan kulolchilik buyumining rasmini chizing yoki plastilindan yasang.



OLTIN QO‘LLAR

1. O‘qing. O‘ylang va toping.



Alisherning sinfidagi ko‘pchilik qizlar “Oltin qo‘llar” to‘garagiga boradilar. Ular to‘garakda zardo‘zlik bilan shug‘ullanishadi. Kecha to‘garak a‘zolari maktab o‘quvchilari uchun o‘z ko‘rgazmalarini namoyish qilishdi. Aziza va Ra‘no zardo‘zlik tarixi haqida o‘quvchilarga ma‘lumot berdi. Buxoro VI asrda zardo‘zlik markaziga aylangan ekan. Zardan tikilgan liboslarni esa faqat amirlar va saroy ahli kiygan ekan.

Ikki qiz tikkan bolalar zarbof to‘ni, zar kamzul va ayollar poyabzali barchaga manzur bo‘ldi.

Sayyora o‘z ishlarini hammadan keyin taqdim qildi. U zardo‘zlikda sabr-toqat, e‘tibor, tartib bo‘lishi kerakligini aytdi.

Qadrlı o‘quvchilar, rasmga qarab toping-chi, Sayyora ko‘rgazma uchun nimalar tikkan?

2. O‘ylang va toping.

	Ma‘lumotlar	To‘g‘ri ✓	Noto‘g‘ri ✗	Berilmagan
1	Zardo‘zlik Samarqandda rivojlangan.		+	
2	Zardo‘zlik mahsulotlari zar va kumush ipdan tikiladi.			
3	Zardo‘zlar hisob-kitobni va rasm chizishni yaxshi bilishi kerak.			+
4	Zardo‘z qizlar to‘n, kamzul, poyabzal, do‘ppi, yelpig‘ich tikishdi.			
5	Tarixda zardan tikilgan liboslarni faqat xon va uning qarindoshlari kiyishgan.			
6	Zar liboslarni nikoh to‘ylarida kelin va kuyovlar, sunnat to‘ylarida esa bolalar kiyishadi.			

3. Tinglang. Savollarga javob yozing.

1. Zardan biror buyum tikish bilan shug'ullanuvchilar nima deyiladi?
2. Qadimda zardan buyum tikish bilan kimlar shug'ullangan? Hozir-chi?
3. Zardo'zlik mahsulotlari qaysi xususiyati bilan ajralib turadi?
4. Zardo'zlar tikishda qanday matolardan foydalanadi?

4. O'qing.



Salom, Zembi! O'qishlaring yaxshimi?

Rahmat, Alisher, yaxshiman. Sen jo'natgan "Oltin qo'llar" to'garagida tikilgan zar liboslarning rasmlarini ko'rib juda xursand bo'ldim. Buxoro va Samarqandga borganimizda ko'rgan zar liboslarni biz tengi qizlar tika olishidan hayratlandim.

Agar yana O'zbekistonga borsam, men ham shu to'garak a'zolaridan tikish sirlarini o'rganmoqchiman. Ular bilan tanishishda menga yordam bera olasanmi?

Senga Buxorodan xarid qilgan libosimda tushgan suratimni jo'natyapman.



5. Savollarga javob bering.

1. Zardo'zlar qaysi fanlarni yaxshi bilishi kerak deb o'ylaysiz?
2. Nima sababdan to'garak "Oltin qo'llar" deb nomlangan? Qo'l oltin bo'lishi mumkinmi?
3. Sayyohlar nima sababdan zardan tikilgan liboslarni qadrlaydilar?

6. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna Zardo'zi mahsulotlarning naqshlarini ham zardo'zlarning o'zlari **chizishadi**.

tikmoq

~~chizmoq~~

qadrlamoq

kiymoq

yordam bermoq

Mustaqil topshiriq

Zardo'zi buyumlar tikishda foydalaniladigan naqshlarni chizing.

QAYGA BORSAM, BOSHDA DO'PPIM...

1. O'qing.

– Salom, Suzuko! Ko'rinishing juda chiroyli. Boshingdagi nima?

– Salom, Yasumi! Bular – o'zbek milliy liboslari. Boshimdagi esa iroqi do'ppi. O'zbekistonga borganimda ko'plab o'zbek milliy mahsulotlaridan olib kelganman. Senga ham Buxoro do'ppisidan olib keldim.

– Rahmat, juda ham mamnun bo'ldim. O'zbekistonda do'ppilarning turlari ko'p ekan-da-a?

– To'ppa-to'g'ri, O'zbekistonning har bir hududining o'ziga xos bosh kiyimlari mavjud.

– Ajoyib, menga bu haqida ko'proq ma'lumot bera olasanmi?

– Kel, yaxshisi, bu haqida do'stim Alisherdan so'raymiz.



2. O'ylang va toping. Gapiring.

T/r	Ma'lumotlar	To'g'ri ✓	Noto'g'ri ✗
1	Suzukoning boshida Buxoro do'ppisi bor.		
2	Suzuko Yasumiga sovg'a olib keldi.		
3	O'zbekistondagi har bir hududning bosh kiyimi bor.		
4	O'zbekistonning milliy bosh kiyimi – kepka.		
5	Suzuko Yaponiya milliy liboslari haqida gapirib berdi.		

3. Tinglang. O'ylang va toping.



- 1) Marg'ilon do'ppisi; 2) Iroqi do'ppi; 3) Qoraqalpoq do'ppisi;
4) Boysun do'ppisi; 5) Zar do'ppi; 6) Chust do'ppisi.

4. O'ylang va toping. Yozing.

Marg'ilon do'ppisi	Boshqa hudud do'ppilaridan bezaklari ko'pligi bilan ajralib turadi
Xorazm do'ppisi	Shahrisabzda tayyorlana boshlagan
Chust do'ppisi	Asosan Buxoroda tayyorlanadi
Iroqi do'ppi	Uzunchoq qalampir tasviri tushirilgan erkaklar do'ppisi
Zar do'ppi	Ko'rinishidan Marg'ilon do'ppisiga o'xshash

DIQQAT QILING!

yap-yangi

qip-qizil

to'ppa-to'g'ri

oppoq

qop-qora


bus-butun

ko'm-ko'k

sap-sariq

yam-yashil


5. O'ylang va toping. Yozing.



6. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Bog'imizda qip-qizil atirgul ochildi.

1. Bog'imizda **qizil** atirgul ochildi.
2. O'tgan yili sotib olgan do'ppim hali ham **yangi** turibdi.
3. Navbatchi xonani supurgandan keyin **toza** bo'ldi.
4. **Oq** qog'ozga mevalarning rasmi chizildi.
5. Ukam Salimjon **katta** yigit bo'lib qoldi.



7. O'qing.



DO'PPI MAKETINI YASASH

Andoza tayyorlash. Buning uchun bosh aylanasini o'lchab olinadi. Masalan, 54 cm. Olingan o'lcham asosida do'ppining tepa qismi radiusi $R = L : 6,28$ formulasi orqali aniqlanadi. Demak, $54 : 6,28 = 8,6$ cm.

Bu yerda: L – o'lcham uzunligi, 6,28 – o'zgarmas son.

So'ng sirkul yordamida 8,6 cm radiusli aylana chiziladi. Chizilgan aylana qaychi-da kesib olinadi va karton qog'ozga ko'chirilib, do'ppining tepa qismi andozasi tayyorlab olinadi.

Kizak (pastki) qismini tayyorlash. Endi kizak qismi andozasi chiziladi. Buning uchun eni 4 cm, uzunligi 54 cm ga teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizib olinadi. Kizakning enini 4 cm dan oshirib olish ham mumkin. Bu do'ppining chuqurroq bo'lishini ta'minlaydi.




Andoza olingandan keyin ustiga mato qoplanadi va turli munchoqlar bilan bezatiladi.

Mustaqil topshiriq

1. "Do'ppim – faxrim" mavzusida matn tuzing va do'ppi kiygan rasmingizni ilova qiling. Do'ppi maketini yasang.

MILLIY LIBOSLAR

1. O'qing.



– Agata, xohlaysanmi, seni milliy liboslar ko'rgazmasiga olib boraman?

– Ha, albatta, Alisher. Men dunyo xalqlari milliy liboslariga juda qiziqaman.

– Juda yaxshi. Bugun sen bilan Buxoro tasviriy san'at muzeyining ko'rgazmalar zaliga boramiz.


– Bu muzeyda milliy liboslar ham saqlanadimi?

– Ha, u yerda ipak va yarim shoyi matolardan tayyorlangan turli liboslar, shuningdek, Buxoro shoyisidan tayyorlangan buxorocha liboslar, turli taqinchoqlar saqlanadi. Buxoroga kelgan sayyohlar u yerda o'tkaziladigan namoyishlarni zavq bilan tomosha qiladilar.

– Qani, ketdik, bo'lmasa. Juda qiziqib qoldim.



2. Savollarga javob bering. Gapiring.



1. Alisher Agatani qayerga taklif qildi?
2. Bolalar, ushbu ko'rgazma sizda ham qiziqish uyg'otdimi?
3. Siz qanday ko'rgazmalarda ishtirok etgansiz?
4. Televizor orqali namoyish etiladigan ko'rgazmalarni tomosha qilasizmi?

3. O'qing. Gapiring.


O'zbek milliy kiyimlari uzoq tarixga ega. Unda o'zbek xalqining milliy xususiyatlari aks ettirilgan. Hozir ham milliy liboslardan keng foydalaniladi. Ular o'zbek madaniyati va tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lib, har bir viloyat uchun o'ziga xos va mosdir.

O'zbek ayollarining milliy liboslariga zarchopon, do'ppi, atlas va beqasamdan tikilgan liboslar kiradi. Erkaklarning milliy liboslariga esa chopon, do'ppi, belbog' va yaxtak kiradi. O'zbek milliy liboslarining o'zgacha jozibasi bor. Shuning uchun dunyoning turli joylaridan kelgan mehmonlar madaniyatimizga rom bo'lib qoladilar.

1. Siz ham milliy liboslarimizga qiziqasizmi?
2. Sizga qaysi millatning milliy libosi qiziq? Nima uchun?
3. O'zingizning milliy libosingiz haqida so'zlab bering.



4. Tinglang. Yozing.



Milliy liboslar	Ayol	Erkak	A / E
Do'ppi			
Zarchopon			
Belbog'			
Yaxtak			
Ro'mol			

Ham ayollar, ham erkaklar kiyadigan liboslar: _____.

Barcha viloyatlarga xos bo'lgan kiyim turlari: _____.

Faqat ayollar kiyadigan liboslar: _____.

Faqat erkaklar kiyadigan liboslar: _____.

5. O'ylang va toping. Yozing.

<i>Tikyapti</i>	<i>Tikish</i>
O'qiyapti	
Bezatyapti	
Kiyyapti	
Ishlayapti	
Yozyapti	
Bog'layapti	


Mustaqil topshiriq

Sizga qaysi milliy kiyim yoqadi? Rasmini chizing.

XALQ DURDONALARI

1. O'qing. Gapiring.

Ra'no bilan Aziza Xalq amaliy san'ati muzeyiga borishdi. Ular muzeyda ikki sayyohni uchratib qolishdi. Sayyohlar kulolchilik buyumlarini tomosha qilishardi. Ularga tarixiy buyumlar juda yoqdi. Sayyohlar Azizadan muzeydagi buyumlar haqida gapirib berishini so'rashdi. Afsuski, Aziza ingliz tilini yaxshi bilmas edi. Bu vaziyatni ko'rgan Ra'no tezda sayyohlar oldiga kelib, ularga ingliz tilida muzeydagi eksponatlar haqida gapirib berdi. Sayyohlar zargarlik, miskarlik, gilamdo'zlik, kulolchilik, zardo'zlik, naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, kashtachilik namunalari bilan tanishganlaridan xursand bo'lishdi va Ra'noga rahmat aytishdi. Ra'no esa bu voqeadan keyin kelajakda gid bo'lishga qaror qildi.



2. Savollarga javob bering.

1. O'zbek milliy hunarmandchiligi mahsulotlarini ko'rish uchun qaysi muzeyga borish kerak?
2. Aziza nima sababdan qiyin vaziyatga tushib qoldi?
3. Gid bo'lish uchun qaysi fanlarni yaxshi o'zlashtirish kerak?
4. Siz Ra'noning o'rnida bo'lganingizda sayyohlarga nimalar haqida ma'lumot bergan bo'lardingiz?
5. Siz qaysi muzeyga borgansiz va u yerda nimalarni ko'rgansiz?
6. Muzeyga borganingizda sizni hayratlantirgan narsa nima?

3. O‘ylang va toping.

-sh
-ish

- 1. Milliy bosh kiyim berilgan javobni toping.**
A) telpak B) do‘ppi D) shlyapa E) kepka
- 2. Milliy mato berilgan qatorni toping.**
A) velvet B) to‘rli mato D) bo‘z E) atlas
- 3. Milliy poyabzalni toping.**
A) mahsi, kovush B) krepdeshin D) etik E) botinka
- 4. Erkaklar libosidagi milliy element...**
A) kamar B) qilich D) belbog‘ E) soat
- 5. O‘zbek to‘ylarida kiyiladigan milliy libos...**
A) zarchopon B) kostyum-shim D) yaxtak E) oq ko‘ylak

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Bolalar muzeyga borishni yoqtiradi.

1. Bolalar muzeyga (*bormoq*) ni yoqtiradi.
2. Anvar zargarlik buyumlarini (*yasamoq*) ni o‘rganyapti.
3. Zumrad do‘ppi (*tikmoq*) ga qiziqadi.
4. Muzeyda ba‘zi eksponatlarni (*rasmga olmoq*) mumkin emas.
5. Ra‘no ingliz va fransuz tillarini (*o‘rganmoq*)ni xohlaydi.

5. Tinglang.

Boshginam og‘riydi



6. O‘ylang va toping.

- | | |
|------------------------------|-----------|
| Boshginam og‘riydi | Do‘kon |
| Bilakkinam og‘riydi | Zirak |
| Quloqqinam og‘riydi | Onang |
| Boshginangdan ____ o‘rgilsin | Do‘ppi |
| ____ larda sotilar emish | Bilaguzuk |

7. O‘ylang va toping. Gapiring.

Foydalanish uchun so‘zlar: kovush, nimcha, yaxtak, belbog‘, tillaqosh, baldoq, mahsi, bilaguzuk, shalvar.

Mustaqil topshiriq

Siz qanday mashhur muzeylarni bilasiz? Ularning nomlarini yozib keling.

ZARGARLIK

1. Tinglang.



2. O'ylang va toping. Gapiring.

1. Danil sovg'ani onasiga nega berdi?

- A) onalar kuni bo'lgani uchun B) onasining tug'ilgan kuni bo'lgani uchun
D) onasini yaxshi ko'rgani uchun

2. Maks onasiga O'zbekistondan qanday sovg'a olgan?

- A) zebigardon B) uzuk D) zirak

3. Danilning sovg'asi onasiga nega yoqdi?

- A) onasining orzusi bo'lgani uchun B) qimmat bo'lgani uchun
D) Maks tanlagani uchun

4. Sharqona taqinchoqlar judayam ... bo'ladi.

- A) qimmat B) nafis D) katta

3. O'qing.

MEN KIMMAN?

Zargarlik O'zbekistonda rivojlangan kasblardan biri. Zargarlik buyumlaridan milliy liboslarni boyitish maqsadida foydalaniladi. Bugungi mohir zargarlardan biri Sultonmurod Farhodov hisoblanadi. U yoshligidan zargarlikka juda qiziqqan. Maktabni tamomlagach, zargarlik kollejida o'qishini davom ettirgan. Sultonmurodning oylik daromadi o'rtacha 20–25 million so'mni tashkil etadi.

“Zargarlik buyumlariga ishlov berishda juda ehtiyotkorlik talab qilinadi”, – deydi usta.

Bitta uzukni yasash bir soat vaqt oladi. Uzuk va zirak to‘plamini yasash uchun 3–4 soat vaqt kerak bo‘ladi. Zanjir va bilaguzuklar tayyorlash uchun esa 3 soat vaqt ketadi. Avvallari zargar bir haftada yasagan buyumlarni hozir uskunalar 2–3 soatda yasaydi.

Zargar bo‘lish oson emas. Buning uchun zargar to‘g‘ri, halol, ijodkor va sabrli bo‘lishi kerak.



4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Zargarlarning oylik daromadi o‘rtacha 20–25 million so‘m.

1. Zargarlarning oylik daromadi taxminan qancha? (o‘rtacha)
2. Uzuk va zirak to‘plami qancha vaqtda tayyor bo‘ladi? (3–4 soat)
3. Zargarlik buyumlari faqat qo‘lda yasaladimi? (uskuna)
4. Zargar qanday bo‘lishi kerak? (sabrli)
5. 583, 585, 999 raqamlari nimani anglatadi? (tilla)

zargarlik

soha

ijodkorlik

sabrlilik

5. O‘ylang va toping. Yozing.



TEZ AYTISH

Katta-katta ko‘zmunchoq –
Ko‘ylagimga ko‘rk-munchoq.

Mustaqil topshiriq

Zargarlik buyumlarining rasmini chizing va nomlarini yozib keling.

BETAKROR USTUNLAR

1. Tinglang.



2. Savollarga javob bering. Gapiring.

1. Suhbatda qaysi san'at turi haqida so'z bordi?
2. Siz bu amaliy san'at turi haqida nimalarni bilasiz?
3. Bu amaliy san'at turida nimalardan foydalaniladi?
4. Bu san'at turiga sizda qiziqish uyg'ondimi? Qani, ketdik.

yog'och o'ymakorligi

hissa

bo'rtiq

3. O'qing.

Yog'och o'ymakorligi O'zbekistonning barcha viloyatlarida qadimdan keng tarqalgan. O'ymakorlikka oid bo'rtiq naqshlar me'morchilikda keng qo'llanadi. Eshik, darvoza, ustun, xontaxta, quticha, qalamdon va lavh kabi buyumlarda ularni uchratish mumkin.

Bu kasb kishidan ko'p mehnat talab qiladi. Yog'och o'ymakorligi mahsulotlarini yasashda qayrag'och, archa, yong'oq, tut, o'rik, chinor, tol, terakdan foydalaniladi.

Yog'och o'ymakorligi san'atining rivojlanishida Ortiq Fayzullayevning ham xizmati katta. Bu san'at namunalarini "Xotira maydoni" memorial majmuasi, Oliy Majlis bino-si, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Hastimom majmuasi, "Xalqlar do'stligi" saroyida ko'rishimiz mumkin.

4. O'ylang va toping. Yozing.

xontaxta

qalamdon

eshik

quticha

ustun


lavh



Namuna 1. Botir singlisiga yog'och o'ymakorligi to'garagida qalamlarini solish uchun qalamdon yasadi.

1. Botir singlisiga yog'och o'ymakorligi to'garagida qalamlarini solish uchun ____ yasadi.
2. O'zbek xonadonida odatda ____ atrofida o'tirib ovqatlaniladi.
3. Ayollar zeb-ziynatlarini ____da saqlashadi.
4. Hashamatli binolarda o'yma naqshli yog'och ____ va ____larni ko'rishingiz mumkin.
5. Alisher Agataga ____ sovg'a qildi.

5. O'ylang va toping. Yozing.



6. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Naqsh. 2. ...

t	u	a	n	j	a	r	a	t	u	p	r	q
g	s	u	a	x	o	n	t	a	x	t	a	x
a	t	s	q	f	g	h	j	k	l	o	p	y
z	u	c	sh	o	g	i	r	d	v	e	m	n
q	n	e	r	t	z	u	i	o	u	s	t	a
a	m	a	l	i	y	k	s	a	n	'	a	t
a	u	s	d	f	b	e	z	a	k	s	d	g
f	n	g	z	x	c	v	b	n	m	l	k	h
a	t	t	b	k	t	o	q	u	t	i	ch	a
q	a	l	a	m	d	o	n	f	r	e	t	q
s	n	b	m	l	a	v	h	r	g	s	o	l
d	k	f	o'	y	m	a	k	o	r	l	i	k

Mustaqil topshiriq

Yog'och o'ymakor usta Ortiq Fayzullayev haqida ma'lumot yozib keling. (30–50 ta so'zdan iborat matn tuzing.)



MILLIY TAOMLAR

1. O'qing.

O'zbek milliy taomlari bilan tanishamiz.



Norin – Toshkent milliy taomi. Norin bu – somoncha qilib kesilgan ot go'shti va pishirilgan xamirdan tayyorlanadigan mazali taom.

Bilasizmi, Sirdaryo viloyatida qovurilgan baliq juda ham mazali tayyorlanadi. Buning sababi esa baliqlar daryoning o'zidan tutiladi.



Samarqandning mashhur taomlaridan biri bu – no'xatsho'rak. Bu taomni sayyohlar juda sevib iste'mol qilishadi. No'xatsho'rak no'xat va go'shtdan tayyorlanadi.



Qashqadaryo viloyatining eng mashhur taomi bu – tandir go'shti. Bu taom qo'y go'shtidan tayyorlanadi. Qo'y go'shti katta bo'laklarga bo'linadi va ziravorlarga to'yintirilib, tandirda uzoq vaqt pishiriladi. Tandır go'shti boshqa davlatlarga ham eksport qilinadi.





Xorazm viloyatining elga mashhur taomi – tuxumbarak. U vitamiga boy taomdir. Bu taom xamir va tuxumdan tayyorlanadi.




Qoraqalpog'istonda esa mashhur taom jo'xori gurtik deb nomlanadi. Bu taom xamir va go'shtdan tayyorlanadi. Quvvatni tiklovchi taom hisoblanadi.

2. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna Toshkent – norin

Toshkent	→	leshbarmoq
Sirdaryo		tuxumbarak
Italiya		chexambili
Samarqand	→	norin
Qashqadaryo		sushi
Yaponiya		no'xatsho'rak
Xorazm		qovurilgan baliq
Gruziya		spagetti
Qozog'iston		tandir go'shti

DIQQAT QILING!



3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Biz oshning sabzisini ko'pincha somoncha shaklda to'g'raymiz.

- | | | | |
|--------------------------|-----------|-------------------------|-------------|
| 1. Biz oshning sabzisini | doimo | somoncha shaklda | ishlatiladi |
| 2. Shamollaganimizda | odatda | tomog'imizni | yoziladi |
| 3. Mehmon kelganda | har doim | dasturxon | to'g'raymiz |
| 4. Tug'ilgan kunimda | ko'pincha | yaqinlarimdan sovg'alar | olaman |
| 5. Noringa | hamisha | ot go'shti | chayamiz |

4. Tinglang.



5. O'ylang va toping. Gapiring.



Osh tayyorlash		
Asosiy mahsulotlar	Qo'shimcha mahsulotlar	Solinmaydigan mahsulotlar
Sabzi	Behi	Karam
_____	_____	_____

Mustaqil topshiriq

O'zingiz yoqtirgan taomning tayyorlanish usulini yozib keling.

MINORALAR




1. O'qing.

Assalomu alaykum, do'stim Alisher!

O'qishlaring, ishlaring yaxshimi? Kecha menga tarixiy binolardan biri haqida taqdimot tayyorlab kelish vazifasi berildi. O'zbekistonga borganimda meni hayratga solgan tarixiy minoralar haqida taqdimot tayyorladim. U barchaga yoqdi. Do'stlarim bilan O'zbekistonga borishni maqsad qildik. Borganimda sen bilan yana albatta uchrashaman.

Hurmat bilan keniyalik do'sting Zembi.

2. Tinglang. O'ylang va toping. Gapiring.



minora
me'moriy yodgorlik
muhandis
me'mor
xom g'isht
qadimiy

eng baland, pastroq, balandroq, eng qadimiy, baland

Namuna Islomxo'ja minorasi **eng baland** minoradir.

3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Toshkent teleminorasining balandligi 375 metr bo'lib, u O'rta Osiyodagi **eng baland** inshootdir.

Foydalanish uchun so'zlar:
uzunroq, ~~eng baland~~,
juda chiroyli va maftunkor,
qadimiy, eng qadimiy,
keng va yorug', og'irroq.

1. Toshkent teleminorasining balandligi 375 metr bo'lib, u O'rta Osiyodagi _____ inshootdir.
2. Buxoroda ming yillik tarixga ega binolar saqlanib qolgan, u _____ markazlardan biri.
3. Amudaryo Sirdaryoga qaraganda _____ .
4. Toshkent ko'chalari _____ .
5. Xiva shahri – _____ shaharlardan biri.
6. Samarqand noni Toshkent nonidan _____ .
7. Marg'ilonning adras, atlas matolari _____ .

4. O'ylang va toping. Gapiring.

1. O'zbekistondagi minoralarni sanang.
2. Sizingcha, eng zamonaviy minora qaysi?
3. Minoralar orasida eng qadimiysi qaysi?
4. Sizda qaysi minora qiziqish uyg'otdi? Nima uchun?
5. Minoralardan qanday maqsadlarda foydalaniladi?

Mustaqil topshiriq

Minoralardan birining maketini yasab keling.

MUSTAHKAMLASH

1. O'ylang va toping. Gapiring.




2. O'qing.

Minorayi kalonni "Buxoro me'morchiligining o'ziga xos durdonasi" deyishadi. Chunki turli bosqinlar, tabiiy ofatlarda ko'plab me'moriy obidalar vayron bo'lgan. Usta Baqo minoraga naqsh solayotib ana shu yodgorliklardagi bezaklardan nusxa olgan ekan.

Minorayi kalon qadimda savdo karvonlari uchun mayoq vazifasini o'tagan. Uning ustiga kechalari chiroq yoqib qo'yilgan. Buyuk ipak yo'li bo'ylab harakatlanib ketayotgan karvonlarga minora olis-olislardan ko'rinib turgan.

3. O'ylang va toping. Yozing.

1. Xaritada sayohatingizning rejasini tartiblang.
2. Qayerga? Nega? Kim bilan? Qachon? Ushbu savollarga javob bergan holda kichik matn tuzing.



4. O'ylang va toping. Yozing.

tilla, osh, uzuk, minora, ustun, somsa, no'xatsho'rak, xontaxta, eshik, Registon, Ichan qal'a, teleminora, zirak, bilaguzuk, norin, lavh

Taomlar	Binolar	Zargarlik	Yog'och o'ymakorligi
_____	_____	_____	_____

5. O'ylang va toping. Gaping.

1. qadrini bilar zargar zar.
2. eskisini yangi qurmay uy turib, buzma.
3. yigitga bir qirq ham oz hunar.
4. shogird usta maqomga har yo'rg'alar ko'rmagan.

ADABIY O'QISH

HUNAR HAQIDA ERTAK

Burungi zamonda bir podshoh bo'lgan ekan. U bir kambag'alning qiziga uylanmoqchi bo'lib, sovchi yuboribdi. Sovchilar kelib, podshohning niyatini qizga aytishibdi. Qiz sovchilarga:

– Podshohga aytinglar, olmoqchi bo'lsa, men ham roziman. Lekin podshoh bir hunar bilsagina, tegaman, bilmasa – o'rgansin, – debdi.

Sovchilar podshohning oldiga kelib qizning shartini aytishibdi.

Podshoh bu gapni eshitib, avval achchiqlanibdi, so'ng o'ylanib turib, qizning gapi ta'sir qilibdi: “Podshohligim hunar emas ekan-da. Xayr, hunar ham o'rganay”, deb o'z o'rniga vazirini qoldirib, hunar axtarib chiqib ketibdi. Hamma hunarlarni ko'ribdi, oxiri gilamchilik ma'qul bo'libdi. Gilam to'qiydigan bir yaxshi ustani topib, unga shogird tushibdi. Uch yil-u uch oy deganda gilam to'qishni o'rganibdi. Bir gilam to'qib qizning uyiga yuboribdi. “Hunar o'rgandik, shartini bajar-dik”, debdi. Qiz:

– Podshoh shartni bajargan bo'lsa, men ham so'zimda turibman, – debdi.

Podshoh to'y-tomoshga qilib, qizga uylanibdi.

Kunlardan bir kuni mamlakatdagi savdogarlar, katta-katta boylardan bir qanchasi g'oyib bo'libdi. Qancha axtarishmasin, baribir ularning daragini topisholmabdi. Bu xabar podshohga yetib kelibdi. Podshoh: “Bularni o'zim axtarayin, shaharda bir sir borga o'xshaydi, buni bilmasam bo'lmaydi”, deb podshohlik kiyimlarini yechib, boshqa kiyimlar kiyib, kechasi xalq uxlagandan keyin shaharni aylanmoqchi bo'lib saroydan chiqib ketibdi. Aylanib yursa, uzoqdan bir chiroq ko'rinibdi. Podshoh to'g'ri shu chiroq ko'ringan joyga borsa, bir oshxona ekan. Oshxonaning ichida ko'p odam ovqat yeb o'tirgan ekan. Eshikni ochib qarashi bilan oshxona egasining ko'zi unga tushibdi va:

– Nima ishingiz bor? – deb so'rabdi.

Podshoh:

– Qornim och, ovqat yemoqchiman, – debdi.

Oshxona egasi:

– Qani, ichkari kiring, to'rga o'ting, – deb podshohni ichkari xonaga olib kiribdi.

Podshoh to'rga o'tayotib yerto'laga tushib ketibdi.

Qarasa, ro'parasida bir kishi turibdi. U kishi podshohni sudrab ichkari bir xonaga olib kiribdi. Xonada odam juda ko'p ekan. Podshohning ko'ngliga g'ulg'ula tushibdi. Bir kishi o'tirgan yeridan shartta turib, qo'lida katta pichoq: “Qani, hozir navbat kimniki?” deb to'g'ri podshohning oldiga kelib, uni so'ymoqchi bo'libdi. Podshoh esankirab qolibdi:

– Sizlar kimsizlar?! Sizlarga jon kerakmi, mol kerakmi, pul kerakmi? – debdi. Ular:

– Bizga jondan boshqa bari kerak, u bo'lmasa, jon kerak, hozir sening kallang kerak, – deyishibdi.

Podshoh:

– Pul, mol topib bersam bo'ladimi? – debdi.

Ular:

– Bo'ladi, – deyishibdi.

Podshoh:

– Unday bo'lsa, bir hunar ko'rsataman, mening aytganimni qilaszlar. Men bir gilam to'qib beraman, shuni podshohga olib bor-sanglar, ming tilla beradi, – debdi.

Ular:

– Qani, hunaringni ko'raylik, – deyishibdi.

Podshoh u kerak, bu kerak deb gilam to'qish uchun kerakli narsalarni aytibdi. Haligi odamlar bozorga borib, podshoh aytgan narsalarni olib kelishibdi. Podshoh gilam to'qishga kirishibdi. Gilamni to'qib bo'lgach:

– Mana bu gilamni podshohga olib bor-inglar. Podshoh sizlarga ming tilla beradi, – debdi.

Haligi odamlar gilamni podshoh saroyiga olib borishibdi. Saroydan bir mahram chiqib, gilamni ichkariga olib kirib, vazirga ko'rsatibdi. Bular podshohning yo'qolib qolganidan jig'ibiyron bo'lib yurgan ekan. Maslahatlashib, gilamni podshohning xotiniga ko'rsatibdilar. Malika eri to'qigan gilamni tanib, uni keltirgan odamlarga ming tilla berib yuborib, orqasidan odam qo'yibdi. O'g'rilar tillalarni olib, suyunib to'g'ri oshxonaga kirib boribdi. Orqasidan poylab kelgan odam vazirga xabar beribdi. Vazir askarlar bilan kelib, oshxonani o'rab, ichkariga kirib podshohni topibdi. Podshoh tutqunlikdagi odamlarning barchasini ozod qilibdi. Odam o'g'rilarining qo'llarini bog'latib, saroyga keltiribdi hamda hammasini qatl qilibdi.

O'zbek xalq ertagi

2-chorak

QANI, KETDIK

KAMARLARNI TAQING!



1. Tinglang.




2. O'ylang va toping. Gapiring

T/r	Ma'lumotlar	To'g'ri ✓	Noto'g'ri ✗
1	Ushbu suhbatda 3 kishi ishtirok etgan.		
2	Bolalar Samarqandga tezyurar poyezdda borganlar.		
3	Suzuko poyezdda ketayotganida tuyalarni ko'rib qolgan.		
4	Zembi tuyalarni faqat rasmda ko'rgan.		
5	Alisherga samolyotda uchish yoqib qolgan.		

3. O'ylang va toping. Yozing.





Yerusti transportlari	Yerosti transportlari	Suv transportlari
_____	_____	_____

4. O‘qing.

Asaka avtomobil zavodi O‘zbekiston avtomobil sanoatining yetakchi va to‘ng‘ich korxonasidir. Ushbu korxonaning ishga tushirili-shi tufayli O‘zbekiston jahonda o‘z avtomobil sanoatiga ega bo‘lgan 28 mamlakat qatori-dan o‘rin oldi. Asaka avtomobil zavodi Andijon viloyatining Asaka shahrida 1994–1996-yil-larda qurilgan.




Avtomobil zavodini tashkil etish to‘g‘risidagi shartnoma 1992-yil 29-avgustda imzolangan, zavod qurilishi esa 1994-yil boshida boshlangan. 1996-yil 19-iyulda zavodning tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.



Ushbu zavodda ishni asosan Shvetsiyadan kel-tirilgan robotlar bajaradi. Robotlarni bir necha ishchi kompyuter orqali boshqaradi. Mashinalar bo‘yash bo‘limiga o‘tib, bo‘yalib chiqadi, so‘ng yig‘uv bo‘limi-ga o‘tadi. Bu bo‘limda mashina detallari joy-joyiga qo‘yiladi. Tayyor bo‘lgan avtomobillar sinalib, zavod eshigidan chiqariladi.

Bugun “O‘zavtomotors” quyidagi model-dagi avtomobillarni ishlab chiqaradi: “Da-mas”, “Spark”, “Nexia”, “Cobalt”, “Lacetti”, “Malibu”, “Tracker”.



5. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna Mashinani haydovchi boshqaradi. Avtomobil benzin, elektr va dizelda yuradi. Uni boshqarish uchun haydovchilik guvohnomasi kerak.

Transport turlari	Mashinist	Haydovchi	Uchuvchi	Benzin	Elektr	Dizel	Guvohnoma	ABCD
Avtobus	-	+	-	+	+	+	+	D
Kema								

Mashina								
Metro	+							
Mikroavtobus								
Mototsikl								
Poyezd	+							
Samolyot								
Tramvay								
Velosiped								
Vertolyot								

Mustaqil topshiriq


Kelajak avtosi haqida ma'lumot toping.

AVTOBUS NEGA QIZIL?


1. O'qing.




Agata, xatingda boshqa shaharga ko'chganingni yozibsan. Qaysi shaharda yashayapsan?



Biz oilamiz bilan Londonga ko'chib keldik. London – juda go'zal shahar.



Bilasanmi, Agata, London deganda ko'z oldimda "Big Ben" gavdalanadi.



Mening xayolimga esa birinchi bo'lib "Tauer" ko'prigi keladi.



Mening tasavvurimda esa "London Eye" ("London ko'zi") rasmi paydo bo'ladi.



Men esa Londonni ikki qavatli qizil avtobuslarsiz tasavvur qila olmayman. Toshkentda ham diqqatga sazovor joylarni ikki qavatli ekskursiya avtobuslarida aylangan edik.

Agata, nima uchun bu avtobuslar ikki qavatli va ularga aynan qizil rang tanlangan?

2. O'ylang va toping. Gapiring.

Tengdoshlaringiz Londondi nimalar bilan tasavvur qilishadi?



talab ko'paydi

ehtiyoj tug'ildi

nazardan chetda

qolmaslik

	✗	✗	✗	✓


3. Tinglang.



4. O'ylang va toping. Yozing.

T/r	Ma'lumotlar	To'g'ri ✓	Noto'g'ri ✗
1	Ikki qavatli avtobuslar "dabldeker" deb ataladi.		
2	Birinchi ikki qavatli avtobuslar Yaponiyada ishlab chiqarilgan.		
3	Dabldeker XIX asrning 20-yillarida paydo bo'ldi.		
4	Turistlar atrofni yaxshi kuzata olishi uchun avtobusning ikkinchi qavati o'ylab topilgan.		
5	Dabldekerlar noqulay ob-havoda ham yaqqol ko'rinib turishi uchun qizil rang tanlangan.		

DIQQAT QILING!



5. O'ylang va toping. Yozing.

- tomosha qilmoq qatnashmoq ~~bormoq~~ tayyorlamoq bermoq kelmoq

Namuna *Dam olish kuni oilamiz bilan hayvonot bog'iga boramiz.*

1. Dam olish kuni oilamiz bilan hayvonot bog'iga _____.
2. Bugun do'stim bilan kutubxonada dars _____.
3. Siz onangizning tug'ilgan kuniga qanday sovg'a _____?
4. Alisher ertaga sport musobaqasida _____.
5. Malika sen yozda ingliz tili to'garagiga _____?
6. Bolalar Toshkentni qizil avtobusda _____.

Mustaqil topshiriq

Tasavvuringizdagi avtobus dizaynini yarating. Unga qanday rang tanlamoqchisiz? Nima uchun?

TEZYURAR POYEZD

1. Tinglang. Gapiring.



2. Savollarga javob bering. Gapiring.

1. Birinchi tezyurar “Sinkansen” poyezdi qaysi davlatga tegishli?
2. Tezyurar poyezd haqida nimalarni bilasiz?
3. Poyezdga chiqqanmisiz? Poyezddagi xotiralaringizni soʻzlab bering.
4. Vodiyda qaysi viloyatlar joylashgan?

tezyurar poyezd

eslayman

vodiy


3. Oʻqing.

POYEZDLAR “SHAJARA” SI

1803-yilda ingliz ixtirochisi va muhandisi Richard Trevitik dunyodagi birinchi poyezdni va lokomotivni **loyihalashtirdi**. Bu poyezdga faqat bitta yoʻlovchi vagon **biriktirilgan**.



1834-yilda ota-bola Cherepanovlar suv bugʻi bilan ishlaydigan dvigatel – parovoz **yaratishgan**. Bu lokomotiv bugʻ bilan yurgani uchun “parovoz” deyiladi.



Elektr dvigatelli lokomotiv “elektrovoz” deyiladi. Ular parovozlardan tezroq yurib, koʻproq vagon torta oladi. Dvigatellari tok bilan ishlaydi. Tok dvigatelga relslar ustiga tortilgan simlardan keladi.



Tezyurar poyezd deb soatiga 140 kilometr tezlikda yuradigan poyezdlarga aytiladi. Hozir Yaponiya, Xitoy va Yevropaning qator mamlakatlarida 300 kilometr masofani atigi bir soatda bosib oʻtuvchi poyezdlar oddiy transport turiga aylanib bormoqda. Oʻzbekistondagi eng tezyurar poyezd “Afrosiyob”dir. Bu tezyurar poyezd soatiga 250 kilometr tezligi bilan dunyoda 17-oʻrinda turadi.

4. Oʻylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Parovoz bu – bugʻ bilan harakatlanadigan poyezd.

1. Parovoz bu – _____.


2. Elektrovoz bu – _____.

3. Tezyurar poyezd bu – _____.

4. “Afrosiyob” bu – _____.

5. Richard Trevitik bu – _____.

DIQQAT QILING!



5. Yozing.

Namuna Biz Andijonga keyingi yil boramiz.

1. Biz Andijonga keyingi yil _____.
2. Nilufar tezyurar poyezdida Samarqandga _____.
3. Bolalar dam olish kuni shahar bo'ylab _____.
4. Ta'tildagi sayohatimizda siz muzeylarda rasmga _____.
5. Endi ular ham Germaniyaning suratlarini _____.

- bordik, boryapsiz, boramiz
- ketdingiz, ketadi, ketganmiz
- kezadilar, kezyapmiz, kezmoqchiman
- tushgan, tushasiz, tushyapti
- to'plabman, to'plagansan, to'playdilar

Mustaqil topshiriq

Tezyurar poyezdlarning 10 taligini tuzing.

Dovon – tog'ning oshib o'tish qulay bo'lgan joyi.

AVTOBUS

1. Tinglang.



2. O'ylang va toping. Gapiring.

1. Richard Trevitik ...ni loyihalashtirgan.

- A) avtomobil B) poyezd C) avtobus

2. "Benz" zavodi qaysi davlatga tegishli?

- A) Germaniya B) Angliya C) Fransiya

3. "Yashil transport" bu – ...

- A) avtobus B) elektrobus C) avtomobil

4. Angliyada takomillashtirilgan 28 o'rinli avtobus qachon yura boshlagan?

- A) 1829-yil B) 1903-yil C) 1909-yil


3. O'ylang va toping. Yozing.


Namuna *Avtobuslarning yangi avlodlari – elektrobuslar Toshkentga Belorussiyadan keltirilgan.*

Avtobuslarning yangi avlodlari – elektrobuslar Toshkentga Belorussiyadan (*keltirilmoq*). Bu transport turi atrofga zararli chiqindilar chiqarmasligi, shovqinsizligi va sof energiya manbaini qo'llashi bilan (*ajralib turmoq*). "Yashil transport" maxsus batareyalarda (*quvvatlanmoq*). Batareyalarni so'nggi bekatlarda 6–8 daqiqa davomida quvvatlash mumkin. To'plangan energiya 20–25 km yo'lni bosib o'tishga (*yetmoq*).



4. O'ylang va toping. Yozing.





5. O‘ylang va toping. Yozing.

1. Bugun Alisherlarning sinfida adabiyot, texnologiya, botanika va ____ darslari bo‘ldi. U darsdan keyin uyiga avtobusda ketmoqchi bo‘ldi va avtobusga chiqdi. Avtobusda ____ning oldidagi bo‘sh o‘rindiqqa o‘tirdi. Lekin avtobusda ____ mumkin emas.
2. Avtobus bekatda to‘xtagach, bir ____ avtobusga chiqdi. Alisher esa ____ joy bo‘shatdi. Otaxon juda mamnun bo‘lib: “Barakalla, o‘g‘lim!” dedi.
3. Alisher otaxon bilan o‘z bekatigacha suhbatlashib ketdi. Uyiga yetgach, yo‘l haqini to‘ladi. Avtobusda yo‘l haqi ____, ____ ko‘rinishida to‘lanadi.
4. Alisher uyi atrofidagi ____ va ____ do‘koni yonidan o‘tib, uyiga kirib ketdi.

Mustaqil topshiriq

“Avtobusda” mavzusida dialog tuzib keling.

NURLI MANZILLAR

1. O'qing.



Salom, Alisher! Yaxshimisan? Bugun internetda mikroavtobuslar haqidagi ma'lumotlarni o'qib qoldim. Esingdami, Buxorodan Navoiyga borganimizda mikroavtobusda juda ko'p joylarni tomosha qilgan edik?

Albatta, sizlar bilan qilgan sayohatimizni ko'p eslayman.

Menga Nurotaga qilgan sayohatimiz juda yoqqan edi. Nurotadagi chashmani ko'rib, juda hayratlangan edim. Agar menga shu chashma siri haqidagi ma'lumotlarni yuborsang, bag'oyat mamnun bo'lar edim.



Xo'p, do'stim. Ma'lumotlarni birozdan so'ng yuboraman.


DIQQAT QILING!

ko'p
juda
bag'oyat
biroz

2. Savollarga javob bering. Gapiring.

1. Siz mikroavtobusda sayohatga chiqqanmisiz?
2. Chashma nima? Ular haqida eshitganmisiz?
3. Bolalar Nurota sayohatidan so'ng qayerga yo'l olgan?

3. Tinglang.



chashma
yashayveradi
minerallashgan
xastaliklar
davo

4. O'ylang va toping. Gapiring.

Nurota ziyoratgohi – **bag'oyat** chiroyli maskan___

bag'oyat

sal

oz

ko'p

juda

biroz

kam

5. O'qing.

Mikroavtobus ishlab chiqarish 1950-yildan boshlangan. U 9–15 yo'lovchini tashishga mo'ljallangan.

Mikroavtobuslardan yo'lovchi tashishdan tashqari, maxsus xizmatlar, masalan, tez tibbiy yordam ko'rsatish mashinasi sifatida ham foydalaniladi.



6. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Mikroavtobus nechta yo'lovchiga mo'ljallangan?

A) 9–15 yo'lovchiga mo'ljallangan.

1. _____ ?
 ✓ A) 9–15 yo'lovchiga mo'ljallangan. B) 15–20 yo'lovchiga mo'ljallangan.
 C) 20–25 yo'lovchiga mo'ljallangan.

2. _____ ?
 A) paxta terish vazifasini bajaradi. ✓ B) tez tibbiy yordam vazifasini bajaradi.
 C) o't o'chirishda xizmat qiladi.

3. _____ ?
 A) 1960-yil B) 1940-yil ✓ C) 1950-yil

4. _____ ?
 A) Samarqandda ✓ B) Navoiyda C) Xorazmda

7. O'ylang va toping. Yozing.


Avtobus	Mikroavtobus
Kattaroq	Kichikroq
_____	_____

Mustaqil topshiriq

101, 102, 103, 104 xizmatlari haqida ma'lumot yozib keling.

“SAHRO KEMASI”

1. Tinglang.




2. O'ylang va toping. Yozing.


Namuna Kim? – Alisher, ...

Kim? –

Qayer? –



3. O'qing.




Tuyaning belidagi o'rkachi qanday vazifa bajarishini bilasizmi?

Ko'pchilikning o'ylashicha, tuyaning o'rkachi issiq cho'lda ko'p vaqt suvsiz yashash uchun kerak bo'lgan tana a'zovidir. Lekin unda aslida suv emas, yog' saqlanadi. Tuya o'rkachi ular qattiq ozuqa yeyishni boshlaganda paydo bo'ladi, shuning uchun bo'taloqning (tuya bolasi) o'rkachi bo'lmaydi. Zarur bo'lganida tuyalar suvni o'rkachidagi yog'lardan oladi.

Tuya bir ichishda 200 litrgacha suvni icha oladi va buni tezlikda bajara oladi. 100 litr suvni 10 daqiqada ichib tugatadi.

Qizilqum Markaziy Osiyodagi qumli cho'l bo'lib, Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgan. Orol dengizi, Tyanshan va Pomir-Oloy tog' tizmalari bilan chegaradosh. Umumiy maydoni 300 ming kvadrat kilometr. Qizilqumning markaziy qismida do'ng qumlar ko'p. Barxanlar nisbatan kam bo'lib, ular aholi yashaydigan joylar va quduqlar atrofida uchraydi.



4. O'ylang va toping. Gapiring.

T/r	Ma'lumotlar	To'g'ri ✓	Noto'g'ri ✗	Berilmagan
1	Qadimda tuyalar transport vositasi bo'lgan.			
2	Tuyalar 100 litr suvni 10 daqiqada ichib qo'yadi.			
3	Bo'taloq tug'ilganda o'rkachlari bo'ladi.			
4	Qizilqum cho'li Zarafshon tog'lari bilan chegaradosh.			
5	Tuyaning o'rkachlarida suv saqlanadi.			
6	Qizilqum cho'lining umumiy maydoni 300 ming kvadrat kilometrni tashkil qiladi.			
7	Tuyalar – cho'llarda erkin harakatlanadigan yagona jonivor.			

5. O'ylang va toping. Yozing.

sayohat qilmoq

ixtiro qilmoq

bajarmoq

~~qiziqmoq~~

to'plamoq

Namuna 1. Alisher avtomobillarga juda **qiziqadi**.

1. Alisher avtomobillarga juda _____ .
2. Men katta bo'lsam, eng tezyurar avtomobilni _____ .
3. Maks o'z avtomobillari kolleksiyasini _____ .
4. Sayyohlar Samarqand, Buxoroga "Afrosiyob" tezyurar poyezdida _____ .
5. Tuyalar asosan cho'llarda transport vazifasini _____ .

Mustaqil topshiriq

O'zingiz kelajakda minishni xohlagan avtomobil haqida yozib keling.

PARVOZGA TAYYORMISIZ?

1. O'qing.



Qiziq, kichkinaligimdan uchayotgan qushlarga qarab havasim kelardi. "Insonlar ham qushlar kabi parvoz qila oladimi?" degan savol juda ko'p qiynar edi. Keyinchalik insonlar ham parvoz qila olishi va unda texnikalardan foydalanishi haqida bilib oldim, ularga bo'lgan qiziqishim ortdi. Sekin-asta samolyotlar haqida ko'p ma'lumotlarga ega bo'ldim. Kelajakda men albatta uchuvchi bo'laman.

2. Savollarga javob bering. Gapiring.

1. Sizda ham uchish orzusi bo'lganmi?
2. Imkoniyat berilsa, ilk parvozingiz uchun nimadan foydalanган bo'lar edingiz?
3. Havo transporti nomlarini ayting.

DIQQAT QILING!

oz
mo'l
ko'p
biroz
sal
ancha

3. O'ylang va toping. Yozing.

ozroq

ko'p

ancha


juda

~~biroz~~

Namuna 1. Samolyotlar qo'nishdan oldin biroz pastlab uchadi.

1. Samolyotlar qo'nishdan oldin ____ pastlab uchadi.
2. ____ insonlar aynan shu transport turidan foydalanadilar.
3. Suzuko samolyotlarga ____ qiziqadi hamda ular haqidagi ma'lumotlarni to'playdi.
4. Yurtimizda ham viloyatlar orasida ichki qatnovlar ____ ko'paymoqda.
5. Sayohatga chiqqanda ____ yuk olish tavsiya qilinadi.



4. Tinglang. Gapiring.



5. O'ylang va toping. Yozing.

f	d	g	h	j	t	k	sh	q
d	v	i	g	a	t	e	l	o
a	h	b	n	m	e	e	y	r
u	ch	u	v	ch	i	h	h	a
d	n	u	k	l	u	j	g	q
r	b	o	v	o	p	p	a	u
t	r	v	s	ch	t	a	s	t
y	g	d	a	b	i	r	d	i
u	f	h	m	v	r	v	f	d
s	a	m	o	l	y	o	t	j
i	o	p	l	d	e	z	g	h

6. O'ylang va toping. Yozing.





Mustaqil topshiriq

Istalgan havo transporti maketini yasab keling.




ILTIMOS, SUYANMANGIZ!

1. Tinglang. Yozing.




2. O'ylang va toping. Gapiring.


1. Ortiqchasini toping.




2. Ortiqchasini toping.



3. Ortiqchasini toping.



4. Ortiqchasini toping.



5. Avtobuslarning yangi avlodlari bu – _____.

- A) trolleybus B) elektrobus C) poyezd D) mikroavtobus

6. “Sahro transporti” – _____.

- A) samolyot B) kema C) poyezd D) tuya

7. Qanday poyezdlar tezyurar poyezd hisoblanadi?

- A) soatiga 150 km tezlikda yuradigan B) soatiga 140 km tezlikda yuradigan
C) soatiga 200 km tezlikda yuradigan D) soatiga 240 km tezlikda yuradigan

8. Qaysi gapda “juda” soʻzini qoʻllash mumkin?

- A) U samolyotda uchishdan ... qoʻrqardi.
B) Oilamiz bilan chet elning diqqatga sazovor joylarini ... tomosha qildik.
C) Doʻstim menga qiziqarli kitob ... sovgʻa qildi.
D) Ukamning ... velosipedi eskiroq edi.

3. Oʻylang va toping. Gapiring.

M	A	B	I	R	N	T	V	M	U
A	S	P	A	R	K	I	E	A	Y
T	E	I	A	U	T	C	K	L	F
I	T	A	H	O	E	O	L	I	W
Z	E	I	A	U	T	L	A	B	G
A	D	A	M	A	S	O	C	U	E
U	E	I	A	U	R	P	E	H	N
I	P	N	E	X	I	A	T	A	T
O	E	I	A	U	R	U	T	C	R
C	O	B	A	L	T	Y	I	M	A

4. O'ylang va toping. Yozing.



1. Alisherning do'sti nima sababdan kech qoldi?
2. Alisherning sevimli mashg'uloti (hobbisi) nima?
3. Kolleksiya nima?



HAYDOVCHILIK GUVOHNOMASI

1. Tinglang. Gapiring.




mo'ljallamoq
maxsus

2. O'ylang va toping. Yozing.

- piyodalar o'tish joyi
- piyoda
- haydovchi
- transport vositasi
- haydovchilik guvohnomasi


Namuna *Piyoda* – transport vositasidan tashqarida bo'lgan va yo'lda biror-bir yumush bilan band bo'lmagan kishi.




DIQQAT QILING!

-I (il)

Mashinani kim yuvdi?



Mashina yuvildi.



Mashinani Sarvar yuvdi.

3. O'ylang va toping. O'qing.

Namuna Haydovchilik guvohnomasi dunyoda birinchi bo'lib 1888-yilda ixtirochi Karl Bengsa topshirilgan.

Haydovchilik guvohnomasi dunyoda birinchi bo'lib 1888-yilda ixtirochi Karl Bengsa (*topshirilgan, topshirgan*). Bu hujjatni olgan kishiga shaharda soatiga 6 km tezlikda yurish huquqi (*berilgan, berishgan*). 1909-yili 20 ta mamlakatdagi barcha avtomobil egalari haydovchilik guvohnomasi olish uchun imtihonlardan o'tishi to'g'risidagi bitimga (*imzo chekkan, imzo chekilgan, imzo chektirgan*). Shundan buyon butun dunyoda bir xil belgilangan o'quv kurslari (*tashkil etgan, tashkil etilgan*). Bu o'quv kurslari O'zbekistonda "avtomaktab" deb (*yuritiladi, yuritgan*).



4. O'ylang va toping. Yozing.

harakat qilmoq

yurmoq

o'tmoq

kutmoq

Namuna Bu belgi o'rnatilgan joylarda yo'ldan kesib **o'tiladi**.



yo'ldan kesib _____ .



yer ostidan _____ .



piyoda yoki velosipedda _____ .



avtobus _____ .

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

1	2	3	4	5	6	7	8
					F		

1. Samoda harakatlanuvchi havo transporti.
2. Oyoq bilan harakatga keltiriladigan ikki g‘ildirakli oddiy transport vositasi.
3. “Tesla” qanday avtomobil hisoblanadi?
4. Toshkent shahridagi eng baland minora.
5. O‘zbekistonda soatiga 250 km tezlikda harakatlanuvchi poyezdning nomi.
6. Fermer oilasida tug‘ilgan amerikalik bolakay asos solgan kompaniyaning nomi. (“Ford”)
7. Qadimda odamlar transport vositalari o‘rnida foydalangan jonivor.
8. 2015-yilda O‘zbekistonda qaysi milliy avtomobil markasiga asos solindi?


Mustaqil topshiriq

“Ford” kompaniyasi haqida ma’lumot to‘plab keling.



YO‘L QOIDASI

1. O‘ylang va toping. Tinglang.



2. O‘ylang va toping. Chizing.



1. Dorixona belgisini bilasizmi?
2. Kasalxonalar bor joylarga qanday belgi qo‘yiladi?
3. Mehmonxona bor ekanini qaysi belgi orqali bilib olasiz?
4. Yo‘llarda oshxona bor ekanini qanday bilib olasiz?
5. Transport vositalarining kirishi qaysi belgi bilan taqiqlanadi?



3. O'qing.



AQSHning aholi yashash punktlarida o'rtacha tezlik 25–35 km/h, magistral yo'llarda 135 km/h. Ta'mirlash ishlari amalga oshirilayotgan joylarda 35 km/h tezlik cheklovi qo'yiladi.

Afrika davlatlarida harakat chap tomonlama amalga oshiriladi. Shahar ichida transportlar 60 km/h tezlikda harakatlanadi. Avtomagistrallardagi harakat tezligi chegarasi – 120 km/h. Tezlikni oshirgan haydovchilar katta jarimalar to'lashiga to'g'ri keladi.



Angliyada belgilangan harakat tezligi shahar ichida 48 km/h, shahar tashqarisidagi yo'llarda 95 km/h va avtomagistrallarda 110 km/soatni tashkil etadi. Angliyada qoidaga amal qilish qattiq nazoratga olingan, hatto yo'lovchilar ham yo'l qoidalariga amal qilmaganlarida jarimalarga tortiladilar.

Yaponiyada transportlarga belgilangan tezlik shahar ichida 60 km/soat bo'lib, avtomagistrallarda 100 km/h tezlikda harakatlaniladi. Yo'l belgilari bo'lmagan yo'llarda esa shahar ichida belgilangan tezlik amal qiladi. Tezlik oshirilsa, yo'llardagi kameralar orqali tez aniqlanadi, qoidani buzgan shaxslar jarimaga tortiladi.



4. O'ylang va toping. Yozing.

Davlatlar	Shahar ichida belgilangan tezlik	Avtomagistrallarda belgilangan tezlik
AQSH		
Afrika davlatlari	60 km/h	
Angliya		110 km/h
Yaponiya		

5. O'ylang va toping. Gapiring.

belgilangan joydan yuriladi, kameralar taqiladi, yo'l belgilariga qaraladi, tezlik oshirilmaydi, ruxsat etilmagan joylarda to'xtalmaydi, piyodalar o'tish joyida piyodalarga yo'l beriladi

Avtomobil boshqarayotganda nimalarga amal qilinadi?

1. Kamarlar taqiladi.
2. _____.

Mustaqil topshiriq

Maktabdan uyingizgacha bo'lgan oraliqda yo'lingizda uchraydigan yo'l belgilari haqida ma'lumot yozib keling.

YO‘LDAGI SABOQ

1. Tinglang.

Sanjar 6-sinfda o‘qiydi. Do‘sti Bahodir bilan uyga qaytayotganda oldilaridan keksa onaxon chiqib qoldi. Bahodir buni ko‘rib:

– Do‘stim, kel, onaxonga yordam beramiz. Yuki og‘irga o‘xshaydi, – dedi.

Sanjar esa:

– E, qo‘ysang-chi, mening boshqa ishim yo‘qmi?! Yordam berging kelsa, o‘zing yordam beraver, – dedi va svetofor chiroqlariga ham qaramay yo‘ldan o‘tib, bekatga qarab ketdi.

Avtobus keldi. Sanjar avtobusga shoshilib chiqib oldi. Yo‘lovchilarni turtib o‘tib, bir bo‘sh o‘rindiqqqa o‘tirdi. Hatto avtobusda yoshi kattalar tik turganiga ham e‘tibor bermadi. Cho‘ntagidan saqichini olib, ochdi va qog‘ozini yerga tashladi. Buni kuzatib turgan bir ayol qog‘ozni oldi va “afsus...” degan ma‘noda bosh chayqab qo‘ydi. Buni ko‘rgan Sanjarning jahli chiqdi. Saqichini o‘rindiqqqa yopishtirib avtobusdan tushib ketdi.

Kech bo‘ldi. Sanjarning bobosi mehmonga keldi. Bobosining yuzidan xafaligi bilinib turardi. Sanjar bobosidan:

– Bobo, nega xafasiz? – deb so‘radi.


– Eh, bolajonim, odobsiz bolalar ham ko‘payib ketdi. Avtobusga chiqqandim. Kimdir o‘rindiqqqa saqich yopishtirib ketgan ekan. Kiyimimga yopishib qolibdi. Shunga biroz xafaman. Sen ham shunday qilarmiding, o‘g‘lim?

Sanjarning yuzi qizarib ketdi. Bobosining savoli qulog‘i ostida tinmay jaranglayverdi.

Sanjar qilgan ishlaridan pushaymon bo‘ldi.

2. Savollarga javob bering.

1. Bahodir qanday bola deb o‘ylaysiz?
2. Sanjarning bobosi xafa bo‘lishiga aslida kim sababchi?
3. Sizda ham shunday vaziyat bo‘lganmi?
4. Sanjar o‘ziga qanday xulosa chiqardi?
5. Siz biror kishiga yordam berganmisiz?
Kimlarga yordam berish kerak deb o‘ylaysiz?



3. O‘ylang va toping. Yozing.

joy beriladi, yopishtirilmaydi, eshitilmaydi, yordam beriladi,
yo‘l beriladi, yo‘ldan o‘tilmaydi, turtilmaydi

1. **Namuna:** Yo‘lda ketayotganda yoshi kattalarga yordam beriladi.
2. _____.

4. O‘ylang va toping. Gapiring.

Holatlar	Mumkin	Mumkin emas
Telefonda gaplashib yo‘ldan o‘tish.		
Piyodalar yo‘lkasidan o‘tish.		
Bekatda pista chaqib, po‘chog‘ini yerga tashlash.		
Kichik yoshdagi bolalarni mashinaning old o‘rindig‘iga o‘tirg‘izish.		
Haydovchi yonidagi old o‘rindiqda kamar taqib o‘tirish.		
Yurayotgan mashinada boshini oynadan chiqarish.		

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Men har doim yo‘l qoidalarga amal qilaman.

1. har doim, men, amal qilaman, yo‘l qoidalarga.
2. bolalar, o‘tayotganda, piyodalar o‘tish yo‘lagidan, yo‘ldan, yuring.
3. belgilarini, har bir, bilishi, haydovchi, yo‘l, yoddan, shart.
4. “Toyota Yaris”, avtomobili deb, yapon avtomobili, 2000-yilning, eng yaxshi, topilgan.
5. baland, jamoat transportida, mumkin emas, ovozda, gaplashish.

Mustaqil topshiriq

“Jamoat transportida” mavzusida dialog yozing.

iltimos, marhamat, kechirasiz, keyingi bekat, ro‘parasida, o‘tkazib yuboring...

YO‘LDAGI MADANIYAT

1. Tinglang. Gapiring.

Agar biron do‘sting yoki qarindoshingni ko‘rib qolsang va u bilan ko‘rishmoqchi bo‘lsang,

Mashinada yoki velosipedda bo‘lsang,

Agar ko‘chada o‘rtoqlaring bilan ketayotgan bo‘lsang,

Mashinaga yoki biror-bir ulovga mingan bo‘lsang ham,

yo‘lda ketayotganingda ovqat yeyish odobdan emas.

eniga bir saf bo‘lib ko‘chani to‘ldirib olmanglar.

ko‘channing o‘ng tomonidan yur.


yo‘ldan chetroqqa o‘tib ko‘rish va yo‘l o‘rtasida u bilan uzoq turma.

2. O‘ylang va toping. Yozing.

assalomu alaykum, xush kelibsiz, yo‘lingiz bexatar bo‘lsin, katta rahmat, ahvollaringiz yaxshimi

Namuna 1. Ko'chada tanish kishi bilan uchrashganda "Ahvollaringiz yaxshimi?" deyiladi.

1. Ko'chada tanish kishi bilan uchrashganda _____ deyiladi.
2. Mashinaga chiqqan odamga _____ deyiladi.
3. Yordam bergan kishiga _____ deyiladi.
4. Gap boshlashdan avval _____ deyiladi.
5. Kirib kelgan odamga _____ deyiladi.



3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Svetoforning yashil chirog'i yongach, yo'lni kesib o'tish mumkin.

1. _____ -gach, yo'lni kesib o'tish mumkin.
2. _____ -gach, ukam mashg'ulotlarga ketadi.
3. _____ -gach, dasturxon atrofida yig'ilamiz.
4. _____ -gach, universitetga kiraman.
5. _____ -gach, sizni kutib oladilar.

4. O'qing.

KO'CHA VA YO'LLARDAN O'TISHDA QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILING

Yo'ning qatnov qismini faqat yerosti o'tish joylari, piyodalar ko'prikchalaridan va "Piyodalarning o'tish joyi" belgisi mavjud joylardan kesib o'tish kerak. Ayrim holatlarda transport vositalari yo'qligiga ishonch hosil qilgach, ko'cha va yo'lni to'g'ri kesib o'tish mumkin.



Svetofor yoki yo'l harakatini tartibga soluvchi yo'l noziri bo'lsa, faqat ularning ishorasi bilangina yo'ldan o'tish kerak. Yo'l harakatini tartibga soluvchi vosita yo'q joylarda yo'ning qatnov qismini transportlarga xalal bermasdan, ikkilanmasdan kesib o'tish lozim.

Transport ikki tomonlama harakatlanadigan ko'cha oldida esa avval to'xtab, chap tomondan transport vositasi kelmayotganiga ishonch hosil qilgach, yo'ldan o'tishni boshlash mumkin. Yo'l o'rtasiga borib, o'ngga qaraladi, transport vositalari yo'q bo'lsa, o'tishda davom etish mumkin.

Agar transport vositasi yaqinlashib kelayotgan bo'lsa, xavfsiz joyda yoki ko'chani o'rtasida kutib turish, yo'l bo'shagach, harakatni davom ettirish zarur.

YO‘L BERING!

1. Tinglang.



Quyidagi yo‘l belgilaridan qaysilari haydovchilar uchun, qaysilari piyodalar uchun qo‘llanadi?



2. Savollarga javob bering. Gapiring.

1. Audiomatnda kim haqida so‘z ketdi?
2. Bu kasb egalari qanday vazifalarni bajaradi?
3. Bu kasb egalarining shaxsiy sifatlarini sanang.
4. Kelajakda siz qaysi kasbni egallamoqchisiz?
5. Siz tanlagan kasb egasi qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerak?

3. O‘ylang va toping. Gapiring.

Namuna 1. Haydovchi har qanday vaziyatda g‘azabini jilovlay olishi kerak.




①



②



③



④


4. O‘qing. Gapiring.



Nyu Yorkdagi noodatiy svetoforda piyodalar uchun ranglar o‘rniga so‘zlar ishora beradi. Svetoforda “Walk”, ya’ni “Yur” yoki “Don’t walk”, ya’ni “Yurma” degan yozuvlar bor. Svetoforda qizil va oq ranglar ishlatilgan.




Svetoforning vatani London shahrida “Svetofor daraxti” bor. Uni 1998-yili fransiyalik haykaltarosh Pyer Vivant ishlab chiqqan. Ajoyib ko‘rinishdagi svetofor tartibni saqlash bilan birga shahar ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib turibdi.




Tailandning Krabi shahrida joylashgan ko‘rsatkichli svetoforni “tosh odam” haykali ko‘tarib turadi.

Yana bir o‘ziga xos svetoforni Daniyaning Orxus shahrida ko‘rish mumkin. Bu svetoforga jangchi tasviri tushirilgan. U nafaqat Orxus shahrining qahramonona o‘tmishini eslatib turadi, shuningdek, harakatni ham tartibga soladi.



5. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Yo‘ning qatnov qismini qanday holatlarda kesib o‘tish mumkin?
2. Svetofor yoki yo‘l harakatini tartibga soluvchi yo‘l noziri bor joylarda ko‘chani qanday kesib o‘tish kerak?
3. Svetofor o‘rnatilmagan yoki yo‘l nazoratchisi yo‘q joylarda yo‘ldan qanday o‘tish mumkin?
4. Yo‘l belgilaridan qaysilarini bilasiz?



6. O'ylang va toping. Gapiring.

1. Amerikada qanday rangli svetoforlar bor?
2. Pyer Vivant kim?
3. Tailandda qanday svetofor bor?
4. Svetoforning vatani qayer?
5. Jangchi tasviri tushirilgan svetofor qayerda o'rnatilgan?

7. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Mehmonlar **kelguncha** ular sayohat rejasini tuzdilar.

bo'lmoq

tugamoq

~~kelmoq~~

tushmoq

o'qib tugatmoq

1. Mehmonlar _____ ular sayohat rejasini tuzdilar.
2. Dars _____ topshiriqlarni yakunlanglar.
3. "Sariq devni minib" asarini _____ dadam kitobning ikkinchi qismini olib keldilar.
4. Qorong'i _____ sayyohlar manzilga yetib bordilar.
5. Ovqat tayyor _____ bobom bilan shaxmat o'ynadik.

Mustaqil topshiriq


5 ta yo'l belgisini chizing va ularning izohini yozing.

IMKONIYAT ESHIKLARI

1. O'qing.

Maktabda "Eng yaxshi notiq" tanlovi o'tkazilishi haqida e'lon berildi. Ra'no va Aziz bu tanlovga qatnashmoqchi bo'lishdi. Tanlov tashkilotchilari ularga ikkita alohida matn berib, uni yaxshilab yod olish kerakligini aytdilar. Ular esa faqatgina bitta matnni ikkiga bo'lib yodlashdi. Tanlovdan bir kun oldin Ra'no Azizga qo'ng'iroq qilib, tobi yo'qligini, ertangi musobaqaga qatnasha olmasligini aytdi. Bu xabardan Aziz qattiq tushkunlikka tushdi. Shuning uchun ertasi kuni yodlagan matnini yaxshi aytib bera olmadi. Hakamlarga nega yarmini yod olganini tushuntirib berdi va qayta imkoniyat so'radi.

Aziz va Ra'noga yana imkon berish kerakmi?







2. O'ylang va toping. Gapiring.

1. Aziz va Ra'no bitta matnni yodlab to'g'ri qilishdimi?
2. Do'stlarning uyalib qolishiga kim aybdor? Azizmi yoki Ra'no?
3. Tasavvur qiling, "Eng yaxshi notiq" tanlovi sizning maktabingizda o'tkazilyapti. Siz hakamlarga nima aytib berardingiz?

quloqchin
havasi keldi
vaziyat
oqibat
va'da
imkon

3. Tinglang. Gapiring.



4. O'ylang va toping. Yozing.

T/r	Ma'lumotlar	To'g'ri ✓	Noto'g'ri ✗
1	Alisher onasi sovg'a qilgan quloqchinni maktabga olib bordi.		
2	O'quvchilar "Kelajakda..." mavzusida xat yozishdi.		
3	Shokir quloqchinni olib, cho'ntagiga solib qo'ydi.		
4	Ustozi xatlarni o'qib, yozuvidan Shokir aybdorligini bildi.		
5	Ustozi Shokirni bu qilmishi uchun jazoladi.		

5. O'ylang va toping. Gapiring.

Maktabdagi imkoniyatlar	Men istagan imkoniyatlar
1. Zamonaviy kutubxona mavjud. 2. _____	1. IT to'garaklari tashkil qilinishi. 2. _____

6. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. To'garak boshlanguncha tushlik qilib olishimiz kerak.

1. To'garak boshlanguncha _____
2. Onam ishdan kelguncha _____
3. Darslarimni bajarib bo'lgunimcha _____
4. Yog'ingarchilik boshlangunicha _____
5. Biz do'konga borgunimizcha _____

Mustaqil topshiriq


Shahringizda yoki mahallangizdagi mavjud imkoniyatlarni o'rganing. Yana qanday imkoniyatlar yaratsa bo'ladi deb o'ylaysiz? Rejasini tuzing.

MUSTAHKAMLASH

1. Tinglang.



2. O'ylang va toping. Gapiring.




Bu rasmlar sizga nimani eslatyapti?



3. O'ylang va toping. Yozing.



Sayohatga chiqayotganda nimalar kerak bo'ladi?



4. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Dadam ishdan **kelgach**, ertangi sayohat rejasini tuzib olamiz.

1. Dadam ishdan (*kelmoq*), ertangi sayohat rejasini tuzib olamiz.
2. Ertalab tursam, nonushta (*tayyorlab qo'ymoq*)gan ekan.
3. Ta'tilimiz (*boshlanmoq*) berilgan vazifalarni bajarib qo'yishimiz lozim.
4. Uchuvchilik kasbi menga juda ham (*yoqmoq*)di.
5. Akam axborot texnologiyasi sohasida (*o'qimoq*)di.
6. Musobaqa (*tugamoq*), g'oliblar taqdirlanadi.

DIQQAT QILING!

- il
- gach
- guncha
- a
- y

5. O'ylang va toping. Yozing.

Kgsyhns**zembil**kmytrafrikaasdfgtrzxyashaydipotuyfinlandiyagdngsayohat-djchuygvavtobuskietsndschidkqkbfhyto'qumhytfcalishercfyurimehmonasdfghsvetoforpoiupiyodapoioyuparovozasdufisdeghaydovchiasediuguvohnomayujdsreqkutubxonaleniytyo'ibelgilaricherikasbekatlkaitsaqichheudjuk


ADABIY O'QISH

YOSH FUTBOLCHI

1. O'qing. So'zlab bering.

Mening ismim Odil. Men ham sizlar kabi 6-sinfda o'qiyman. Sizlarga bir voqeani hikoya qilib bermoqchiman. Hikoyamning bosh qahramoni esa kamina, ya'ni o'zim.

Hamma o'g'il bolalar qatori men ham futbolga juda qiziqaman. Qiziqish ham gapmi, futbol – mening hayotim. Kelajakda mashhur futbolchi bo'lmoqchiman. Ishonasizmi, tushlarimda ham futbolchi bo'lganim, mashhur futbolchilar bilan bir safda to'p tepayotganim, kuboklar olganim va eng asosiysi, oltin to'p sohibi bo'lganimni ko'raman. Unda muammo nimada dersiz? Muammo shundaki, ota-onam futbolchi bo'lishimni emas, o'zlari singari shifokor bo'lishimni istashadi. "Ko'plarga foydang tegadi. Xalqning duosini olasan", – deydilar. To'g'ri, shifokorlik – yaxshi kasb. Lekin baribir futbol boshqacha-da! Otam menga hozirdan Mendeleev jadvalini o'rgataytilar. Shu jadvalni har ko'rganimda futbol darvozasi to'ri xayolimga kelaveradi-da.



Keyin o'ylab qolaman. Mendeleev jadvalini Mendeleev yaratgan bo'lsa, karra jadvalini Karra yaratganmikan-a? Sizlar bilasizlarmi? Yana meni xayolparast bola ekan deb o'ylamanglar. Unchalik ham xayolparast emasman. Onam: "O'zi buning yoshida shunaqa bo'ladi", – deb dadamga aytganlarini ko'p eshitganman. Bunaqaligimga menmas, yoshim aybdor.

Bir kuni onamga futbolchi bo'lmoqchiligimni, maktabdagi futbol to'garagiga qatnashmoqchi ekanimni aytdim. Lekin onamga bu gapim uncha yoqmadi. "Nima, butun umring koptok orqasidan yugurib o'tadimi?" – deb koyib berdilar. Shu-shu bu mavzu yopildi. Shu kundan men ham ancha jiddiy tortib qoldim. Dadam mendagi bu o'zgarishni ko'rib: "O'g'limiz ulg'ayibdi", – deb qo'yдилar. Futbol to'garagiga borayotgan tengdoshlarimga juda havas qilardim. Ba'zida ularning o'rnida bo'lgim ham kelib ketardi.

Ta'til boshlanishi bilan dadam meni bobomnikiga yuborardi. Bobom – juda bolajon, mehribon inson. Uni qishloqda hamma bolalar yaxshi ko'radi. Ular yoshi ulug' bo'lishlariga qaramay, bolalar bilan to'p tepardi. Qishloqqa yangi stadion qurilganida bolalardan ham ko'proq bobom xursand bo'lgandi. Bir kuni bobom bilan suhbatlashayotib orzum haqida aytib berdim. "Bobo, agar ruxsat berishganida edi, men mashhur futbolchi bo'lardim. Siz ham, ota-onam ham mendek farzandingiz borligidan faxrlangan bo'lardingiz. "Televizorda nabiram chiqadi", – deb mahalladagilarga maqtanardingiz", – dedim.

Bobom biroz o‘ylanib qoldi-da: “Obbo azamat-ey, qani, yur-chi, to‘p tepamiz. Bir o‘zingni ko‘rsat-chi”, – dedilar. O‘sha kuni rosa o‘ynadik. Ertasi kuni bobom bilan yo‘lga tushdik.

Dadam ishdan kelganlarida bobom dadamga jiddiy gaplari borligini aytdilar.

– Nega bolaning istaklari bilan qiziqmayapsan? Axir u shifokor bo‘lmoqchimas-ku! O‘zi istagan soha bilan shug‘ullanishi uchun unga yo‘l ber! Men ham bolaligimda futbolchi bo‘lmoqchi edim. Lekin bobong bilan buving buni xohlashmadi. Lekin yuragimda bir umr armon bo‘lib qoldi. Hali-hanuz yo‘l berishgandami degan afsus bilan yashayapman. O‘g‘ling ham armon bilan o‘tishini xohlaysanmi? Bola ham bamisoli daraxt. Uni gullatmasdan quritasanmi? O‘z kasbini sevmagan insonning hayotida mazmun ham bo‘lmaydi. Mehr berilmagan kasb u uchun mashaqqatli mashg‘ulotdir.

Ertasi kuni dadam meni maktabning futbol to‘garagiga a‘zo qildirib keldilar. Bir oydan keyin maktablararo musobaqa bo‘lib o‘tdi.

Bunda qaysi maktab yutganini taxmin qilayotgandirsiz-a?

Albatta, to‘g‘ri topdingiz. Biz g‘olib bo‘ldik. Murabbiyim

dadamga: “Bu – o‘sadigan bola”, – debdilar. Ota-

onam shunaqangi quvonishdiki! Ha, aytgancha,

keyingi o‘quv yilidan men o‘qishimni sport mak-

tabida davom ettiraman. Kelajakda futbol chempionatlarida tomoshabin bo‘lib qolsangiz, meni tani-

ysiz degan umiddaman. Balki, shunda siz o‘sha

payt shifokor, o‘qituvchi, tadbirkor yoki hunar-

mand bo‘lgan bo‘larsiz. Kim bo‘lsangiz ham, se-

vimli kasbingizning ustasi, fidoyisi bo‘ling.

Xasanova Yulduz



2. Savollarga javob bering.

1. “Oltin to‘p” sohibi kim? Nima uchun “oltin to‘p sohibi” deyiladi?
2. Mendelejev jadvali qaysi fanda o‘rganilishini bilasizmi?
3. Odilning murabbiyi “o‘sadigan bola” deganda nimani nazarda tutdi?
4. Siz ham o‘ylab ko‘rganmisiz, karra jadvalini rostdan ham Karra ismli shaxs yaratganmi?
5. Sizning bo‘lajak kasbingizga ota-onangizning munosabati qanday?
6. O‘z kasbining ustasi deganda nimani tushunasiz? Shunday insonlardan kimlarni bilasiz?

3. O‘ylang va toping. Gapiring.

T/r	Ma‘lumotlar	To‘g‘ri ✓	Noto‘g‘ri ✗
1	Odilning xayolparastligi uning muammosi edi.		
2	Hikoya qahramonining onasi shifokor edi.		
3	Bobo o‘g‘li bilan jiddiy gaplashgandan keyin Odilning hayoti o‘zgardi.		
4	Odilning bobosi futbolchi bo‘lmoqchi edi.		
5	Odil ko‘p kasal bo‘lgani uchun uni shifokor qilishmoqchi edi.		
6	Odil sport maktabida o‘qir edi.		

3-chorak

TEXNOPARK

ROBOTOTEXNIKA NIMA?

1. O'qing.

- Yaxshimisan, Danil?
- Rahmat, yaxshiman, Alisher.
- Danil, sen robototexnikaga qiziqasanmi?
- Albatta, qiziqaman.
- Men yaqinda maktabimizdagi robototexnika to'garagiga yozildim. U yerda Abror aka bilan tanishdim. Abror aka yangi robot ixtiro qilgan.



- U qanday robot ekan?


- Navigator robot. Bu robot sayyohlar boradigan manzil xartasini, manzilga qanday borishni aniqlaydi. Hatto undan avtobuslarning kelish vaqtini ko'rish, taksiga buyurtma berish, ob-havo ma'lumotlarini olish mumkin.



2. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna *Alisher qanday to'garakka boradi?
Alisher robototexnika to'garagiga boradi.*

1. Alisher qanday to'garakka boradi?
2. Abror aka qanday robot ixtiro qildi?
3. Robotlar odamlarning qaysi yumushlarini bajaradi?
4. Siz qanday robotlarni bilasiz?



3. Tinglang.



4. O'ylang va toping. Gapiring.

T/r	Ma'lumotlar	To'g'ri ✓	Noto'g'ri ✗
1	Sun'iy intellekt robotning boshqaruv tizimi hisoblanadi.		
2	Kompyuter, smartfon kabi qurilmalarning barchasi aslida sun'iy intellekt mahsuli emas.		
3	"Boston Dinamics" kompaniyasi yangi rusumdagi androidlarni ishlab chiqargan.		
4	5–10 yil ichida aeroportlardagi ma'lumot beruvchi xodimlar o'rnida va harbiylar safida robotlarni ko'rishimiz mumkin.		

5. O'ylang va toping. Gapiring.


Qariya va nogironlarni yo'ldan o'tkazib qo'yishga yordam beruvchi robot



Dars jadvali bo'yicha darslik va daftarlarni yig'ib beradigan robot

Nima deb o'ylaysiz, qaysi robotni birinchi bo'lib yasash kerak?

DIQQAT QILING!



6. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna Men katta bo'lganimda g'oyalarim haqida suhbatlashadigan robot yasamoqchiman.

- Men katta bo'lganimda g'oyalarim haqida suhbatlashadigan robot _____.
- Bu yil ta'tilda oilamiz bilan chet elda _____.
- Sen singlingning tug'ilgan kuniga nima _____?
- Maks kitobdan robotlar haqidagi ma'lumotlarni _____.
- O'quvchilar maktab marafonida _____.

ishtirok etmoq
sovg'a qilmoq
dam olmoq
yasamoq
o'qimoq

Mustaqil topshiriq

Robotlarning insonlar hayotiga foydali va zararli ta'sirlari haqida fikr yuriting.

DRON

1. Tinglang.



2. O'ylang va toping. Yozing.

1. Dron nima?
2. Ular qanday boshqariladi?
3. Ilk dronlar qachon va qayerda paydo bo'lgan?
4. Ulardan qanday maqsadlarda foydalaniladi?
5. Siz dron parvozini kuzatganmisiz?

3. O'qing.

① Dron tayyorlab ko'ramizmi?

② Albatta, tayyorlaymiz. Menda bu uchun hamma narsa bor.

③ Dronimiz tayyor bo'ldi

④ Uchmadi-ku. Qayerda xato qildik?

⑤ Uchdi, uchdi!!! Uraaaa!!!


⑥ Voooy, endi nima qilamiz?

⑦ To'g'ri oynaga qarab uchyapti.

4. Savollarga javob bering. Gapiring.

1. Bolalarning to'planishdan maqsadi nima edi?
2. Bolalarni nima xafa qildi?
3. Bolalar qanday xatolikka yo'l qo'yishdi?
4. Drondan nima maqsadlarda foydalaniladi?

5. O'ylang va toping. Yozing.




Mustaqil topshiriq

O'zingiz ixtiro qilmoqchi bo'lgan texnikaning rasmini chizing yoki maketini yasang.

SEHRLI TOMCHILAR


1. Tinglang.



2. O'qing.

Bilasizmi, bolalar, qadimdayoq Sharq mamlakatlarida daraxtlarni sug'orishda dehqonlar daraxt ildizi yaqinida tuproqqa ko'milgan sopol xumchalardan foydalanishgan. Sopol idishlarga vaqti-vaqti bilan suv quyib turilgan. Bunday joylarda ariqlarga hojat bo'lmagan.

Suvning tomchisi ham suv. Shunday ekan, undan oqilona foydalanish zarur. Dehqonchilikda suvni tejash va to'g'ri taqsimlash maqsadida tomchilatib sug'orish texnologiyasidan foydalaniladi. Bu usulda suv resurslari tejaladi va hosildorlik ortadi.



Afg'onistonda 1886-yilda sopol quvurlar yordamida tomchilatib sug'orish boshlangan. O'simlikning ildizini namlab sug'orish 1913-yili AQSHda B. Hauz tomonidan namoyish etilgan. Germaniyalik olimlar esa tomchilatib sug'orishda teshikli quvurlardan foydalanishni ishlab chiqdilar. Hozirgi zamonaviy tomchilatib sug'orish dastlab Isroilda yo'lga qo'yilgan.

O'zbekistonda ham tomchilatib sug'orish tizimi qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikda qo'llanadi.

3. O'ylang va toping. Yozing.

Sopol quvurlar yordamida tomchilatib sug'orish boshlangan	AQSHda
O'simlikning ildizini namlab sug'orish ishlab chiqilgan	Isroilda
Teshik quvurlardan foydalanib tomchilatib sug'orilgan	Afg'onistonda
Hozirgi zamonaviy tomchilatib sug'orish dastlab yo'lga qo'yilgan	Germaniyada

4. O'qing.

Suv insonning kisloroddan keyingi ikkinchi ehtiyoji hisoblanadi. Odamzod ovqatsiz olti hafta yashashi mumkin, ammo suvsiz bir haftadan ortiq umr ko'ra olmaydi.

Dunyoda eng ko'p foydali moddalarni o'zida jamlagan suv bu – quduq suvi. Inson o'z qo'li bilan bunday aralashmani tayyorlay olmaydi.

Jazoirdagi bir ko'lning suviga ruchka yoki qalamni botirib bemaol qog'ozga yozsa ham bo'ladi. Bu yozuvni esa keyin umuman o'chirib bo'lmaydi.

5. O'ylang va toping. Gapiring.

T/r	Ma'lumotlar	To'g'ri ✓	Noto'g'ri ✗
1	Jazoirdagi ko'l suvi yozdan qishga qadar g'oyib bo'ladi.		
2	Quduq suvini insonlar o'z qo'llari bilan tayyorlashgan.		
3	Suv insonning kisloroddan keyin ikkinchi ehtiyoji hisoblanadi.		
4	Jazoirdagi antiqa ko'l suvi bilan yozilgan yozuv umuman o'chmaydi.		

6. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Abror Jazoirdagi antiqa ko'l haqida ma'lumotlar **to'plamoqchi**.

1. Abror Jazoirdagi antiqa ko'l haqida ma'lumotlar ____ (to'plamoq, yaratmoq, kuylamoq).
2. Biz quduq suvini tajribadan ____ (ishtirok etmoq, qatnashmoq, o'tkazmoq).
3. Men suvni tejash haqidagi loyiham bilan anjumanda ____ (qatnashmoq, o'qimoq, yozmoq)
4. Siz tomorqangizda tomchilatib sug'orishdan ____ (ishlatmoq, foydalanmoq, o'ylamoq)?

Mustaqil topshiriq

Yod oling.

Yer – xazina, suv – gavhar.
Yerni buzadigan ham suv, tuzadigan ham suv.
Suvni bersang elga, yasharsan ming yilga.
Baliq suv bilan tirik, odam – el bilan.


KELAJAK ENERGIYASI



1. Tinglang.

2. Savollarga javob bering. Yozing.

1. Danil qaysi fanga qiziqadi?
2. Danil qanday loyiha ishlab chiqmoqchi?
3. Quyosh batareyalarini qayerlarda ko'rgansiz?
4. Siz kelajakda kim bo'lmoqchisiz?
5. Yetuk mutaxassis bo'lish uchun nima qilish kerak?



3. O'qing.

Quyosh nurlari har yili Yerga nihoyatda ko'p energiya olib keladi. Bu energiyaning 60 foizi Yer atmosferasi, 25,5 foizi okean va dengiz, 14,5 foizi quruqlikni isitishga sarf bo'ladi. Bugungi kunda yoqilg'i manbalarini tejash uchun quyosh energiyasidan foydalaniladi. Quyosh energiyasi binolarni yoritish, isitish, havoni sovitish, shamolatishga sarflanadi. Quyosh batareyalarining tuzilishi oddiy, o'rnatilishi oson va ulardan uzoq muddat foydalanish mumkin. Qishloq xo'jaligida suvni tejash maqsadida tomchilatib sug'orishdan foydalaniladi. Yoqilg'ini tejash maqsadida esa quyosh batareyalaridan keng foydalanilmoqda.

4. O'ylang va toping.

1. Quyoshdan kelayotgan issiqlik energiyasining necha foizi Yer atmosferasini isitish uchun sarflanadi?

- A) 25,5 foizi B) 60 foizi C) 12,7 foizi D) 14,5 foizi

2. Quyosh batareyalaridan foydalanganda nima tejaladi?

- A) suv resurslari B) oltin zaxiralari C) yoqilg'i resurslari D) to'g'ri javob yo'q

3. Quyosh batareyalarini ixtiro qilishda qaysi fan muhim rol o'ynagan?

- A) fizika B) algebra C) kimyo D) informatika

4. Kelasi zamon fe'li shaklidagi so'zlar berilgan qatorni aniqlang.

- A) yugurdi, sakramoqchi, ixtiro qildi
 B) gapirdi, o'yladi, ma'lumot berdi
 C) hosil qilmoq, iste'molchi, xarid qilmoq
 D) bo'lmoqchi, o'rganmoqchi, sayohat qilmoqchi

5. Danil quyosh energiyasidan foydalanib yangi loyihalarni amalga oshirmoqchi, u kelajakda kim bo'ladi?

- A) muhandis-energetik B) tarjimon C) huquqshunos D) muhandis-quruvchi

5. O'ylang va toping. Yozing.

- bormoq yaratmoq ~~bo'lmoq~~ bormoq egallamoq



Namuna 1. Men kelajakda yetuk muhandis **bo'lmoqchiman**.

1. Men kelajakda yetuk muhandis _____ .
2. Do'stim Danil ilg'or texnologiyalardan foydalanib innovatsion quyosh batareyalarini _____ .
3. Sinfimiz o'quvchilari yangi zavod bilan tanishgani ekskursiyaga _____ .
4. Davron, kelajakda sen qaysi kasbni _____ .
5. Ertaga dugonam Aziza bilan kutubxonaga _____ .

Mustaqil topshiriq

O'zbekistonda quyosh energiyasidan qayerlarda foydalaniladi? Ma'lumot topib keling.

SHAMOL ENERGIYASI

1. O'qing.

Shamol energiyasi – shamoldan olinadigan energiya. Bu – havo oqimi ta'sirida hosil bo'lgan kinetik energiyaning bir turi. Ushbu energiya generator orqali elektr energiyasiga aylanadi. Uning tarixi miloddan avvalgi 3000-yillarga borib taqaladi. Shamol energiyasidan qadimda kemalarni harakatga keltirishda va sug'orish tizimida foydalanilgan. Shamol energiyasining bir qator afzalliklari mavjud:


- qayta tiklanadi tugab qolmaydi ifloslantirmaydi
 yerosti boyliklari tejaladi arzon narxga ega

Shamol energiyasining dunyodagi eng yirik ishlab chiqaruvchisi – AQSH, undan keyin Germaniya, Xitoy, Hindiston va Ispaniya mamlakatlari turadi.

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Shamoldan energiya olish bizga nima uchun kerak?
2. Yana nimalardan energiya olsa bo‘ladi deb o‘ylaysiz?
3. Shamolning yana qanday foyda va zararlari bor?
4. Shamol energiyasini ishlab chiqaruvchi qaysi davlatlarni bilasiz?

3. O‘ylang va toping. Yozing.



4. Tinglang.



5. O‘ylang va toping. Gapiring.

Namuna 1. Haroratning o‘zgarishi havoning ko‘chib yurishiga sabab bo‘ladi.

Oklahoma

shamol

515 km

havo qiziganda, haroratning o‘zgarishi, sovuq havo

6. O'ylang va toping. Yozing.

tomosha qilishmoqchi, bo'lmoqchimiz, **yasamoqchilar**, yordam bermoqchiman

Namuna 1. Dadam dam olish kuni robot yasamoqchilar.

Mening dadam – muhandis. Dadam dam olish kuni robot _____. U robot ko'chaga tashlangan chiqindilarni tozalashga dasturlanar ekan. Men ham dadamga uni yasashga _____. Bugun do'stlaringa robot yasamoqchi ekanimizni aytdim. Ular robot qanday yasalishiga juda qiziqib qolishdi. Tayyor bo'lgandan keyin ular ham biznikiga kelib uni _____. Singlim Ra'no ham robotlarga juda qiziqadi. Biz ham dadam kabi muhandis _____.

Mustaqil topshiriq

Varrak yasang.

YASHIL BINOLAR

1. O'qing.



Salom, Agata!



Salom, Zembi!
Ahvollaring yaxshimi?

Zembi: Yaxshi, Agata. Ta'til kunlari qanday o'tyapti?

Agata: O, juda ham zo'r. Biz ta'til kunlarida oilaviy dam olish uchun Yaponiyaning Tokio shahriga keldik. Bu yerlar juda ham chiroyli ekan.

Zembi: Nima, rostdan ham Tokiodamisan? (*hayratlanadi*) Orqangda turgan yam-yashil tabiatni ko'rib, Yangi Zelandiya yoki Avstraliyadasan deb o'ylagandim.

Agata: Yo'q, Zembi, bu Tokiodagi yashil binolardan biri. Hozir men 30-qavatdan va ko'rib turganingdek, yonimda turli daraxtlar va gullar yashnab turibdi.

Zembi: Shunaqasi ham bo'larkanmi? Ko'p qavatli binolarda shunday daraxt va gullarni o'stirish mumkinmi? Qoyil!

Agata: Ha, Zembi, mumkin. Bu juda foydali ekan. Daraxt va o'simliklar havodagi zararli gazlarni yutib, o'rniga toza kislorod ishlab chiqaradi va biz o'sha kisloroddan nafas olamiz. Qolaversa, bu shahar ko'rinishiga chiroy bag'ishlab turadi.


Zembi: Ha, haqiqatan ham ajoyib! Demak, endi odamlar ko'p qavatli uylarda yashasalar-da, o'z bog'lariga ega bo'lishlari mumkin. Oh, qanday maza! Men ham xuddi shunday yashil uyim bo'lishini xohlayman.

2. Savollarga javob bering. Gapiring.

1. Yashil binolar deganda nimani tushunasiz?
2. Agata dam olish uchun qaysi davlatga bordi?
3. Yashil binolarning ahamiyati nimada?
4. Siz yashaydigan joyda ham yashil binolar bormi?
5. Agar siz yashil binoda yashasangiz, qanday o'simliklar va daraxtlar ekkan bo'lar edingiz?

3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Agata ta'tilda Yaponiya davlatiga bordi.



4. Tinglang.




5. O‘ylang va toping. Gapiring. Yozing.

Namuna 1-B. 2-...

- A** Daraxtlar va o‘simliklarni binolar ichida uyg‘unlashtirish g‘oyasi ham paydo bo‘ldi. Bu g‘oya muallifi avstraliyalik dizayner Fridensrayx Hundertvasser edi. U yirik daraxtlarni o‘z ichiga olgan turarjoy binosi va mehmonxonalarni loyi-halashtirgan. Dizayner bu ishlarni 1980–1990-yillari amalga oshirgan.
- B** Daraxtlar qurshovida qurilgan binolar aslida yangilik emas. Bobilning afsonaviy osma bog‘lari daraxtlar, butalar va ekzotik gullar bilan tasavvur qilingan.
- C** Hozirda yashil binolar dunyoning barcha mamlakatlarida qurilmoqda. Ularni Yaponiya, Xitoy, Ispaniya, Germaniya, Buyuk Britaniyada ko‘plab uchratish mumkin.
- D** 1975-yilda qurib bitkazilgan bino ilk yashil bino edi. U o‘t bilan qoplangan tom bo‘lib, Buyuk Britaniyada Norman Foster tomonidan loyihalashtirilgan.
- E** Yashil arxitekturaga yondashish 1970-yillarda boshlangan. Energiya inqirozi va insoniyatning atrof-muhitga ta‘siri muhandislarni jiddiy o‘ylashga undagan.

6. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna Davron kelajakda yashil binolarni loyihalashtiruvchi arxitektor bo‘lmoqchi.



3D PRINTER

1. O'qing. Gapiring.





– Salom, Alisher! Nima bilan shug'ullanyapsan?

– Salom, Maks! Ertaga bo'ladigan dars uchun tayyorlagan loyihamni printerdan chiqaryapman. Maks, 3D printer haqida eshitganmisan?

– Ha, eshitgan edim. Lekin u qanday vazifa bajarishini bilmayman. Matn va rasmlar uchun mo'ljallangan bo'lsa kerak-a u ham? Oddiy printerlardan farqi nimada?

2. Tinglang.



3. O'ylang va toping. Yozing.

T/r	Ma'lumotlar	To'g'ri ✓	Noto'g'ri ✗
1	AQSHda uzunligi 150 metr bo'lgan 3D printer yaratilgan.		
2	3D printerlar orqali binolar, mashina va hatto oziq-ovqat mahsulotlarini ham "bosib chiqarish" mumkin.		
3	Bu printer taqinchoq, esdalik buyumlari yasash, uy qurish vazifasini ham bajaradi.		
4	Xitoy, AQSH, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, O'zbekiston 3D printer bo'yicha amaliy natijalarga erishgan.		
5	3D printerlardan faqat matn va rasmlar chiqarishda foydalaniladi.		
6	3D printerlar faqat plastmassa va qog'oz buyumlarni ishlab chiqara oladi.		

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Tasavvur qiling, sizning ham 3D printeringiz bor.


Loyihaning nomi	Loyihaning maqsadi	Loyihaning foydasi	Loyihaning mahsuloti	Loyiha muallifi
Bezakli zanjir (jevak)	Odamlarga yordam berish, qo‘shimcha mablag‘ topish	Kalitlar yo‘qolib qolishining oldini oladi	Kalit uchun bezakli zanjir	Tixon Nazarov (10 yosh)

Mustaqil topshiriq

4-topshiriq asosidagi loyihangiz mahsulotining rasmini chizib keling.

“KINDL KITOB”

1. O‘qing.



- Salom, Zembi! Nima qilyapsan?
- Salom, Maks! Oilamiz bilan tez-tez sayohatga chiqishimizni bilsang kerak. Navbatdagi sayohatga tayyorgarlik ko‘ryapman.
- Qanday yaxshi!
- Bir muammo bor. Qaysi kitobimni o‘zim bilan olib ketsam ekan-a? Tanlashni bilmayapman. Hammasini olib ketishning iloji yo‘q.
- Shu ham muammomi? Sen hammasini olib keta olasan. Hatto u yo‘l jomadonining hech qancha joyini egallamaydi.
- Qanaqasiga? Buning iloji bormi?
- Albatta, iloji bor. Buning uchun sen “Kindl kitob” gadgetini sotib olsang bas.
- U qanday gadget?

2. Tinglang.



3. O'ylang va toping. Yozing.



4. Savollarga javob bering.


1. Sizga kitob o'qish yoqadimi?
2. Sizga qanday kitoblar yoqadi? O'qigan kitobingiz haqida gapirib bering.
3. Yaqin kunlarda qaysi kitobni o'qimoqchisiz?
4. Chet tilidagi kitoblarni ham o'qiganmisiz?
5. Do'stlaringizga ham o'zingiz o'qigan kitoblardan 3 tasini tavsiya qiling.

BU QIZIQ

Bill Geyts juda bandligiga qaramay, yiliga kamida 50 ta kitob o'qir ekan. Hozir dunyoning eng boy odami – Jeff Bezos “Amazon” korxonasi ishini kitob sotishdan boshlagan va hozirgacha ertalablari kitob o'qish odatini tashlamagan. “Tesla” va “SpaceX” loyihalari bilan tanilgan Ilon Mask esa kuniga 2 ta kitob o'qigan.

5. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Bill Geys juda bandligiga qaramay, yiliga kamida 50 ta kitob o'qiydi.




1. Bill Geys juda bandligiga qaramay, yiliga kamida 50 ta kitob o'qigan.
2. Ilon Mask bolaligida kuniga 2 ta kitob o'qigan.
3. "Kindl kitob" qurilmasi orqali istagan kitobingizni yuklab olishingiz va elektron tarzda o'qishingiz mumkin.
4. Ko'p kitob o'qiydigan insonlar hayotda faol bo'ladilar.
5. "Amazon" kompaniyasiga 1994-yilda Jeff Bezos tomonidan asos solingan.
6. "Kindl kitob"lar to'liq quvvatlanganda bir hafta davomida ishlay oladi.

Mustaqil topshiriq

O'qigan ertak, hikoya, asarlaringiz nomini yozing.
Ota-onangizning eng sevib o'qigan kitoblari nomini yozib keling.

GLOBUS

1. Tinglang. Gapiring.




2. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Ulug' alloma Abu Rayhon Beruniy ota-onasidan juda erta yetim qolgan.

1. Ulug' alloma ____ ota-onasidan juda erta yetim qoladi.
2. Bo'lajak olim ____, matematika, ____, geografiya, ____ va mineralogiya kabi fanlarni chuqur o'zlashtiradi.
3. Aristotel, ____, Yevklid, ____, al-Farg'oniy kabi buyuk olimlarning asarlarini o'rganadi.
4. U Markaziy Osiyoda ilk bor ____ni ixtiro qilgan.
5. Olimning "Geodeziya", "____", "Mineralogiya", "____", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" kabi ilmiy asarlari mashhur.

-gan

3. O'qing.



Globus yasash tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi. Birinchi globusni miloddan avvalgi II asrda yunonistonlik Krates **yasagan**. U o'rta asrlar globuslaridan ancha **farq qilgan**.


Sharqda ilk globusni Abu Rayhon Beruniy 1016-yilda **yasagan**. U faqat Shimoliy yarimshardan iborat eng birinchi bo'rtma (relyefli) globus bo'lib, aholi yashaydigan joylar aniq **ko'rsatilgan**.



XIII asrda Misrda ham globus **ishlangan**.




Rossiyada birinchi globuslardan biri XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida Karp Maksimov tomonidan yasalgan. Bu globus Rossiya imperatoriga sovg'a sifatida berilgan degan taxminlar bor. Chunki 1793-yilgacha u Kunstkameradagi "Buyuk Pyotrning kabinetida" saqlangan.




Amerikaning "DeLorme" kompaniyasi ulkan globus – "Eartha"ni yaratgan. Ushbu kompaniya xaritalar va GPS navigatsiya tizimlarini ishlab chiqqan.

Globusning diametri 12,6 metrni tashkil etadi, bu 4 qavatli binoning balandligiga teng. Bu globus hozir Amerikaning Yarmut shahrida joylashgan. U Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgan.



DIQQAT QILING!




Men	ishlamoq +gan	-man
Sen		-san
U		-

Biz	ishlamoq +gan	-miz
Siz		-siz
Ular		-dilar

4. O'ylang va toping. Gapiring.

Namuna 1. Birinchi globusni yunonistonlik Krates yasagan.



5. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Amerikada **yasalgan** globus kattaligi bilan juda mashhurdir.

uzilgan chizilgan oqlangan sovg'a qilingan ekilgan ~~yasalgan~~

1. Amerikada ____ globus kattaligi bilan juda mashhurdir.
2. ____ kitoblarni bolalar qiziqib o'qishdi.
3. Men ____ daraxtlarning tagini yumshatdim.
4. Yangi ____ atirgullar g'uncha ochdi.
5. O'quvchilar tomonidan ____ xaritalar sinf devoriga osib qo'yildi.
6. Onam yangi ____ mevalardan sharbat tayyorladilar.

6. O'ylang va toping. Yozing.

Mustaqil topshiriq

“Globus” she'rini yod oling.

ALISHER NAVOIY



1. O'qing.



- Zumrad, kecha Navoiyning “Xamsa”sini o’qigan edim.
- Xo’sh, qanday taassurotlar olding?
- Bilasanmi, asarni o’qib hayratim oshdi. Unda bugungi kun liftlari, eskalatorlari, robotlar haqida ham yozilgan ekan.
- Nahotki?! Eskalator haqida nimalar yozilgan ekan?
- Shoh taxtga chiqadigan bo’lsa, pillapoyalar uning qadam qo’yishi uchun payib, bir-birining ustiga yotadi. Shoh shu sakkiz poyaning hammasini bosib o’tib, o’z taxtiga o’tirgach, u zinalar yana baland ko’tariladi.
- Ajabo! Meni ham qiziqtirib qo’yding.

2. Savollarga javob bering.

-gan

1. Alisher Navoiy haqida qanday ma’lumotlarni bilasiz?
2. Navoiy asarlarida qaysi zamonaviy texnikalarning muqobillari haqida farazlar bor?
3. Eskalator nima?
4. Lift va eskalatorning o’xshash va farqli jihatlarini ayting.

3. Tinglang.




4. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Eskalatorlardan biz savdo majmualari, metro bekatlarida foydalanamiz.

1. Eskalatorlardan biz _____ , _____ larida foydalanamiz.
2. _____ ixtiro qilgan eskalator ommalashmagan.
3. 1892-yili Jessi Reno _____ .
4. “Eskalator” degan nomni _____ taklif qilgan.
5. Eskalator _____ degan ma’noni bildiradi.

5. O'ylang va toping. Gapiring.



6. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Alisher o'qigan kitobda eskalator haqida farazlar bor.

1. Alisher (o'qimoq) kitobda eskalator haqida farazlar bor.
2. Taqdimotda (qatnashmoq) ishtirokchilarga yangi g'oya yoqdi.
3. Musobaqada (yutmoq) bola – mening do'stim.
4. Tongda (termoq) gullarimni ustozimizga sovg'a qildim.
5. U (qizarmoq) olmalardan singlisiga uzib berdi.

Mustaqil topshiriq


Siz qayerlarda eskalatoridan foydalanishingizni va u bilan bo'lgan qiziqarli voqeani yozib keling.

OBSERVATORIYA

1. O'qing.


Muhammad Tarag'ay ibn Shohrux ibn Temur Ulug'bek Ko'ragon 1394-yilda tug'ilgan. U Amir Temurning sevimli nabiralari-dan biri bo'lgan.

Yosh Ulug'bek Marog'a shahriga bor-ganida Marog'a rasadxona observatori-yasini **ko'radi**. U o'z davrining eng yirik astronomik rasadxonasi hisoblangan. Bu rasadxona XIV asrning o'rtalariga qadar mavjud bo'lgan. Marog'a rasadxonasida 400 mingga yaqin qo'lyozmalar mavjud bo'lgan, 100 dan ortiq astronomlar ishlagan.



Aytilishicha, o'sha paytdan boshlab Ulug'bek astronomiyaga juda **qiziqib qoladi**.



Mirzo Ulug'bek 1428–1429-yillarda Samarqand shahrida rasadxona qurdiradi. U ko'p vaqtini o'z rasadxonasida **o'tkazardi**. Mehnatlarining natijasi – “Ziji Ko'ragoniy” jadvalini tuzadi. Unda astronom 1018 ta yulduzni tasvirlab, ularni 38 ta yulduz turkumiga **ajratdi**. Rasadxona o'rta asrlarda astronomiya sohasida katta yutuqlarga erishish **imkonini beradi**.



2. O'ylang va toping. Gapiring.

1. Mirzo Ulug'bek kim?
2. Rasadxonada qanday ishlar bajariladi?
3. Siz yulduzlarni tomosha qilganmisiz?
4. Yulduzlar sonini bilasizmi?
5. Sayyoralarning nomini yozing.

3. Tinglang.



4. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna *Maydanak baland tog' observatoriyasi 1970-yilda qurilgan.*

Maydanak baland tog' observatoriyasi

Jantar Mantar 1727–1734-yillarda

Marog'a rasadxonasi

Jantar Mantar dunyodagi eng katta

Hindistonda qurilgan beshta rasadxonaning eng kattasi

quyosh soati hisoblanadi

Hindistonda qurilgan

1970-yilda qurilgan

Eron shahrida qurilgan

Jantar Mantar rasadxonasidir

5. O'ylang va toping. Yozing.

sotib olingan

pishirilgan

tayyorlangan

quritilgan

tug'ilgan

chizgan

tayyorlangan

Namuna 1. Yaqinda sotib olingan yangi mashinamizda dadam bilan shahar aylandik.


1. Yaqinda ___ ___ yangi mashinamizda dadam bilan shahar aylandik.
2. Buvim: "O'choqda ___ ovqat boshqacha mazali bo'ladi", – deyilar.
3. ___ mevalardan ___ sharbatlar juda ham foydali bo'lib, muntazam ichib turish tavsiya etiladi.
4. Munisaga akasi yangi ___ mushukcha sovg'a qildi.
5. Usta rassom ___ rasmlar shunday chiroyliki, soatlab tomosha qilging keladi.
6. Bugun maktabimizda keraksiz buyumlardan ___ turli o'yinchoqlar va jihozlar ko'rgazmasi bo'lib o'tdi.

Mustaqil topshiriq

Dunyoda eng mashhur observatoriyalar haqida ma'lumotlar to'plab keling. Teleskop rasmini chizing va maketini yasang.

ALGORITM

1. Tinglang.



2. O'ylang va toping. Yozing.

~~783-850~~

arab

fors

hind

yunon

arifmetikani o'rgatgan

yaratgan

Yevropada

20 dan

Namuna 1. Muhammad al-Xorazmiy 783–850-yillarda yashagan.

1. Muhammad al-Xorazmiy ___ yillarda yashagan.
2. Olim ___, ___, ___ va ___ tillarini ham o'rgangan.
3. Buyuk olim ___ ziyod ilmiy asarlar ___ .
4. Xorazmiy butun dunyoga ___ ___ inson bo'lib tarixda qoldi.
5. Arifmetika XII asrdan boshlab ___ ham ommalashdi.

3. O'qing.



Tarixdagi birinchi matematik ayol aleksandriyalik Gipatiya bo'lgan.



Tenglik belgisi XVI asrda, manfiy sonlar esa faqat XIX asrga kelib ilk marta qo'llangan. Birdan yuzgacha bo'lgan jami sonlar yig'indisi 5050 ga teng.



Lahza nima? Bu bor-yo'g'i ibora emas, 0,01 soniyaga teng bo'lgan vaqt o'lchov birligi ekan.




Algoritm – berilgan natijaga erishish uchun qilinishi kerak bo'lgan aniq ko'rsatmalar ketma-ketligi.



Algoritm hayotimizda juda ko'p sohalarda ishlatiladi: chorrahada – svetofor, binolarda – lift. Hatto o'zimiz oddiy hayotiy ishlarda ham algoritm ishlatamiz: masalan, choynakka choy damlash. Algoritmalar kompyuter sohasida ham muhim rol o'ynaydi. Chunki dasturchi ishlab chiqqan dasturlar ma'lum bir ketma-ketlik bilan ishlaydi.

4. O'ylang va toping. Yozing.

1. 0,01 soniyaga teng bo'lgan vaqt o'lchov birligi.
2. Birinchi matematik ayol kim?
3. Al-Xorazmiy kim? (3, 4, 5, 6)



5. O‘ylang va toping. Gapiring.


1. Birdan yuzgacha bo‘lgan jami sonlar yig‘indisi nechaga teng?
2. “Algoritm” atamasi qaysi olimning nomi bilan bog‘liq?
3. Lahza nima?
4. Algoritmni hayotimizning qaysi sohalarida ko‘rish mumkin?
5. Choy damlash algoritmini aytib bering.

Mustaqil topshiriq

Matematika fanidan bajargan masalangiz algoritmini yozib keling.

GINNES REKORDLARI

1. Tinglang.



2. O‘ylang va toping. Gapiring.

Namuna: 1-d, ...

1. Ginnesning rekordlar kitobi – jahondagi...
2. Ginnesning rekordlar kitobi 1954-yili Londonda...
3. 1955-yildan beri ingliz nashriyoti...
4. Dunyodagi eng ko‘p o‘g‘irlanadigan kitob...

- A) “Guinness Publishing” tomonidan har yili nashr etib kelinadi.
- B) aka-uka Norris va Ross Makuirterlar tomonidan yaratilgan.
- C) rekordlar va g‘aroyib narsalar haqida ma’lumotlar kiritilgan kitob.
- D) Ginnesning rekordlar kitobidir.

3. O‘qing.


Dunyodagi eng ko‘p mo‘miq ayiqchalar kolleksiyasi (8025 dona) Janubiy Dakotada. Jeki Mayli ayiqlarni AQSHning barcha shtatlari va 29 ta chet mamlakatdan keltirgan.





Natan Savayya to'liq LEGO konstruktoriga detallaridan qurgan "betmobil"ni tufayli Ginnesning rekordlar kitobiga kirgan. Prototip yaratilishiga 3 oy vaqt va 500 ming LEGO detali ketgan.

Dunyodagi eng yaxshi basketbolchi quyon sifatida 4 yoshli Bini tan olingan. U bir daqiqada yetti marotaba koptykni savatga tashlashi mumkin.



O'zbekistonda tayyorlangan dunyodagi eng ulkan – og'irligi 7360 kilogrammlik palov Ginnes rekordlari ro'yxatidan joy olgan.

4. O'ylang va toping. Gapiring.

1. Dunyodagi g'aroyib rekordlar haqida eshitganmisiz?
2. Sinfdoshlaringiz orasida kimlar sinf rekordini o'rnatgan? (Misol uchun, kubik-rubik, mental arifmetika bo'yicha.)
3. Siz ham Ginnesning rekordlar kitobiga kirishni istarmidingiz? Qaysi sohada o'zingizni kuchli deb hisoblaysiz?
4. Yuqoridagi rekordlardan qaysi biri sizga yoqdi?
5. Tasavvur qiling, siz Ginnesning rekordlar kitobiga kiritildingiz. Undan tushgan mablag'ni nimaga sarflagan bo'lardingiz?

5. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna U tikuv sexida bolalar bosh kiyimi tikadi.

bermoq

tikmoq

chop etmoq

o'rnatmoq

~~tikmoq~~

Mening opam – tikuvchi. U tikuv sexida bolalar bosh kiyimi ____ . U ishxonasida tezkorligi bilan rekord ____ . Opam kuz mavsumida bir kunda 300 ta bosh kiyim ____ . Shuning uchun u haqida gazetada ham maqola ____ . Opam menga va do'stlarimga ham chiroyli bosh kiyimlar tikib ____ . Ular menga juda yoqadi.

Mustaqil topshiriq

G'aroyib rekordlar haqida ma'lumot topib keling.

AQLGA SIG'MAS NARSALAR

1. O'qing.



Do'stlar, men "Ixtirolar" mavzusi-da esse yozayotgan edim. Menga yordam bera olasizmi? Yurtingizda qanday kashfiyotlar qilingan?



Fizik va elektrotexnik Aleksandr Popov radioni ixtiro qilgan.



Tomas Edison AQSHda 1093 ta, dunyoning boshqa mamlakatlarida esa 3 mingga yaqin patentga ega bo'lgan. Xavfsiz elektr cho'g'lanma lampasini yaratgan. Aynan u telefondagi muloqotni boshlash uchun "Allo" so'zini taklif qilgan.

Matematik va ixtirochi Charlz Bebbij kelajakdagi kompyuterlar uchun prototip bo'lib xizmat qilgan birinchi mexanik kompyuterni yaratgan. Shuning uchun u "kompyuter otasi" hisoblanadi.



Yaponiyalik olim Meydzi Miyasita ekranda namoyish etilayotgan taom mazasini tomoshabinga yetkazib bera oladigan televizor prototipini ixtiro qilgan. Bu televizorga "Taste the TV" deb nom berilgan.

2. O'ylang va toping. Gapiring.

T/r	Ma'lumotlar	To'g'ri ✓	Noto'g'ri ✗
1	Charlz Bebbij telefonni ixtiro qildi.		
2	Radio Rossiyada ixtiro qilingan.		
3	Tomas Edison AQSHda 3 mingga yaqin, boshqa mamlakatlarda 1093 ta patentga ega bo'lgan.		
4	Yaponiyada ma'lum bir taom namoyish qilinsa, tomoshabin uning ta'mini his qila oladigan televizor yaratildi.		
5	"Kompyuter otasi" – Charlz Bebbij.		
6	Telefonda muloqotni boshlashdagi "Allo" so'zi AQSHlik olim tomonidan taklif etilgan.		

3. O‘ylang va toping. Gapiring.

Namuna Beruniy yaratgan kashfiyot – globus.

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna 3. Men al-Xorazmiyman....

1. Men ____ .

Men Xorazmda (*tug' ilmoq*). “Geodeziya” nomli asarimni 1025-yilda (*yozib tugatmoq*). Yer aylanasining kattaligi haqida (*fikr yuritmoq*).

Men kimman?

2. Men ____ .

Men Amir Temurning nabirasi (*bo' lmoq*). Keyinchalik Temuriylar davlatini (*boshqarmoq*). Ilm olishni (*yaxshi ko' rmoq*) va (*astronomiyaga qiziqmoq*).

Men kimman?

3. Men ____ .

20 dan ortiq ilmiy asarlar (*yaratmoq*). Mening “Al-jabr val-muqobala” asarim mashhurdir. Men matematik (*bo' lmoq*).

Men kimman?

4. Men Alisher Navoiyman. (*Davom ettiring*).

5. O‘ylang va toping. Yozing.

1. Uy qurish, taqinchoqlar ishlab chiqarish, protez va implantatlar tayyorlash kabi vazifalarni bajara oladigan qurilma.

- A) 3D printer B) usta C) dron

2. Shamol energiyasini ... orqali elektr energiyasiga aylantirish mumkin. Tushirib qoldirilgan so‘zni toping.

- A) ventilyator B) generator C) shamol tegirmoni

3. Rekordlar va g‘aroyib narsalar jamlangan kitob qaysi?

- A) Qizil kitob B) Bolalar ensiklopediyasi C) Ginnesning rekordlar kitobi

4. Tiklanadigan energiya berilgan javobni toping.

- A) quyosh energiyasi B) neft C) quyosh va shamol energiyasi

Mustaqil topshiriq

Bilar edim	Bilib oldim	Bilishni xohlayman
Ginnesning rekordlar kitobi haqida	Ushbu kitob 1954-yili Londonda aka-uka Norris va Rossi Makuirter tomonidan yaratilgan.	O‘zbekistondan kimlar bu kitobga kirgan?

INTERNET

1. Tinglang.



2. O‘ylang va toping. Yozing.

1. Internet – _____.

- A) AQSHdagi ilmiy markaz nomi
 B) jahon kompyuter tarmoqlari majmui
 C) masofadan turib muloqot qilish qurilmasi
 D) ijtimoiy tarmoqlar to‘plami

2. “WWW” – _____.

- A) butundunyo tarmog‘i B) birinchi kompyuter modeli
C) qidiruv sayti nomi D) elektron kutubxona ilovasi

3. “Internet” so‘zi nechanchi yildan qo‘llana boshlandi?

- A) 1964-yil B) 1990-yil C) 1976-yil D) 1983-yil

4. “WWW” tarmog‘ining birinchi nusxasini _____ yaratdi.

- A) Aleksandr Bell B) Tim Byorners Li
C) Charlz Bebbij D) Aleksandr Popov

5. “WWW” serveri va tarmoqdagi kompyuterlarning aksariyati ... da joylashgan.

- A) Yaponiya B) Kanada
C) AQSH D) Buyuk Britaniya

3. O‘qing.

Internetning insoniyat uchun foydasi va imkoniyatlari kundan kunga oshib bormoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar rivojlangan bugungi kunningda internet hayotimizning ajralmas bir qismi bo‘lib qoldi. Hozirda foydalanuvchilar internetga asosan ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o‘tkazish uchun kiradi. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanayotganda shaxsiy ma’lumotlarni kamroq joylashtirish kerak. Saytda ro‘yxatdan o‘tayotganda mavjud qoidalar bilan tanishish



zarur. Shubhali havolalarni ochmaslik kerak. Chunki ular tarmoqdagi shaxsiy profillarga buzib kiruvchi zararli dasturlar bo‘lishi mumkin. Shaxsiy elektron pochta manzillarini hech qachon hamma ko‘radigan joylarga – ijtimoiy tarmoq, sayt va ommaviy forumlarga qo‘ymaslik kerak. Shubhali xatlarni ochmaslik, ularga javob bermaslik zarur.

4. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Internet bizga nima uchun kerak?
2. Qaysi ijtimoiy tarmoqdan faol foydalanasiz va nima maqsadda?
3. Internet xavfsizligi deganda nimani tushunasiz?
4. Saytda ro‘yxatdan o‘tayotganda qoidalar bilan tanishish bizga nima uchun kerak?

DIQQAT QILING!

Menga soyabon **zarur.**



Menga soyabon **kerak.**

zarur
kerak

- imkoniyat
- ijtimoiy tarmoq
- o'tkazish
- havola
- shaxsiy
- ommaviy
- zarur
- kerak

5. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna Internetdan foydalanish uchun nima kerak?
Internetdan foydalanish uchun telefon yoki kompyuter kerak.

- Internetdan foydalanish uchun
- Televizor ko'rish uchun
- Rasm chizish uchun
- Kompyuterni ishlatish uchun
- Elektr energiyasini hosil qilish uchun
- Quyosh batareyalaridan foydalanish uchun

- quyosh nuri
- rangli bo'yoqlar
- internet tarmog'i
- quyosh batareyalari
- elektr energiya
- telefon yoki kompyuter


kerak / zarur.

6. O'ylang va toping. Gapiring.



Mustaqil topshiriq

Oila a'zolaringiz bilan ushbu mashqlarni bajarishga odatlaning. Ushbu mashqlarning foydasi haqida kichik matn yozib keling.



FAVQULODDA VAZIYATLAR

1. O'qing.

- Alisher, kompyuterni o'chirdingmi?
- O'chirgan bo'lsam kerak.
- Uydan chiqayotganda har doim o'chirgan yoki o'chirmaganingni tekshirishing kerak!
- Vaqt oz qolganiga shoshdim-da.
- Bunday holatlar favqulodda vaziyatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun uydan chiqayotganda hushyor bo'lish kerak. Uydagi elektr va gaz uskunalari o'chirilganini tekshirish zarur.
- Sizni tushundim. Albatta, bu qoidalarga rioya qilaman.



2. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Texnologiya darslarida texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish zarur.

1. Texnologiya darslarida texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish ____ .
2. Jo'mraklarni ochiq qoldirmaslik ____ .
3. Qattiq shamol turgan vaqtda sababsiz ko'chaga chiqmaslik ____ .
4. Favqulodda vaziyatlar vazirligidan kelgan xabarlariga befarq bo'lmaslik ____ .
5. Mashina va mexanizmlarni o'z vaqtida nazoratdan o'tkazib turish ____.

3. Tinglang.



4. O'ylang va toping. Yozing.



①

A) texnogen tUSDagi favqulodda vaziyat

B) ekologik tUSDagi favqulodda vaziyat



②



③

C) tabiiy tUSDagi favqulodda vaziyat

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

Namuna 1, 10. Katta quti, ko‘zi bor,
Ko‘p tomosha, so‘zi bor. (televizor)

1	2	3	4	5	6		7	8	9	10	11	12	13
T										t			

- 1, 10. Katta quti, ko‘zi bor, Ko‘p tomosha, so‘zi bor.
- 2, 9, 12. O‘zbek milliy matosi.
- O‘zbekistonning qadimiy shaharlaridan biri.
- 4, 5. “Tesla” avtomobili asoschisining ismi.
6. Tabiiy ofatlardan biri.
7. Ilm-fan bilan shug‘ullanuvchi inson.
- Eyfel minorasi qayerda joylashgan?
11. Buxorodagi me‘moriy majmualardan biri.

Mustaqil topshiriq

Favqulodda vaziyatlarni keltirib chiqarmaslik uchun qanday qoidalarga amal qilish kerak?

TAOMLANISH

1. Tinglang.



2. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Dasturxon atrofida qulay holatda o'tirib ovqatlanish kerak.

oshqozon

issiq holda

dangasalik

suyuqlik

zarar

odobsizlik

~~qulay holatda~~

1. Dasturxon atrofida ___ ___ o'tirib ovqatlanish kerak.
2. Yotib ovqatlanish nafaqat ... hisoblanadi, balki sog'liqqa ham ___ keltiradi.
3. Inson qancha to'q bo'lsa, unda shunchalik ___ kuchayadi.
4. Ovqatlanish odoblaridan yana biri ovqatni juda ___ ___ yemaslik va ovqatlanish davomida ko'p ___ ichmaslik lozim.
5. Chunki bu ___ uchun qiyinchilik tug'diradi.


odobsizlik
ko'richak
dangasalik
issiq holda
suyuqlik

3. O'qing.



Ovqatlanish odatlari ham har xil bo'lar ekan. Masalan, Yaponiya va Hindistonda mehmonning ovqatni idishda qoldirmay, oxirigacha yeb qo'yishi mezbon uchun maqto'vni bildirsa, Xitoyda buning tamoman aksi.

Italiyaliklarni qahvani sevuvchi xalq deb o'ylasangiz xato qilasiz. Haqiqiy italiyaliklar ovqatlanib bo'lgandan keyin sutli qahva ichmaydilar, chunki ularning fikricha, sut hazm qilish jarayoniga salbiy ta'sir qilishi mumkin.



Yaponiyada taomning mazali ekanini bildirish uchun chin dildan chapillatib yeyiladi. Bundan tashqari, yaponlarning fikricha, chapillatish taomning mazasini yanayam kuchaytiradi.

Portugaliya va Misrda taom yeyayotib qo'shimcha tuzdan foydalanmaganingiz ma'qul. Chunki bu oshpaz ovqatni maromiga yetkazib tayyorlamaganini bildiradi.



4. O‘ylang va toping. Yozing.

Yaponiya va Hindistonda

Ovqatlanib bo‘lgandan keyin sutli qahva ichmaydilar.

Italiyada

Ovqatni yeyayotib qo‘shimcha tuzdan foydalanmaslik kerak. Chunki bu oshpaz ovqatni maromiga yetkazib tayyorlamaganini bildiradi.

Yaponiyada

Taomning mazali ekanini bildirish uchun chin dildan chapillatib yeyiladi.

Portugaliya va Misrda

Mehmonning ovqatni idishda qoldirmay, oxirigacha yeb qo‘yishi mezbon uchun maqtozni bildiradi.

5. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Dasturxon atrofida o‘tirganda gaplashmaslik kerak.
2. Ovqatni birinchi bo‘lib kattalar boshlashi kerak.
3. Ovqatni chapillatmasdan yeyish zarur.
4. Tirsaklarni stol ustiga qo‘yish mumkin emas.
Ovqatlanish madaniyatiga oid yana qanday qoidalarni bilasiz?

Mustaqil topshiriq

Bir kunlik taomnomangizni yozing.

DORI-DARMON

1. Tinglang.



2. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna Dorilar uyda bolalarning **bo'yi yetmaydigan joyda** saqlanishi kerak.

yorlig'ida qayd qilingan

shifokor maslahati bilan

~~bo'yi yetmaydigan joyda~~

tashlab yuborish

1. Dorilar uyda bolalarning ___ ___ ___ saqlanishi kerak.
2. Dori turlari juda ko'p, shu bois uni faqat ___ ___ ___ qabul qilish zarur.
3. Belgilangan muddatdan o'tgan dorini ___ ___ zarur.
4. Har bir dorini yaroqlilik muddati ___ ___ ___ bo'lishi kerak.

3. O'ylang va toping. Gapiring.

T/r	Ma'lumotlar	To'g'ri ✓	Noto'g'ri ✗
1	Hamma dorilarni ovqatdan oldin ichish kerak.		
2	Dorilarni shifokor maslahati bilan ichish kerak.		
3	Kasal bo'lganda shifokor oldiga borish zarur.		
4	Betob bo'lganda sport bilan shug'ullanish kerak.		
5	Betob bo'lganda maktabga borish kerak.		

4. O'qing.

VITAMINLAR NIMA UCHUN KERAK?

Vitamin A ko'z uchun foydali. U tuxum sarig'i, qaymoq, sariyog' va baliq moyi tarkibida bor.


Vitamin B9 yurak kasalliklarining oldini oladi. Gemoglobin ishlab chiqarilishini rag'batlantiradi, natijada anemiya, leykemiya kabi kasalliklarni davolashda yaxshi foyda beradi. U lavlagi, avokado, kungaboqar, karam, makkajo'xori, loviya tarkibida uchraydi.

Vitamin P qon tomirlariga ijobiy ta'sir etadi, C vitaminining ta'sir kuchini oshiradi, qon tomirlari devorlarini baquvvatlashtiradi. Natijada ularning yallig'lanishining oldini oladi va qon to'xtatish xususiyatini oshiradi. Ushbu vitamin na'matak, buzina, lipa, qora smorodina, limon po'stlog'ida mavjud.

Vitamin C moddalar almashinuvida, biriktiruvchi to'qimalarning o'zlashtirilishida, bu to'qimalarning normal holatda tutib turilishi va tiklanishida muhim ahamiyatga ega. Organizmda C vitamin yetishmasa, tog'ay va suyak to'qimalari tuzilishi buziladi. U apelsin, kivi, olma, qulupnay, malina, olcha tarkibida uchraydi.

5. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna Vitamin A ko'z uchun foydali. U tuxum sarig'i, baliq yog'i tarkibida uchraydi.



Mustaqil topshiriq

Siz kasal bo'lganingizda qanday davolangansiz?

BEGONA ODAMLAR BILAN MUNOSABAT

1. Tinglang.



2. O'ylang va toping. Gapiring.


T/r	Ma'lumotlar	To'g'ri ✓	Noto'g'ri ✗
1	Aziza Zembi bilan telefonda suhbatlashdi.		
2	Aziza uyga vazifalarni tayyorlashda dadasidan yordam so'ramoqchi.		
3	Ra'no uyga vazifalarni onasi bilan bajardi.		
4	Ra'noning eshik qo'ng'irog'i chalindi.		
5	Notanish odamlarga eshikni ochmaslik kerak.		

3. O'qing.

Barchamiz ko'cha-ko'ya tanish va notanish kishilarni uchratamiz. Tanish va notanish kishilarni ko'rganda avvalo ularga salom berishimiz lozim. Tanish kishilar bilan xushmuomala suhbatlashish, gaplarini diqqat bilan tinglash kerak.

Notanish kishi mashinasida uyga olib borib qo'yishni yoki do'kondan biror nima sotib olib berishni taklif qilsa, rahmat aytib, taklifni rad etish lozim. Shubhali kimsalardan ogoh bo'lish kerak!

4. O'ylang va toping. Gapiring.



1. Uyingizda yolg'iz qolganingizda kelgan kishilarga qanday munosabatda bo'lgansiz?
2. Uyda yolg'iz qolganda yana nimalardan ogoh bo'lish kerak?
3. Kimlarni biz notanish odam deb ataymiz?
4. Tanish odamlar kimlar?
5. Kimlarga salom berish kerak va nima uchun salom beramiz?

5. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna Uyda yolg'izligingizda begonalarga eshikni ochmang.

OGOHO BO'LING!

Uyda	Ko'chada
1.	1.
2.	2.
3.	3.
4.	4.
5.	5.

6. Yozing.

lozim

kerak

Do'konga kirib mahsulot tanlayotganda unga yaxshilab e'tibor berishingiz ____ bo'ladi. Chunki tanlagan mahsulotingiz qalbaki yoki muddati o'tgan bo'lishi mumkin. Ayniqsa, mahsulot qadog'i yirtilmagan, ochilmagan bo'lishiga ahamiyat berish ____ . Agar mahsulotning haqiqiy yoki soxta ekaniga shubha qilsangiz, uning shtrix kodini skanerlashingiz mumkin. Buning uchun telefoningizga tegishli ilovani o'rnatishingiz ____ .

Mustaqil topshiriq

O'rgangan qoidalaringsizni yozib keling.


HAYVONLARGA MUNOSABAT. G'AMXO'RLIK

1. O'qing.



2. O'ylang va toping. Gapiring.




1. Bolaning xatosi nimada?
2. Ko'chadagi hayvonlar bilan qanday munosabatda bo'lish kerak?
3. Uyingizda hayvon boqqanmisiz?
4. Hayvonlarni qanday parvarish qilish kerak?
5. Hayvonlar tishlab olganda qanday birinchi yordam ko'rsatishni bilasizmi?




3. Tinglang.

HAYVON TISHLAGANDA

1. Jarohatni yuving.
2. Shifokorga shoshiling.
3. Zarur muolajani oling.
4. Hayvonni veterinarga tekshirtiring.



4. O'ylang va toping. Yozing.



T/r	Ma'lumotlar	To'g'ri ✓	Noto'g'ri ✗
1	Hayvon tishlaganda emlanish zarur.		
2	Kasallik hayvonlar bilan o'ynaganda yuqadi.		
3	Daydi hayvonlarga mehr ko'rsatish kerak.		
4	Bolalar hayvonlarni yaxshi ko'radi.		

Mustaqil topshiriq

Sevimli hayvoningizning rasmini chizing. Uni nima sababdan yaxshi ko'rishingiz haqida kichik matn yozing.

LOYIHA TURLARI

1. O'qing.



Loyihalar har bir sohaga taalluqlidir. Hayotda biror muammoga yechim topish maqsadida turli loyihalar amalga oshirilyapti.

“O‘z uyingni o‘zing saqla” loyihasi sizga, albatta, yoqadi. Bunda ekologiyani ifloslanishdan saqlashga e‘tibor qaratiladi. Yoshlar ko‘cha yoki maktab atrofini baklajka va qog‘ozlardan tozalashlari ko‘zda tutilgan.


“Qanotli do‘stlarimiz” loyihasida esa saqich qoldiqlaridan halok bo‘layotgan qushlarga e‘tibor qaratilgan. Buning oldini olish uchun saqichlarni biror-bir narsaga o‘rab, axlat chelagiga tashlash kerakligi uqtiladi.

Foydali harakatlardan yana biri “Tengdoshlarim bilan” loyihasidir. Kasalxonada uzoq davolanayotgan bolalar zerikadilar. Bo‘sh vaqtlarini unumli tashkillashtirish uchun ularga qog‘oz va rangli bo‘yoqlar tarqatilgan. Bemor bolalar chizgan rasmlardan ko‘rgazma tashkil etilgan.

Bu kabi loyihalar bugungi kunda ko‘p tashkil qilinadi. Siz ham ularda ishtirok etgan bo‘lsangiz kerak.

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Loyiha nima?
2. Loyihalar orasida sizga qaysi biri yoqdi? Nima uchun?
3. Siz qanday loyihalar haqida eshitgansiz?



3. Tinglang.



DIQQAT QILING!

Kitob o'qiyapti.



Kitob o'qimoqchi.



Kelasi zamon maqsad fe'li qo'shimchasi: -moqchi
Hozirgi zamon fe'li qo'shimchasi: -yap

4. O'ylang va toping. Yozing.

qushlar

~~texnika xavfsizligi~~

kichik matn

Alisher

"Qushlar qo'riqchilari"

Namuna 2. Direktor ishni boshlashdan oldin **texnika xavfsizligi** bilan tanishib chiqish kerakligini ta'kidladi.

1. O'zbek tili darsida "Qushlar – bizning do'stlarimiz" mavzusida ___ ___ tuzish vazifasi berildi.
2. Direktor ishni boshlashdan oldin ___ ___ bilan tanishib chiqish kerakligini ta'kidladi.
3. ___ tabiatning ajralmas bir bo'lagi.
4. Ertasi kuni ustoz ___ yozgan matnни hammaga o'qib berdi.
5. 6-sinf o'g'il bolalari ___ ___ ga aylandilar.

5. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Akbar shu kunlarda o'z loyihasi ustida **ishlayapti**.

1. Akbar shu kunlarda o'z loyihasi ustida (*ishlamoq*).
2. Mamlakatimizda loyihalarni ishga tushirish uchun imkoniyatlar (*yaratilmoq*).
3. Hozirgi kunda yoshlarimiz o'rtasida "Startup" loyihalar (*ko'paymoq*).
4. Loyihalarning natijalari hayotimizga ijobiy (*ta'sir ko'rsatmoq*).
5. Ko'plab yoshlarimiz o'zlarining loyihalarini jahon miqyosiga (*olib chiqmoq*).

Mustaqil topshiriq

Siz ham o'z loyihangizni tuzing va logotipingizni yarating.

IRODANING LOYIHASI

1. Tinglang.

IRODANING TAQDIMOTI




Abdunazarova Iroda. Yoshi 14 da. "Homepaw" loyihasi asoschisi.







2. O'ylang va toping. Gapiring.

1. Irodaning loyihasi sizga yoqdimi?
2. Bu loyihaning maqsadi nima?
3. Siz yana qanday yangiliklar qo'shgan bo'lar edingiz?
4. Siz ham uysiz jonivorlarga yordam berasizmi?
5. Iroda haqida sizda qanday taassurot uyg'ondi?



3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna *Abror uysiz hayvonlarga yordam bermoqchi, shu maqsadda veterinar bilan maslahatlashdi.*



4. O‘qing.

Irodaning muvaffaqiyat siri so‘ralganda u shunday javob berdi: “Loyihani tashkil qilish uchun bir qancha bosqichlarni bosib o‘tish kerak. Birinchi bo‘lib insonga g‘oya kerak bo‘ladi. G‘oya maqsadga aylantiriladi. Maqsadni amalga oshirish uchun soha-ga oid bilimga ega bo‘lish kerak. Navbatdagi jarayon harakat hisoblanadi. Yuqoridagi bosqichlardan o‘tgandan so‘ng bizga mablag‘ zarur bo‘ladi. Loyihani mana shu ketma-ketlikda amalga oshirsak, kutilgan natijaga erishamiz. Aslida muvaffaqiyat-ning siri tinimsiz mehnatdadir!”

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Loyihani yaratishi va amalga oshirish uchun nimalar kerak?



1. G'

4. H

2. M

5. M

3. B

6. N

Mustaqil topshiriq

Guruhlarga bo‘linib, “Kitobxon do‘stim”, “Men kichik tadbirkorman”, “Yosh ekolog” mavzularidan birini tanlab, shu asosda o‘z loyihangiz taqdimotini tayyorlang.

YOSH TADQIQOTCHI

1. Tinglang.



2. O‘ylang va toping. Yozing.

10-sinf

bobom

Nobel

~~AQSH~~


sun‘iy intellektni

Emirhan Kurtulush

3500

Namuna 1. Emirhan Kurtulush **AQSH**da o‘tkazilgan tanlovda birinchi o‘rinni oldi.

1. Emirhan Kurtulush ____ da o‘tkazilgan tanlovda birinchi o‘rinni oldi.
2. 16 yoshli Emirhan Kurtulush ____ ____ ishlab chiqdi.
3. Dekabr oyida bo‘lib o‘tadigan ____ mukofoti marosimiga ham taklif qilindi.
4. Ushbu loyiha uchun ____ soatdan ortiq ishladim.
5. Men bu loyihani ____ o‘rtalarida boshlaganman.
6. Mening oilamdagi eng katta yordamchim ____ edi.



3. O‘qing.

“InnoWeek.uz–2021” xalqaro innovatsion g‘oyalari haftaligi doirasida “International Robotics Challenge–2021” robototexnika musobaqasi o‘tkazildi.

Ushbu xalqaro tanlovda 16 ta davlatdan 40 nafar turli millat vakillari ishtirok etdi.

Ushbu tanlovda Romitandagi “Barkamol avlod” bolalar maktabida tahsil olayotgan Jahongir Ramazonov ham qatnashdi.

Maktab to‘garagi a‘zosi Jahongir Ramazonov ushbu xalqaro tanlovda oliy o‘rinni egallab, oltin medalni qo‘lga kiritish bilan birga Turkiya davlatining Anqara shahridagi Ostin texnika universitetiga ham grant asosida o‘qishga qabul qilindi. Jahongir – Romitan tumanidagi 24-maktabning 11-sinf o‘quvchisi. Festivalda uning “Ofitsiant robot”, “O‘t o‘chiruvchi robot” va “Yo‘l tanlamas avtomodel” loyihalari hakamlarning e‘tirofiga sazovor bo‘ldi.

Jahongir – qo‘l mehnatini yengillashtiradigan 60 dan ortiq ixtirolar muallifi. Bo‘sh vaqtlarida ingliz va turk tillarini o‘rganadi.

Taylor Uilson 1994-yili tug‘ilgan. U – yadro sintezi reaksiyasi uchun mo‘ljallangan fuzor qurilmasini yaratgan dunyodagi eng yosh ixtirochi.

7 yoshida yorug‘likni o‘tkazuvchi detektor ixtirosi uchun “Intel” kompaniyasining xalqaro ilmiy-texnika yarmarkasida mukofot bilan taqdirlandi.

Taylor 2013-yilning fevral oyida “TED–2013” konferensiyasida yerosti yadro reaktorlarining parchalanishi haqida so‘zlab, barchani hayratga soldi. U ma‘ruzasida o‘zi yasagan ixcham yadro reaktori 50 MVt elektr energiyasi ishlab chiqarish xususiyatiga egaligi, uni 30 yilda bir marta to‘ldirish yetarli ekanini aytdi.



4. O‘ylang va toping. Gapiring.

T/r	Ma'lumotlar	To'g'ri ✓	Noto'g'ri ✗
1	Jahongir – Romitan tumanidagi 24-maktabning 11-sinf o'quvchisi.		
2	Teylor bo'sh vaqtlarida ingliz va turk tillarini o'rganadi.		
3	Teylor Uilson 1994-yili tug'ilgan.		
4	Yorug'likni o'tkazuvchi detektor ixtirosi uchun Teylor 10 yoshida "Intel" kompaniyasining xalqaro ilmiy-texnika yarmarkasida mukofotlanadi.		
5	Jahongir – qo'l mehnatini yengillashtiradigan 60 dan ortiq ixtirolar muallifi.		

5. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. *Bugungi kunda yurtimizda yoshlarimiz tomonidan ko'plab ixtirolar qilinyapti.*

1. bugungi, qilinmoq, kunda, ko'plab, ixtirolar, yoshlarimiz, yurtimizda, tomonidan.
2. Jahongir, qo'l, ishlamoq, mehnatini, mashina, yengillashtiradigan, ustida.
3. o'zining, yana, bosh, Teylor, bir, bo'lajak, ixtirosi, ustida, qotirmoq.
4. Robototexnika, Zembi, to'garagida, roboti, o'zining, ilk, chizmoq, maketini.
5. Yaponiyalik, etmoq, do'stlari, Suzuko, "Ixtirochi bolalar", festivalida, bilan, birga, ishtirok.

Mustaqil topshiriq

Siz qanday ixtiro qilmoqchisiz? Ixtirongizning rasmini chizing yoki maketini yasab keling.

ADABIY O‘QISH

BESH BOLALI YIGITCHA

(asardan parcha)

...Meni qishlog'imizdagi jamiki o'g'il bolalar yomon ko'rishadi, shuning uchun ham menga "besh bolali" deb laqab qo'yishgan. Besh bolali deyishlariga, rostini aytsam, uncha jahlim chiqmaydi. Nega desangiz, chindan ham roppa-rosa beshta ukam bor. Beshoviniyam o'zim katta qilganman, opam – traktorchi, urush boshlanganidan buyon kechasi-yu kunduzi dalada. Otam bo'lsa bola yupatishni hech bilmaydi, ukalarim yig'lagudek bo'lsa, to'nini yelkasiga tashlab sekingina guzarga jo'nab qoladi...

...Mana, opamning yigirmasini ham o'tkazib yubordik, ma'arakaga to'plangan odamlar ham tarqalib bo'lishdi. Mo'tabar opam idish-tovoqlarni naridan-beri yuvgan bo'ldi-da, u ham chiqib ketdi. Parpi buvam opamni ko'mgan kunimiz ertasiga ikki oyog'i shol bo'lib yotib qolgan. To'xta xolam ham kasal: nafasi qisypapti, erta-yu kech

yotgani-yotgan. Ukalarim bilan katta uyimizda o'tiribmiz. Otamni shu uydan kuzatgandik, opam bilan ham shu uyda vidolashganmiz...

...Detdomxona darvozasi oldida aravadan tusha boshladik. Roziq tog'am bilan Parpi buvam yuz-ko'zlarimizdan o'pishib, tez-tez xabar olib turishga va'da berib, Omon bilan Robiyaning "Bu yerda qolmaymiz!" deb chinqirib yig'lashlariga ham qaramay, ko'zlarini chirt yumib jo'nab ketishdi. O'zini yerga urib yig'layotgan Omonni men, undan battar faryod chekayotgan Robiyani O'ris xola ko'tarib oldi, ichkari kirdik. Hovli juda katta, gir atrofi g'ishtli imorat ekan. O'ris xola bizni hovlida qoldirib, o'zi bir chekkadagi pakana uylardan biriga kirib ketdi. Ko'z yumib ochguncha atrofimizni begona bolalar qurshab olishdi. Xuddi maymunnimi, ayiqning bolasinimi yoki undan ham qiziqroq biror narsani tomosha qilayotganday angrayib qolishdi. Bir xillari ko'zlarini katta-katta ochib, tilini chiqarib masxara qilayotgandek; bir xillari "voy bechoralar-ey", deb achinayotgandek; uchinchi bir xili, qani, sinchiklab qaray-chi, qaysi birini o'rtoqlikka tanlasam bo'larkan", deya boshdan oyog'imizga razm solishyapti. Yana bir xillari kiyim-boshimizga, bet-qo'limizni yuvgan-yuvmaganligimizga ham razm solayotganga o'xshaydi. Ular bo'lsa ozoda kiyinib olishgan, kiyim-boshlarida yamoq yo'q, bet-qo'llari ham sovunlab yuvilganga o'xshaydi. Qorinlari ham to'q bo'lsa kerak, ko'zlarida ovqat tashvishi sezilmayapti, yuzlari yiltirab, chehralari kulib turibdi...

...Ishonsangiz, shu paytda juda, juda ham xursandman. Bolalarning oldida sakrab-sakrab o'yinga tushvoray-tushvoray deb yugurib kelyapman. Oh, hozir opajonim tirik bo'lgandamidi! A'lo baho olganimni eshitib, "aqlligimdan o'rgilay" deb betlarimdan o'pgan bo'lardi...

Umrim bino bo'lib ona tilidan birinchi marta "a'lo" olishim. Qishlog'imizda uy ishlaridan bo'shab, tuzukroq dars qilolmasdim, bu yerda dumini xoda-xoda qilib ma'rab turgan sigir ham yo'q, hovli ham supurmaysan, jo'xori tuyib osh solish-u tomga sholi yoyishni ham o'ylamaysan, o'qiysan, o'qiysan, tamom-vassalom! Rostini aytsam, ilonboz samovar yaxshi bola ekan, xuddi qishloqdagi o'rtog'im Mahmudxonga o'xshab ketarkan, juda rahmdil, juda mehribon. Buning ustiga, hamma fanlardan faqat "a'lo" olib o'qiydi deng. Darslarni birga tayyorlaymiz. U-chi, agar ishonsangiz, muallimlardan ham ko'p biladi; anavi chap yonimda yotadigan Qoravoyni aytmaysizmi, o'zi qo'ng'izdek dum-dumalog'-u, lekin kallasi to'la bilim ekan. Qoravoy ham men bilan o'rtoq bo'lib qoldi. Sinfdan ham yonma-yon o'tiramiz, kechasi hovliga chiqquday bo'lsak ham, bir-birimizga sherik bo'lib chiqamiz.

– Besh bolali, – deydi ba'zan dars qilib o'tirganimizda, – menga qara.

– Nima deysan? – deb so'rayman.

– Darslaringni sal yetkazib olgin, keyin senga ham gorn chalishni o'rgatib qo'ya-man, xo'pmi? Og'zing katta, tomog'ing yo'g'on, sendan ajoyib gornchi chiqadi...

– Gorning nimasi?

– Men chalaman-ku, o'sha-da.

– Uni bizning qishloqda surnay deyishadi.

– Yo'q, bu surnay emas, gorn! Bildingmi?

– Bildim.

– O'rgataymi?

– Mayli.

Bir nafas o'tar-o'tmas berigi yonboshimda peshanasini jiyirib hisob ishlab o'tirgan samovar ham meni turtib qoladi:

– Besh bolali.

– Nima deysan?

– Kanikulda qayoqqa borasan?

- Bilmasam.
- Xo'p desang, bizning qishloqqa ketamiz.
- U yerda nima qilamiz?
- Qishloqning etagida kattakon ko'l bor, mazza qilib ilon ushlaymiz.
- Men ilondan qo'rqaman.
- Qo'rqma, ilon hech qachon birinchi bo'lib hujum qilmaydi.
- Qani, kanikul boshlanaversin-chi, – deb qo'yaman unga ham. Xullas, mana shu ikki o'rtog'imning yordami bilan men bugun ona tilidan a'lo oldim... Oh, hozir opa-jonimmi, otammi bo'larmidi! Ha, mayli, O'ris xolam bor-ku, suyunchining kattasini o'shandan olarman, o'zi a'lochilar qatoriga qo'shilgan kuning mukofotlayman degan edi-ku. Shuning uchun ham Qoravoy bilan Samovarni ortda qoldirib yugurib ketyapman. Atrofga qorong'i tushib qolgan, ammo mening dilim ravshan, qirqinchi chiroq yoqilgandek charog'on! Darvoza qorovuli – bir ko'zli amakining hoyhoylashiga ham qaramay eshikni sharaqlatib ochib, O'ris xolaning uyiga qarab yugurdim... E attang, eshigida shapaloqdek qulf osig'liq turibdi. Samovar bilan Qoravoy izma-iz yugurib kelishayotgan edi:
 - Yo'qmikan? – afsuslanib so'radi Samovar.
 - Oshxonadadir, – mening o'rnimga javob qaytardi Qoravoy, – ukalaring ham ko'rinmayapti-ku.
- Suyunchi olgani kechki ovqatdan so'ng chiqadigan bo'ldik, nega desangiz, kechikkan bolaga ovqat olib qo'yishmaydi. Bir yuz yetti bola stol atrofida bir vaqtda o'tirib, bir vaqtda turishimiz kerak...

Xudoyberdi To'xtaboyev

TAKRORLASH

6 Men kelajakda yetuk muhandis _____ .

7 Kitob — bizning _____ .

8 Ilon Mask kuniga nechta kitob o'qiydi?

5 Baliq _____ bilan tirik, odam _____ bilan _____ .

9 Sharqda kim birinchi bo'lib globusni yaratgan?

4 Suv bu — _____ .



10 Mirzo Ulug'bek kim bo'lgan?

3 Suvning tomchisi ham _____ .

11 Al-Xorazmiy qaysi fanga asos solgan?

2 Robot yasashni o'rgatadigan to'garak bu — _____ .

15 Quyosh batareyalari energiyani _____ _____ oladi.

12 Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgan o'zbek milliy taomi qaysi?

1 Uchuvchisiz uchish vositasi bu — _____ .

14 Televizor ko'rish uchun elektr energiyasi _____ .

13 Noyob o'simlik va hayvonlar haqida ma'lumot beruvchi kitob bu — _____ .


QANI, KETDIK!!!

4-chorak BORIGA BARAKA

DIQQAT! DIQQAT!

1. Tinglang.



2. O'qing.

1. Biz oilamiz bilan televizor ko'rayotgan edik. Maishiy texnika mahsulotlariga aksiya bo'layotgani haqidagi reklamani ko'rib qoldik. Unda yozilishicha, 2 ta xarid qilingan texnika uchun 3-buyum sovg'a tariqasida tekinga berilar ekan. Yaqinda yangi uyga ko'chib chiqqan edik. Oyim bu reklamani ko'rib juda xursand bo'ldilar. "Xayriyat, ulgurar ekanmiz. Aksiya tugashiga hali bir hafta bor ekan", – dedilar. Ikki kundan keyin maishiy texnika sotiladigan do'konga bordik. Do'konni topguncha biroz qiynaldik. U yerdan muzlatkich va kir yuvadigan mashina sotib oldik. Bizga sovg'a tariqasida elektr choynak berishdi.

2. Oyimga "Telegram" messengeri orqali bir reklama kelibdi. Unda bir do'konda bolalar kiyimlari uchun aksiya ketayotgani yozilgan ekan. Xarid qilingan kiyimlarga 30 foiz chegirma berilar ekan. Oyim singlim ikkimizni do'konga olib bordilar. Afsuski, chegirma muddati tugagan ekan. Shunday bo'lsa ham, kiyimlar sotib oldik.

3. O'ylang va toping. Yozing.

Matn raqamiga mos reklamani toping va juftlang.

(A)

Qaynoq chegirmalar mavsumi boshlandi. Endilikda siz "Bolajon" do'konida har bir kiyim uchun 30 foiz chegirmaga ega bo'lishingiz mumkin. 1 mln so'mdan ortiq qiymatdagi xarid uchun esa 200 ming so'mlik vaucher ham taqdim etiladi. Shoshiling, vaqt chegaralangan.

Manzil: Ko'ksaroy tumani, Oqtosh ko'chasi, 7-uy.

Ish vaqti: 8:00–20:00 gacha. Yakshanba – dam olish kuni.

- B** Maishiy texnika sotib olmoqchimisiz? “Texnodo’kon” – to’g’ri tanlov. Bu yerda siz istalgan turdagi maishiy texnika vositasini sotib olishingiz mumkin. Bizning mahsulotlarimiz sifatli va hamyonbop. Mijozlar uchun yangilik: endi siz 2 ta buyum xarid qiling va biz 3-sini sizga sovg’a qilamiz.

Aksiya muddati 1-martdan 22-martgacha.

Manzil Baraka ko’chasi.

Ish vaqti Har kuni 8:00–22:00 gacha.

4. O’ylang va toping. Yozing.

Matn va reklamani diqqat bilan o’qib chiqing. Reklamadagi kamchiliklarni topib, yozing.

5. O’ylang va toping. Yozing.

1-matn bo’yicha:

1. Oilaga televizor va muzlatkich kerak edi.
2. Birinchi oilaga bonus tariqasida choynak sovg’a qilindi.
3. Maishiy texnika xarid qilishgandan 5 kun o’tib, aksiya tugadi.
4. Maishiy texnika haqidagi e’lonni qaysi sanada ko’rishdi va qaysi kuni sotib olishdi?

2-matn bo’yicha:

5. “Bolalar” kiyim do’koni aksiya e’lon qilgan edi.
6. Bolalar kiyimlari sotiladigan do’konda 2 ta kiyim sotib olinsa, 3-si tekinga berilar edi.
7. Kiyim do’konida 30 foizlik chegirmadan tashqari yana boshqa aksiya ham bor edi.
8. Aksiya tugagan bo’lsa ham, kiyimlar xarid qilishdi.

6. O’qing.

xayriyat

afsus

attang

DIQQAT QILING!



Xayriyat



Afsus, attang

Namuna 1. Piyola qo’limdan sirpanib tushib ketdi, xayriyat, sinmadi.

1. Piyola qo’limdan sirpanib tushib ketdi, ____, sinmadi.
2. ____, bugun muzeyga borolmas ekanmiz.
3. ____, imtihondan a’lo baho oldim.
4. ____, olgan qovunimizning ta’mi shirin ekan.
5. Bugun juda qattiq shamol bo’ldi. ____, daraxtlarning gullari to’kilib ketdi.
6. Shu kitobni juda o’qigim kelayotgan edi, ____, sotilib ketmabdi.
7. ____, bu safar ham musobaqada g’olib bo’lolmading.
8. U juda tez yugurib ketayotgan edi, ____, yiqilmadi.

Mustaqil topshiriq

O’zingiz yoqtirgan buyumning reklamasi matnini A4 o’lchamdagi qog’ozga yozing. Dizaynini ham yarating.

“KO‘NGIL KO‘ZI” AKSIYASI

1. O‘qing.

albatta, shaksiz ehtimol, chamasi, shekilli, xo‘sh, yo‘g‘-e, yaxshi

- Alisher, men bir narsani o‘ylab qoldim. Sen nima deysan?
- Xo‘sh, Ra‘no, nimani o‘ylading?
- Sinfimizda aksiya tashkil qilsak degandim. Turli xil audio kitoblar va sport anjomlari sotib olardik. Ularni ko‘zi ojiz tengdoshlarimizga yuborar edik.
- Albatta, juda yaxshi o‘ylabsan. Buni faqat sinfimiz bilangina emas, maktabda o‘tkazishimiz ham mumkin. Buning uchun ustozimizdan yordam so‘raymiz. Bu g‘oya senda qayerdan paydo bo‘ldi?
- Kecha televizorda “Ko‘ngil ko‘zi” loyihasida “Sovg‘alar karvoni” xayriya aksiyasi Namanganga yo‘l olishi haqida ma‘lumot berishdi. Bu aksiyaga men ham o‘z hissamni qo‘shgim keldi.

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

albatta

ehtimol

Namuna 1. Xayriya aksiyasi nima ekanini bilasizmi?

Albatta, aksiya nima ekanini bilamiz.

1. Xayriya aksiyasi nima ekanini bilasizmi?
2. Ko‘rishda nuqsoni borlarga bag‘ishlangan aksiyadan tashqari yana boshqa aksiyalar bormi?
3. Aksiyada yana nimalarni sovg‘a qilish mumkin?
4. Maktabingizda ham aksiyalar tashkil qilib turiladimi?
5. Brayl alifbosi haqida bilasizmi?

3. Tinglang.



4. O‘ylang va toping. Gapiring.

T/r	Ma'lumotlar	To'g'ri ✓	Noto'g'ri ✗
1	“Ko'ngil ko'zi” xayriya aksiyasi eshitishida nuqsoni borlar uchun tashkil qilingan.		
2	Aksiya haqida Ra'no ma'lumot berdi.		
3	Aksiya Navro'z bayramida o'tkaziladi.		
4	“Ko'ngil ko'zi” 2019-yildan boshlab o'tkaziladi.		
5	Aksiya doirasida ko'z nuri tiklanishi mumkin bo'lgan bolalarda bepul jarrohlik amaliyoti ham o'tkazadi.		

5. O‘ylang va toping. Yozing.

shubhasiz

albatta

chamasi

shekilli

yaxshi

Namuna Ular, **albatta**, yordam berishlarini aytdilar.

Ustozimiz bilan aksiya haqida suhbatlashdik. Ular, _____, yordam berishlarini aytdilar. _____, bu aksiyada ota-onalar ham ishtirok etishardi. Anvarning dadasi sport kiyimlari ishlab chiqaradigan fabrikada ishlaydi. U bolalar uchun sport kiyimlari sovg'a qilmoqchi _____. Sobir bugun audio kitoblarni qayerdan topish mumkinligini so'radi. _____ u audio to'plam hadya qilmoqchi. “_____ , unda men o'zim yasagan o'yinchoqlarni taqdim etaman”, – dedi Ra'no. _____ , barchamiz xayriya aksiyasida ishtirok etishimizdan mamnunmiz.

6. O‘ylang va toping. Gapiring.



“Maktabda” mavzusida dialog tuzing. *Xo'sh, yaxshi, yo'g'-e, albatta, ehtimol* so'zlaridan foydalaning.

Mustaqil topshiriq

“Mehr nuri” nomli matn tuzing.

MAKTABDAGI AKSIYA

1. O'qing.



Alisher:

– Salom, qadrdonlarim! Ahvollaringiz yaxshimi? Biz o'tgan hafta sinfdoshlarimiz bilan ko'zi ojiz tengdoshlarimizga sovg'alar aksiyasini tashkil qildik.

Danil:

– Qanday yaxshi! Men ham bu haqda sinfdoshlarimga aytсам bo'lar ekan.

Alisher:

– Shu aksiyadan keyin maktabimizda yana yangi aksiya tashkil qilinyapti.

Zembi:

– Xo'sh, qanday aksiya ekan? Bizlarga ham aytib ber-chi.

Alisher:

– Rasmlar aksiyasi tashkil qilinyapmiz. Bizga turli xil mavzular taqdim etildi. Shu mavzularga oid rasmlar chizamiz.

Maks:

– Demak, yangi aksiyada ishtirok etarkansan-da.

Alisher:

– Albatta! Bu haqda keyinroq batafsil xat yozaman.

2. Tinglang.



3. O'ylang va toping. Yozing.

1. O'zim uchun yangidan yangi *iqtidorlarni* kashf etdim.

A) bilimlilarni B) iste'dodlarni C) aqllilarni

2. Ra'no tasvirlagan faslni yana qanday atash mumkin?

A) fasllar kelinchagi B) kumush choyshab C) oltin fasl

3. Mehmonlar o'zlariga yoqqan rasmlarni *sotib olishi* ham mumkin ekan.

A) olib ketmoq B) qabul qilmoq C) xarid qilmoq

4. O'ylang va toping. Gapiring.

Men sizlarga varrak yasashni o'rgatmoqchiman. (*Avvalo, albatta*), bizga qog'oz, qamish cho'plar, ip, qaychi, qalam va yelim kerak bo'ladi.

Ishning tartibi quyidagicha:

Birinchi, qog'ozni olamiz. Kerakli o'lchamda kesib olamiz.


Ikkinchi, _____

Uchinchi, _____

(*Xullas, ehtimol, demak*), varrak tayyor.

DIQQAT QILING!

xullas, demak, avvalo, birinchidan, ikkinchidan



5. O'ylang va toping. Yozing.

Berilgan raqamlar ortidagi Jon Miltonning hikmatli so'zini toping. Topishda lotin alifbosidan foydalaning. Tahlil qiling.

21	1	16	19	–	3	20	13	23	14	3	1	20	13	3	1	13	20	24	20	13
20	13	3	1	13	16	8	18	16	1	13	1	17	18	1	23	25	16			

Mustaqil topshiriq

Kema yasash uchun nima kerakligi va ish jarayonining tartibini yozing.


BARAKASINI BERSIN

1. Tinglang



2. Savollarga javob bering. Yozing.

1. Yuqoridagi audiomatnda qanday mantiqiy nomuvofiqliklarni sezdingiz?
2. Poliz rastasida qanday mahsulotlar sotiladi?
3. Sizningcha, mevalar rastasidan handalak sotib olish mumkinmi?
4. Sabzavotlar rastasidan qanday mahsulotlarni olamiz?



3. O'ylang va toping. Yozing.

An'anaviy bozor

Afzalliklari	Kamchiliklari

Internet bozor

Afzalliklari	Kamchiliklari

Qaysi bozorda aksiyalar ko'proq o'tkaziladi?



4. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna KIYIM BOZORI

DIQQAT QILING!

xo'p, mayli, menimcha,
to'g'ri, yo'q

A	Q	E	D	V	U	K	B	K	M
Q	A	N	O	F	I	I	U	M	A
U	R	O	S	E	B	Y	Y	U	SH
R	T	N	U	K	P	I	U	G	I
I	O	A	Z	I	N	M	M	I	N
L	G	L	U	T	A	F	A	L	A
I	U	O	N	O	N	A	F	R	E
SH	L	U	M	B	E	R	A	X	M
L	H	K	T	E	X	N	I	K	A
S	S	O'	Y	I	N	CH	O	Q	I

5. O'qing.

Dadasi:

– O'g'lim, mana shu 50 ming so'm pulni olib, bozordan non, yog', guruch olib kel.

Alisher:

– Xo'p bo'ladi, dadajon.

Alisher do'konga keldi. Sotuvchini oldiga bordi.

Alisher:

– Assalomu alaykum! Menga non, yog' va guruch kerak.

Sotuvchi:

– Va alaykum assalom! Juda yaxshi.

Alisher:

– Yog' necha pul?

Sotuvchi:

– 17 ming so'm.

Alisher:

– Amaki, guruch va non necha pul bo'lyapti?

Sotuvchi:

– Non 2000 so'm, guruch esa 11 ming so'm.

Alisher:

– Katta rahmat!

Sotuvchi:

– Salomat bo'l.

Alisher dadasiga necha pul qaytim olib keldi?



6. O‘ylang va toping. Yozing.

1. Aytinglar-chi, Alisher qancha xarajat qildi?
2. Dadasi bergan pulning hammasini sarfladimi?





Mustaqil topshiriq

“Bozorda” mavzusida matn tuzing. Matnda *xo‘p, mayli, albatta, xo‘sh, to‘g‘ri, yo‘q* so‘zlaridan foydalaning.


BOLALARGA BERING DUNYONI

1. Tinglang.



2. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Sizga qaysi yozuvchi yoki shoirning kitoblari yoqadi?
2. Kitobxonlikni targ‘ib qiluvchi qanday aksiyalarda ishtirok etgansiz?
3. “Kitob – eng yaqin do‘st, dono maslahatchi” deganda nimani tushunasiz?
4. Ko‘p kitob o‘qigan bola bilan kitob o‘qimaydigan bolaning farqi bormi?




3. O‘ylang va toping. Yozing.

Rasmlar sizga qaysi asarlarni eslatyapti? Asar nomini muallifi bilan yozing.

①





②



③






A) Xudoyberdi To‘xtaboyev
C) Hans Kristian Andersen

B) Aleksandr Sergeyevich Pushkin
D) Jyul Vern

4. O‘qing.



Dunyodagi eng og‘ir kitob Britaniya muzeyida saqlanayotgan XVII asrga oid geografik atlasdir. Uning bo‘yi 1,9 metr, og‘irligi 320 kilogrammdir.



Dunyodagi eng katta lug‘at “Nemis lug‘ati” (“Deutsches Wörterbuch”) bo‘lib, u 1854-yili Yakob va Vilgelm Grimmlar tomonidan yozila boshlangan. Bu ishga keyinchalik turli olimlar hissa qo‘shgan. 33 jildli ushbu lug‘at 34519 betdan iborat.



Jamoa bilan kitobni ovoz chiqarib o‘qish bo‘yicha eng uzoq davom etgan marafon 224 soat kechgan.

5. O‘ylang va toping. Yozing.

1. **Dunyodagi eng og‘ir kitob qayerda saqlanadi?**

- A) Luvr muzeyida B) Britaniya muzeyida
C) Ermitaj muzeyida D) Metropoliten muzeyida

2. **Dunyodagi eng katta lug‘at necha sahifadan iborat?**

- A) 34539 B) 43539 C) 34519 D) 34195

3. **Dunyodagi eng katta lug‘at qaysi davlatga tegishli?**

- A) Germaniya B) Buyuk Britaniya C) Rossiya D) Xitoy

4. **224 soat davom etgan musobaqa qaysi yo‘nalish bo‘yicha o‘tkazilgan?**

- A) uzoq masofaga yugurish B) jamoa bo‘lib qo‘shiq kuylash
C) jamoa bilan kitobni ovoz chiqarib o‘qish D) mashinkada harf terish

6. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *Balki, sizga ham oyingiz yoki buvijoningiz “Bo‘g‘irsoq” ertagini aytib bergandir.*

DIQQAT QILING!

balki, albatta,
ehtimol, afsus

Bolalikni ertaklarsiz tasavvur qilish qiyin. (*Balki, darhaqiqat*), sizga ham oyingiz yoki buvijoningiz “Bo‘g‘irsoq” ertagini aytib bergandir. Bu ertakni eshitganimda bo‘g‘irsoqqa juda achinganman. (*Ehtimol, demak*), siz ham achingandirsiz. Ayting-chi, nega ertakning oxiri bunday yakun topdi?

“Oltin baliq” ertagi ham juda qiziqarli. (*Albatta, attang*), uni eshitgansiz. (*Afsus, xayriyat*), ertakning oxirida cholning uyi yana eski bo‘lib qoladi-da.

Ayting-chi, baliq oviga borganmisiz? Siz ham oltin baliq tutib olsangiz, undan nima so‘ragan bo‘lar edingiz?

Mustaqil topshiriq

Yoqtirgan kitoblaringiz qahramonlarini chizing.

MAKTABDAGI KIMOSHDI SAVDOSI REJASI

1. O‘qing.

Salom, Agata! O‘qishlaring yaxshimi? Mening ishlarim va o‘qishlarim yaxshi. Yaqinda do‘stlarimiz bilan yangi loyiha ishlab chiqdik. Loyihamizni amalga oshirish uchun bizga mablag‘ kerak bo‘lyapti. Bu haqida uzoq o‘yladik va do‘stim Anvar maktabda kimoshdi savdosi o‘tkazish taklifini berib qoldi. Biz sinfdoshlarimiz bilan robototexnika to‘garagida yasagan narsalarimizni kimoshdiga qo‘ymoqchimiz. Kimoshdi savdosida ota-onalarimiz ishtirok etadilar. Sizlarda ham shunday kimoshdi savdolari o‘tkaziladimi?

Kimoshdi savdosi o‘tgandan keyin, albatta, natijasi bilan bo‘lishaman.

Hurmat bilan o‘zbekistonlik do‘sting Alisher.

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Kimoshdi savdosi haqida eshitganmisiz?
2. Bolalar nima uchun kimoshdi savdosi o‘tkazishga qaror qilishdi?
3. Kimoshdi savdosida ular nimalarni sotmoqchi?
4. Kimoshdi savdosida kimlar ishtirok etadi?

DIQQAT QILING!



Maktabda kimoshdi savdosini o'tkazamiz.



Anvar maktabda kimoshdi savdosini o'tkazishimiz haqida aytdi.


3. O'ylang va toping. Yozing.

Namuna "Xo'sh, qanday yangiliklar bor?" – deb so'radi O'ktam.
O'ktam qanday yangiliklar borligini so'radi.

1. "Kimoshdi savdosini qaysi kuni o'tkazamiz?" – deb so'radi Zumrad.
2. "Kelasi shanba kuni maktab faollar zalida kimoshdi savdosi o'tkaziladi", – dedi Alisher.
3. "Kimoshdi savdosida mening bobom ham ishtirok etadi", – dedi Botir.
4. "Kimoshdi savdosida men ham yasagan robotimni sotuvga qo'yaman", – dedi faxrlanib Dilshod.
5. "Sinfirmiz qizlari zardo'zi mahsulotlari bilan qatnashadi", – dedi Yulduz.

4. Tinglang.

5. O'ylang va toping. Yozing.



Mustaqil topshiriq.

Sinfda o'quvchilar bilan aukcion tashkillashtiring. Sinf aukcionida qatnashish uchun o'zingiz tayyorlagan mahsulotni olib keling.

KIMOSHDI SAVDOSI TARIXI

1. O‘qing.

O‘quvchilar orziqib kutgan kun keldi. Maktab faollar zalida o‘quvchilar tomonidan ilk marta tashkil etilayotgan kimoshdi savdosi boshlandi. Birinchi bo‘lib Zumrad zardo‘zlik to‘garagida tikkan zardo‘zi do‘ppi sotuvga qo‘yildi. O‘quvchilar mahsulotlar narxini kimoshdi savdosi shartiga ko‘ra boshlang‘ich narxni mahsulotga ketgan xomashyolar narxidan kelib chiqib belgilashgan edi. Do‘ppi qatnashchilarga juda ham yoqdi va do‘ppini Dilshodning dadasi yaxshi narxga sotib oldi. Shu tariqa, mahsulotlar auksioni qiziqarli va qizg‘in davom etdi. Auksion so‘ngida Dilshodning ixtirosi bo‘lgan dars jadvali bo‘yicha ma‘lumot beruvchi, qiziqarli latifalar aytib beruvchi robot ham sotuvga qo‘yildi. Barcha ota-onalar bu ixtiroga qoyil qolishdi. Farzandlarini albatta robototexnika to‘garagiga berishlarini aytishdi. Robot juda qizg‘in bahslashuvlar natijasida Botirning bobosiga sotildi. U bundan juda baxtivor ekanini kimoshdi savdosi oxirida gapirib o‘tdi. Bolalar ko‘zlaganlaridan ham ko‘proq mablag‘ga ega bo‘lishdi. Maktab ma‘muriyati va ota-onalar bunday kimoshdi savdolarini tez-tez o‘tkazib turishga kelishib oldilar.

2. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *Maktab ma‘muriyati va ota-onalar bunday kimoshdi savdolarini tez-tez o‘tkazib turishga kelishib oldilar.
“Bunday kimoshdi savdolarini tez-tez o‘tkazib turamiz”, – deb ota-onalar va maktab ma‘muriyati kelishib oldilar.*

1. Maktab ma‘muriyati va ota-onalar bunday kimoshdi savdolarini tez-tez o‘tkazib turishga kelishib oldilar.
2. Botirning bobosi robot sotib olganidan juda baxtivor ekanini aytib o‘tdi.
3. Barcha ota-onalar farzandlarini robototexnika to‘garagiga berishlarini aytishdi.
4. Dilshodning dadasi do‘ppi juda ham did bilan tikilganini aytdi.

3. Tinglang.



4. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Kimoshdi savdolari nechanchi asrdan boshlab o‘tkazila boshlagan?
2. Birinchi auksion qaysi qit‘ada o‘tkazilgan?
3. Narxni oshirish usulida o‘tkaziladigan auksion qaysi davlatga xos?
4. Hozirgi kunda auksionning ikki xil turidan asosan qaysi biri o‘tkaziladi?
5. Maktab o‘quvchilari o‘tkazgan auksion kimoshdi savdosining qaysi turiga mansub?
6. Nima deb o‘ylaysiz: maktabda o‘tkazilgan kimoshdi savdosi talabga javob berdimi? Faktlarni keltiring.

5. O‘ylang va toping. Yozing.

g	d	z	c	a	v	b	n	m	l	j
o	a	u	k	s	i	o	n	g	j	h
l	q	e	i	s	r	t	y	u	i	o
l	t	y	m	i	o	v	o	z	l	i
a	f	g	o	s	a	v	d	o	h	p
n	d	f	sh	t	v	b	n	h	g	f
d	p	o	d	e	u	o	u	o	u	y
i	c	v	i	n	t	e	r	n	e	t
y	o	b	t	t	e	r	q	o	p	l
a	n	g	l	i	y	a	ch	a	h	j

Mustaqil topshiriq

Kimoshdi savdosi o‘tkazilayotgan jarayonni tasvirlab dialog tuzib keling.

JAVOB XATI

1. O‘qing.

Salom, Alisher! Yozgan ikkala xatingni ham oldim. Ishlaring va o‘qishlaring yaxshi ekanidan xursandman. Men ham yaxshiman. Shu kunlarda imtihonlarim bor. Astoydil tayyorlanyapman. To‘g‘risi, yozgan xatlaringni o‘qib, men ham sizlar bilan birga bo‘lib qolgim keldi. Xatingni do‘stlaringga ham o‘qib berdim. Kimoshdi savdosi o‘tkazib, loyihalaringiz uchun mablag‘ yig‘ganlaringiz bizni ruhlantirdi. Biz ham sinfimiz o‘quvchilari bilan aynan shunday kimoshdi savdosi o‘tkazib, o‘z fondimizni yaratmoqchimiz. Bu topgan mablag‘larimizdan yordamga muhtoj bolalarga yordam beramiz. “Xalqaro bolalar fondi”ga o‘z hissamizni qo‘shamiz. Jamoa bilan ishlash insonga zavq bag‘ishlaydi. O‘ylaymanki, bunday kimoshdi savdosini endi tez-tez o‘tkazib turasizlar. Biz ham shunga kelishdik. Ishlaring va o‘qishlaringga muvaffaqiyatlar tilayman.

Hurmat bilan angliyalik do‘sting Agata.

2. O‘ylang va toping. Gapiring.

Namuna – Salom, Alisher!
 – Salom, Agata!
 – Ishlaring yaxshimi?
 – ...



3. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. Kichik – katta.

			k				
			i				
			m				
			o				
			sh				
			d				
			i				

1. Kichik.
2. Tez.
3. Qattiq.
4. Qora.
5. To‘la.
6. Past.
7. Yo‘g‘on.

4. O‘ylang va toping. Gapiring.



5. O‘ylang va toping. Gapiring.


1. Agar sizni kimoshdi savdosida ishtirok etishga taklif qilishsa, qanday mahsulot bilan qatnashgan bo‘lar edingiz?
2. Siz tanlagan mahsulotning tannarxi qancha turadi?
3. Do‘stlaringiz orasida biror mahsulotni taklif qiladigan o‘quvchilar bormi?
4. Kimoshdi savdosi haqida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘ldingizmi?
5. Yana nimalarni bilishni xohlar edingiz?

Mustaqil topshiriq

Kimoshdi savdosi orqali sotilgan san‘at asarlari haqida bilib keling.

QIMMATBAHO KITOB

1. O‘qing.



Dunyodagi eng qimmatbaho kitob bu – Leonardo da Vinchi tarafidan yozilgan “Lester Kodeksi” kitobidir. Bu kitobning hozirgi egasi amerikalik milliarder Bill Geyts hisoblanadi. Bill Geyts kitobni 1994-yili kimoshdi savdosida 30,8 million dollarga sotib olgan.



“Nomsiz” asari Say Tvombil tomonidan 1969-yilda chizilgan. Suratda kanopdan to‘qilgan mato, moy, mumli qalam, grafit, flomaster ishlatilgan. Asar 2020-yil 6-oktyabrda kimoshdi savdosida 38 million 685 ming dollarga sotilgan.



Pushkinning “Yevgeniy Onegin” asarining birinchi nashri 1825-yilda Sankt-Peterburg nashriyotida chop etilgan. Bu asar London kimoshdi savdosida 582000 dollarga sotilgan. U belgilangan narxidan 3 barobar qimmatga sotilgan asardir.



2. O‘ylang va toping. Yozing.

1. Danil maktabda o‘tkazilgan kimoshdi savdosida dadasi qatnashganini ... (*aytdi, bordi*).
2. Agata menga kimoshdi savdosida Zumradning zardo‘zi do‘ppisi sotilgani haqida ... (*gapirdi, bildi*).
3. O‘qituvchimiz kimoshdi savdosi muvaffaqiyatli o‘tganini (*kuyladi, gapirdi*).
4. O‘tkazilgan kimoshdi savdosi haqida Agataga xat yozganini (*aytdi, o‘qidi*).
5. Danil Pushkinning “Yevgeniy Onegin” asari 528000 dollarga sotilgani haqida (*aytdi, o‘ynadi*).





3. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna 1. *Ilm dargohi – maktab.*

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
M											

1. Ilm dargohi.
2. Samolyot boshqaruvchisi.
3. Ikki g‘ildirakli transport.
- 4, 7, 11. Kimoshdi savdosi.
- 5, 6. Faqat oyoq bilan o‘ynaladigan to‘p o‘yini.
8. Olmos, yoqut qanday toshlar hisoblanadi?
9. Yer yuzasining biror joyidagi ob-havoning ko‘p yillik rejimi.
10. Biz yashayotgan sayyora.
12. “Bo‘g‘irsoq” ertagida bo‘g‘irsoqni yeb qo‘ygan o‘rmon jonivori.

4. Tinglang.




5. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Siz haftasiga necha soat kitob o‘qiysiz?
2. Qanday kitoblar o‘qishga qiziqasiz?




Mustaqil topshiriq

1. Kitobcha tayyorlash texnologiyasini uyda bajarib ko‘ring.



2. 2, 7, 3, 9 raqamlarining har birining orqasiga qaysi raqamlar to‘g‘ri keladi?
1, 4, 5, 8 raqamlarini chap tomondagi katakchalar ichiga yozing. O‘ylaymizki, sizlarda sahifalar raqamlari ketma-ket keladi. Tasavvuringizni ishga solib topshiriqni bajaring.



“KIMOSHDI” MUSOBAQASI

1. O‘qing.

O‘qituvchi:

– Assalomu alaykum, bolalar! Bugun sizlar bilan “Kimoshdi” musobaqasini o‘tkazamiz?

Davron:

– Assalomu alaykum, ustoz! Bu qanday musobaqa? Biz uchun juda qiziq.

Yulduz:

– Maktabda o‘tkazilgan kimoshdi savdosi kabi nimadir taklif beramizmi?

O‘qituvchi:

– Yo‘q, bu gal taklifni men beraman. Sizlar esa uni mehnatingiz, aql-u zakovat-ingiz hisobiga “sotib” olasiz.

Alisher:

– Biz kimoshdi savdosida ishtirok etamizmi, qanday yaxshi!

Davron:

– Bilasizmi, ustoz, men katta bo‘lsam, kimoshdi savdosida ishtirok etmoqchiman va noyob kitoblarni sotib olaman.

Akmal:

– Men esa avtomobillarga qiziqaman, eng qimmat avtomobilni sotib olaman.

O‘qituvchi:

– Juda yaxshi. Bugun esa yil davomida foydalanish uchun “Olimpiada masalalari” kitobini bilimingiz bilan “sotib” olishingiz mumkin.

(Zumrad anchadan buyon ota-onasidan olib berishlarini so‘ramoqchi bo‘lib yurgan kitobi kimoshdiga qo‘yilishini eshitib juda xursand bo‘lib ketdi.)

O‘qituvchi:

– Boshladikmi? Mana o‘tilgan mavzular yuzasidan misol va masalalar. Kim birinchi bo‘lib xatosiz ishlab topshirsa, “Kimoshdi”da yutib chiqadi.

(Bolalar bir ovozdan taklifni ma‘qulladilar va misol yechishga kirishib ketdilar. Zumradning maqsadi shu kitobni qo‘lga kiritish edi. Bu ishga jiddiy kirishdi. U topshiriqni hammadan birinchi bajardi.)


O‘qituvchi:

– Barakalla, Zumrad! Sen hammadan o‘zib ketding. Topshiriqni to‘g‘ri va tez bajarding. Bu kitob seniki. Bugungi “Kimoshdi” musobaqasida Zumrad barchangizdan oshdi va kitobni qo‘lga kiritdi. Uni hammamiz tabriklaymiz.

2. O‘ylang va toping. Gapiring.


1. Sizda ham “Kimoshdi” musobaqasida qatnashish istagi paydo bo‘ldimi?
2. Bu musobaqani kimoshdi savdosining qaysi turiga o‘xshatdingiz?
3. O‘quvchilar nimaning evaziga bugungi musobaqa ishtirokchisi bo‘ldilar?
4. Siz kelajakda qaysi kimoshdi savdosida qatnashgan bo‘lar edingiz?
5. Maktabingizda “Kimoshdi” musobaqasiga o‘xshagan tadbirlar o‘tkazib turiladimi?

3. O‘ylang va toping. Yozing.



4. Tinglang. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Devorga qo‘ngan qushim:
Ba‘zilari bir qanot,
Ba‘zilari qo‘sh qanot.
2. Bir do‘stim bor ajoyib:
Agar kim unga boqsa,
Kulib boqar iljayib.
3. Tepdim, tepdim,
Tepaga chiqdim.
4. Oyog‘i yo‘q, yuradi,
Og‘zi yo‘q, gapiradi.



Mustaqil topshiriq

“Mening orzum” mavzusida matn yozib keling.

ADABIY O‘QISH

HAQIQIY G‘OLIB

Bir qirol xalqi uchun yo‘l qurishga qaror qilibdi. Xalqqa yo‘lni ko‘rsatishdan oldin esda qolarli bir musobaqa uyushtirishni istabdi. Musobaqa shartiga ko‘ra, yo‘lni munosib tarzda bosib o‘tgan odam mukofotlanardi. Poygada g‘olib bo‘lishni xohlaydigan tumonat odam yig‘ildi. O‘sha kuni yo‘lni bosib o‘tgan odamlar qirolga bir narsadan shikoyat qilibdilar, ya‘ni yo‘lning bir burchagida kattagina tosh va tuproq uyumi harakatlanishga noqulaylik tug‘dirganmish. Kun nihoyasida yolg‘iz bir yo‘lovchi marra chizig‘iga horib-charchab yetib kelibdi. Usti-boshi loy, tuproqqa belangan, ammo qirolga bebaho sovg‘a bilan yuzlanibdi: u oltin to‘la ko‘za uzatibdi.

– Yo‘lda tosh va tuproq uyumiga duch keldim. Odamlarga qulay bo‘lsin deb o‘sha to‘siqlarni olishga urindim. Tosh ichidan oltinga to‘la shu ko‘za chiqdi. Oltinlarni sizga olib keldim.

Qirol kulib javob beribdi:

– Bu oltinlar seniki!

– Yo‘q, meniki emas. Mening hech qachon buncha ko‘p boyligim bo‘lmagan.

– Ha, – dedi qirol. – Bu oltinlarga sen ega chiqding, musobaqa g‘olibi sensan! O‘z yo‘lni munosib bosib o‘tgan kishi sensan! Yo‘lni to‘siq-g‘ovdan bartaraf etgan kishi haqiqiy g‘olibdir!

1. O‘ylang va toping. Gapiring.

1. Qirol qanday musobaqa uyushtirdi?
2. Nima uchun ko‘pchilik musobaqaning boshidan taslim bo‘ldi?
3. Musobaqada kim marraga yetib keldi?
4. Yo‘lovchi marraga qo‘lida nima bilan keldi?
5. Qirolning musobaqa so‘ngida chiqargan qarori to‘g‘rimi?
6. Siz ham shunga o‘xshash vaziyatlarga duch kelganmisiz yoki shunga o‘xshash voqealarni eshitganmisiz?

2. O‘ylang va toping. Yozing.

T/r	Ma'lumotlar	To'g'ri ✓	Noto'g'ri ✗
1	Qirol yo'l qurishga qaror qildi.		
2	Tekis yo'l hammani xursand qilgan edi.		
3	Yo'l yomon bo'lishiga qaramasdan, hamma marraga yetib bordi.		
4	Yo'lovchi yo'ldan oltin topib oldi.		
5	Qirol xalqining mehnatkash ekanligidan quvondi.		
6	Qirol oltinlar xalqniki ekanini aytdi.		
7	Yo'lovchi oltinlarni qirolga olib keldi.		
8	Qirol oltinlarni haqiqiy g'olibga berdi.		

Mustaqil topshiriq

Hikoya yuzasidan xulosangizni yozma bayon qiling.

MENING LOYIHAM

1. O‘qing.

Hozirgi davr bolalari juda ham iqtidorli. Ular turli xil sohalarga qiziqadilar. Maktab davridayoq bolalar o‘z orzusini amalga oshirish uchun turli loyihalar o‘ylab topadilar. Bu loyihalarning nafaqat bolaning o‘ziga, balki tabiatga, Vatanga, oilaga ham foydasi bor. Avval aytganimizdek, arxitektor bo‘lishni xohlagan bolalar qushlar uchun ajoyib uychalar yasab, ularni daraxtlarga ilishdi. Bu bilan ular o‘zlarining loyihalarini amalga oshirdilar. Tabiatimizdagi qushlarni asrashga o‘z hissalarini qo‘shdilar.

Ba’zi o‘quvchilar kasalxonadagi og‘ir xastalikka chalingan bolajonlar bilan “Kelajakda men...” mavzusida rasm chizdilar. So‘ng bu rasmlardan ko‘rgazma tashkil qildilar. Hatto eng yaxshi rasmlarni auksionga qo‘ydilar. Tushgan pullarni bolajonlarning davolanishi uchun berdilar. Tadbirkorlikni tanlagan o‘quvchilar bolalarda kelajakka umid uyg‘otdilar. Bunday loyihalar juda ko‘plab uchraydi. Quvonarlisi shundaki, uddaburon bolalar o‘z manfaatlari uchun qayg‘urmadilar, balki bemorlarga yordam berdilar. Kelajak tadbirkorlari bundan ham yaxshi loyihalarni amalga oshirishlarini his qildilar.

DIQQAT QILING!

-sa

Men	bormoq +sa	-m	Biz	bormoq +sa	-k	
Sen		-ng			Siz	-ngiz
U		-			Ular	-lar

iqtdor
soha
og'ir xastalik
bemor
uddaburon
manfaat
qayg'urmoq

2. Yozing.

1. Men maktabni tugat..., Iqtisodiyot universitetiga o'qishga kiranman.
2. Agar loyihamizni yozib tugat..., tanlovda ishtirok eta olamiz.
3. Agar sen astoydil harakat qil..., maqsadingga erishasan.
4. Loyihamni maktab direktori tasdiqla..., uni amalga oshiramiz.
5. Ular olimpiadada g'olib bo'l..., xalqaro turnirda qatnashadilar.

3. O'ylang va toping. Yozing.

kelsa

tursa

qilsa

o'qisa

bo'lsa

kelsa

1. Yoz ____, bolalar ta'tilga chiqadilar.
2. Harakat ____, loyiha amalga oshadi.
3. O'quvchi vaqtli ____, maktabga kech qolmaydi.
4. Bola ko'p kitob ____, aqlli bo'ladi.
5. Havo bulutli ____, yomg'ir yog'adi.
6. Boshingga qilich ____, ham, rost gapir.

4. Tinglang. O'ylang va toping. Gapiring.



5. Savollarga javob bering.

1. Rayan Ross ilk millionlarini topganida sizdan katta edimi yoki kichik edimi?
2. “80-10-10” qoidasi biznes uchun muhimmi?
3. Rayan Rossni biznesda kim qo'llagan? Bunday insonlar atrofimizda bo'lishi shartmi?
4. Ko'chmas mulk tushunchasi nimani anglatadi?
5. Rayan Rossning loyihasi sizga yoqdimi? Rayanga qanday savol bergan bo'lardingiz?

Mustaqil topshiriq

Siz loyiha qilsangiz, u qanday mavzuda bo'ladi? Fikringizni 20–30 ta so'zdan kam bo'lmagan esse shaklida yozing.

LOYIHAM REKLAMASI

1. O'qing.



Reklama – tovarlarning sifati va u haqidagi axborot.

Reklama dastlab Yunoniston va Qadimgi Rimda paydo bo'lgan. O'sha davrlarda ham og'zaki va yozma reklamalardan foydalanilgan. Tovar belgisi qo'yib tamg'alash yo'li bilan mahsulotlar reklama qilingan. Hozirgi shakldagi reklama AQSHda paydo bo'lgan. XIX asrda reklama agentliklari faoliyat ko'rsatishni boshlagan. Reklama katta daromad keltirgan. Dastlab yozma reklama xaridorlarni do'kon va unda sotiladigan tovarlardan xabardor qilish vazifasini bajargan. Keyinchalik reklama afishalar, kitoblar, jurnallar, gazetalar-da e'lonlar shaklida paydo bo'ldi. Reklama ishiga ommaviy axborot vositalari: matbuot, radio, televideniye jalb etildi.

Reklama bir necha vazifani bajaradi:

- 1) xabar va ma'lumot berish;
- 2) ishontirish;
- 3) eslatish, yodga solish.


dastlab
paydo bo'lmoq
tamg'alash
mahsulot
vazifasini bajarmoq
daromad
ommaviy axborot

2. Savollarga javob bering. Gapiring.

1. Birinchi bor reklama qayerlarda paydo bo'lgan?
2. Reklama nima uchun kerak?
3. Reklamalar qayerlarda e'lon qilinadi?
4. Reklamaning vazifalarini bilasizmi?
5. Siz ham reklamadan foydalanganmisiz?

3. Tinglang. O'ylang va toping. Yozing.

“BALIQ SKELETI” METODI



4. O'ylang va toping. Gapiring.

1. Muvaffaqiyatga erishish uchun avvalo nima qilish kerak?
2. Siz loyihangizni ommalashtirish uchun nima qilasiz?
3. Qaysi reklama usulidan foydalanasiz?



5. O'ylang va toping. Yozing.

Mening loyiham

Loyiham amalga oshsa...

Mustaqil topshiriq

Loyihangiz reklamasini tayyorlang.

TO'G'RI YO'L


1. O'ylang va toping. Gapiring.



2. O'qing.


G'oya	Bu inson xayoliga keladigan fikr	Baklajkadan gultuvak yasash
Loyiha	Ma'lum bir ketma-ketlikda g'oyani amalga oshiruvchi jarayon	Atrofdagi baklajkalarni bolalar bilan yig'ib, sinf xonasiga gultuvak yasash
Mehnat	Inson faoliyati	Bolalar bilan jarayonni tashkil qilish
Reklama	Mahsulot haqida xabar	Boshqa sinf o'quvchilariga qilayotgan ishimizni aytish
Natija	Belgilangan maqsadga erishish	Xonalardagi gultuvaklarni chiroyli va ko'rkam holga keltirish va ulardan zavqlanish
Muvaffaqiyat	Yutuq	Ustozlardan rag'bat so'zlarni eshitish

3. O'ylang va toping. Yozing.



4. O'ylang va toping. Yozing.

1. Do'stim Arseniyda g'oya tug'il..., albatta, unga loyiha ishlab chiqamiz.
2. Siz qattiq mehnat qil..., natijasi ham shunga yarasha bo'ladi.
3. Biz mahsulotimizni reklama qil..., loyihamiz ommalashadi.
4. Faqat natija uchun harakat qilin..., natijaga erishish oson bo'ladi.
5. Men o'z kuchimga ishon..., muvaffaqiyat qozona olaman.



Mustaqil topshiriq


Jadval asosida o'z loyihangizni rejalashtiring.

G'oya	
Loyiha	
Mehnat	
Reklama	
Natija	
Muvaffaqiyat	

MILLIONER TENGDOSHLARIM

1. O‘qing.

KATTALARNING YORDAMISIZ MILLIONERGA AYLANGAN BOLALAR



Bola millioner bo‘lishi uchun har doim ham uning ota-onasi boy bo‘lishi shart emas ekan. To‘g‘ri, bu – kamdan kam uchraydigan holat, lekin baribir oramizda millioner bo‘lgan bolalar bor.

Tavi Gevinson Chikagoga tutashgan qishloqda yashaydi. 11 yoshli amerikalik bu o‘quvchi qiz 2009-yilda omadli qadam boshlaganlardan biri. Otasi ingliz tili o‘qituvchisi bo‘lib, pensiyaga (nafaqaga) chiqqan. Onasi esa ibroniy tilidan ta‘lim beradi. Tavi moda va o‘smir qizning ruhiy kechinmalariga bag‘ishlangan blogini ochishga qaror qildi. Bu paytda u o‘rta maktab o‘quvchisi edi. Uning blogi “Style Rookie”,

ya‘ni “Boshlovchi uslubchi” deb atalgan.

U buvisining eski sandig‘idagi kiyim-kechaklarni suratga oladi. Moda haqidagi mulohazalarini aralash-quralash tarzda blogiga joylay boshlaydi. Ko‘p o‘tmay unga minglab kishilar a‘zo bo‘ladi. Moda olamida jahonga mashhur jurnalist Derek Blasberg unga qiziqib qoladi. Deyarli har kuni o‘zining twitter sahifasida Taving postlarini muhokama qilishga tushadi.

Hatto uni yuksak modalar haftaligiga taklif eta boshlaydilar. Hozir Tavi 23 yoshda. U mashhur yozuvchi va kolumnist. Kinoda suratga tushadi. Mol-mulki esa yetti million dollarga baholangan.




2. Tinglang.



3. Savollarga javob bering.

1. Tavi Gevinson qanday loyihani amalga oshirdi?
2. Blog haqida nimalarni bilasiz?
3. Elektron tijorat tijoratning qanday turi?
4. Jek Blumfild muvaffaqiyatlarida kun tartibining ahamiyati bormi?




4. O'ylang va toping. Yozing.

BUGUNGI KUN TARTIBIM

Sana	
6:00	Uyqudan turdim.
7:00	
8:00	
10:00	
12:00	O'zbek tili darsi
14:00	
16:00	
18:00	Kechki ovqat.
20:00	
22:00	Uyquga yotaman.

5. Diqqat qiling. Gapiring. Yozing



Mustaqil topshiriq

“Blogger kim?” mavzusida fikringizni yozib keling. (20–30 ta so'z)



ISHTIYOQ

1. O‘ylang va toping. Gapiring. Yozing.



Namuna 1. Men katta bo‘lsam, tadbirkor bo‘laman.

2. Tinglang.

Reklama qilinayotgan qo‘l soatlarining millari nega aynan 10 dan 10 daqiqa o‘tganini ko‘rsatadi?




3. O‘ylang va toping. Gapiring.

T/r	Ma’lumotlar	To‘g‘ri ✓	Noto‘g‘ri ✗
1	Ichimliklar reklamasini olishda muz bo‘lakchalaridan foydalaniladi.		
2	Gollivudning “Hollywood” yozuviga 1923-yilda asos solingan.		
3	“Hollywood” yozuvi dastlab “Hollywood dream” deb yozilgan.		
4	Soatlar reklamasida soat millari 12:00 ni ko‘rsatadi.		
5	Qo‘l soatlarining millari soat 10 dan 10 daqiqa o‘tganini ko‘rsatishi tabassumga o‘xshash shaklni hosil qiladi.		
6	Gazlangan ichimliklardagi chiroyli pufakchalarni hosil qilish uchun suv bilan aralashtirilgan tozalash vositalaridan foydalaniladi.		
7	Reklama har doim taklif beruvchi va xaridorlar uchun foydali hisoblanadi.		

4. O‘ylang va toping. Yozing.

Namuna *Men olimpiadada g‘olib bo‘lsam, maktabimiz sha’nini himoya qilgan bo‘laman.*



5. O‘qing.

ISHTIYOQ FORMULASI

Hayotdagi muvaffaqiyatning asosiy siri o‘z iste‘dodini topa olish, so‘ngra hayotida amalga oshirishdir.

Henri Ford

Bolalar, ehtimol har biringizning sevimli mashg‘ulotingiz bo‘lsa kerak?

Ba’zi insonlar uchun uning sevimli mashg‘uloti butun hayotining mazmuniga aylanadi va bunday odam haqida “u o‘z ishtiyoqini topgan” deb aytishadi. Ishtiyoq bu – qiziqishlaringiz, qobiliyat va istaklaringiz kesishadigan nuqtadir. O‘z ishtiyoqini to-

pish bu – sevgan ishi bilan shug‘ullanish va undan zavq olish, o‘zining ichki dunyosi va atrofdagi olam bilan uyg‘unlikda yashash, o‘ziga ishonch va hayot mazmuniga shubha qilmaslik.

Ishtiyoq har bir insonda bor. Biroq hamma ham yoshligidan ishtiyoqi nimadaligini aniqlay olmaydi. Uni qidirish kerak. Ba‘zan u tez fursatda topiladi, ba‘zan bunga yillar ketadi. Ishtiyoq har doim ham bir ishda namoyon bo‘lmaydi. Ishtiyoqni bir necha sohalardan topish mumkin. Masalan, kimlardir kitob yozish bilan birga o‘qituvchilik yoki notiqlik kasblarini olib boradi. Muvaffaqiyatli dasturchi bir vaqtning o‘zida bolalar futbol jamoasining murabbiyi, shifokor esa ayni paytda rassom ham bo‘lishi mumkin.

6. O‘ylang va toping. Yozing.

Keling, ishtiyoqingizni aniqlaymiz.

Oddiy bo‘lsa-da, 10 ta eng sevimli mashg‘ulotingizni yozing. Ulardan qaysi biriga sizning ishtiyoqingiz bo‘lishi mumkinligini quyidagi test yordamida aniqlab oling.

Har bir holat yuzasidan 10 ballik sistemada baholang. Yig‘indilar asosida ishtiyoqingizni toping.

Namuna:

Mashg‘ulot nomi	Xohlay-man	Qila olaman	Qo‘limdan keladi	Yaxshi ko‘raman	Ballar	Shug‘ullana olaman
Turli videoroliklarni suratga olish	9	6	5	7	27	Ha
?						

Mustaqil topshiriq

Berilgan testlar asosida yaqinlaringizning ishtiyoqlarini aniqlang.

MUSTAHKAMLASH

1. O‘ylang va toping. Gapiring.

T/r	Ma‘lumotlar	To‘g‘ri ✓	Noto‘g‘ri ✗
1	Ichimliklar reklamasini olishda muz bo‘lakchalaridan foydalaniladi.		
2	Qo‘l soatlarining millari soat 10 dan 10 daqiqa o‘tganda tabassumga o‘xshash shaklni hosil qiladi.		
3	Gazlangan ichimliklardagi chiroyli pufakchalarni hosil qilish uchun suv bilan aralashtirilgan tozalash vositalaridan foydalaniladi.		
4	Akbar balandlikka sakrash bo‘yicha musobaqada qatnashdi.		
5	Ahrorning oldidan quyon chiqib qoldi.		
6	Musobaqada Baxtiyor g‘olib chiqdi.		

2. O'ylang va toping. Yozing.

1. Yoz ____, bolalar ta'tilga chiqadilar.
2. Harakat ____, loyiha amalga oshadi.
3. O'quvchi vaqtli ____, maktabga kech qolmaydi.
4. Biz mahsulotimizni reklama qil ____, loyihamiz ommalashadi.
5. Faqat natija uchun harakat qilin ____, natijaga erishish oson bo'ladi.
6. Men o'z kuchimga ishon ____, muvaffaqiyat qozona olaman.

3. Savollarga javob bering.

1. Muvaffaqiyatga erishish uchun nima qilish kerak?
2. Tavi Gevinson qanday loyihani amalga oshirdi?
3. Jek Blumfild qanday qilib muvaffaqiyatga erishdi?
4. Birinchi bor reklama qayerlarda paydo bo'lgan?
5. Reklama nima uchun kerak?

4. O'ylang va toping. Yozing.

kelsa

borsam

qilsak

tugatishsa

o'qisang

qilsangiz

Namuna *Hakamlar maslahatni tugatishsa, g'oliblarni e'lon qilishadi.*

Hakamlar maslahatni ____, g'oliblarni e'lon qilishadi.
 Men oromgohga ____, yangi do'stlar bilan tanishaman.
 Sen ko'p kitob ____, eng yaxshi kitobxon tanlovida g'olib bo'lasan.
 U velosipedda birinchi yetib ____, 1-o'rinni olamiz.
 Biz birga harakat ____, loyihamiz amalga oshadi.
 Ishtiyoq bilan harakat ____, muvaffaqiyatga erishasiz.

5. O'ylang va toping. Yozing.

Ism-familiyam

3 ta ijobiy
fazilatim

MEN
HAQIMDA

Orzularim

1 ta
kamchilгим

YAXSHILIKNI O‘Z VAQTIDA QIL

1. O‘qing.

YAXSHILIKNI O‘Z VAQTIDA QIL

Bolalarga oromgoh juda yoqdi. Havosi toza, atrofi tog‘, hamma yoq yam-yashil maydon. Ammo aynan shu oromgohning yana bir o‘zgacha tomoni bor edi. Bu yerdagi dam oluvchilar ota-onasidan olgan pulga do‘kondan hech narsa xarid qila olmas, biroq pulni o‘zlari ishlab topishlari mumkin edi. Qanday qilib deysizmi? Turli musobaqalarda g‘olib bo‘lib-da! Ona tili, rus, ingliz tili, matematika bo‘yicha o‘tadigan musobaqalarda hamma o‘z bilimini ko‘rsatib yuqori o‘rin olar, ayniqsa, sport musobaqalari fan tanlovlaridan ham taassurotlarga boy bo‘lardi. Albatta, har bir ishtirokchi g‘olib bo‘lishga intilardi. Jamoa bilan o‘ynaganda esa g‘oliblarga topshiriladigan pul har bir jamoa a‘zosiga bir xil taqsimlanardi. Jamoa sportida yugurish, sakrash, velosipedda manzilga eng tez yetib kelish musobaqalari joy olgan bo‘lib, so‘nggisi velosipeddagi poyga edi.

Akbar o‘z jamoasi uchun bolalarni tanlab bo‘lgan. Eng tez yuguradigan Ahror, balandga sakrash bo‘yicha Shamshod bo‘lsa, uzunlikka sakrashda Baxtiyorga yetadigani yo‘q. Velosiped esa Akbarning jon-u dili. Mahalladagi poygada hammadan o‘zadigani ham o‘zi edi. Bu to‘rtlik bir necha kun ichida ancha do‘stlashib qolishgandi.

Musobaqaga hamma jamoa qizg‘in tayyorlanar, boshqa jamoalardan ham Baxtiyor va Odil degan bolalar velosipedda tinmay mashq qilishar edi.

Akbarning o‘rtoqlari musobaqada yutishsa, mukofot puliga qanday shirinlik va kitob olishni o‘ylab ham qo‘yishdi. Lekin eng muhimi – g‘alaba nashidasi kuchliroq tuyulardi.

Mana, orziqib kutilgan kun ham keldi. Musobaqalarga start berildi. Birinchisi – yugurish poygasi. Ahror manzilga birinchi bo‘lib keldi. Balandlikka sakrash bo‘yicha Shamshod, uzunlikka sakrash bo‘yicha Baxtiyor ham yaxshi ko‘rsatkichga erishdi. Asosiysi – velosiped poygasi esa oldinda.

Akbar, Odil va Baxtiyor yo‘lakda start berilishini kutib turishmoqda. Mana, start berildi-yu, velosiped g‘ildiraklari gir aylanib, bir-birlaridan o‘zib ketishdi. Uchta aylanishning so‘nggisi ham yaqinlashmoqda. Uzoqdan o‘rtoqlarining “Akbar! Akbar!” deb baqirishlari eshitilib turardi. Akbar ancha oldinda. Shu payt shundoq yo‘ldan tipratikan chiqib qolsa bo‘ladimi, vaqtini topganini qarang. Biroq Akbar uni chaqqonlik bilan chetlab o‘tdi. Ura! U shu so‘zni aytishga ham ulgurmay orqadan velosipedning g‘iyqillagan va ag‘darilgan ovozi eshitildi. Ortiga o‘girilib qarasaki, ikkinchi bo‘lib ke layotgan Odilning velosipedi ag‘darilib yotibdi. Akbar nima qilarini bilmay to‘xtadi. Baxtiyor ularga yaqinlashayotgan edi. Akbar onasining gapini esladi: “Yaxshilikni kechiktirmay vaqtida qilish kerak”. U darrov Odilga yordam berishga shoshildi. Bu orada Baxtiyor zuv etib o‘tib ketdi. “Rahmat, o‘rtoq!” – dedi Odil velosipedga o‘tirayotib. U yana yo‘lida davom etdi. Xayriyat, oyog‘i uncha qattiq lat yemagan ekan. Finishga Baxtiyordan so‘ng ozroq vaqt o‘tgach, Odil va Akbar barobar kelishdi.

– Nima qilganing bu? – dedi Ahror Akbarga. – Birinchilik qo‘ldan ketdi-ku!

– To‘g‘ri qildi! – jahli chiqdi Shamshodning. – Men ham shunday qilardim.

Botir esa indamay qo‘ya qoldi.

Oromgoh tablosida fan olimpiadasi bo'yicha g'oliblarning ismi-shariflari chiqdi, ammo negadir sport musobaqasi g'oliblarining familiyasi ko'rinmadi. Yetakchilar ham hech nima bilishmasdi.

Mana, kechki yig'inda tantanali taqdirlash boshlandi.

Oromgoh boshlig'i birma-bir fan g'oliblarini taqdirlab, maqto'v yorlig'i va mukofot pullarini topshirdi.

– Endi esa, – dedi u, – biz uchun qaror qabul qilish juda murakkab bo'lgan musobaqaga yetib keldik. Bu musobaqada Akbar raqibiga yordam bergani uchun g'olib bo'la olmadi. Raqibining yiqilganiga e'tibor bermagan Baxtiyor esa birinchi bo'lib keldi. Bugun biz hay'at a'zolari bilan maslahatlashib, qoidani biroz o'zgartirdik. Va 1-o'rinni Akbarning jamoasiga berishga qaror qildik.

– Nega ekan?! – dedi kimdir Baxtiyorning jamoasida.

– Chunki Akbar o'zining g'alabasi va shuhratini emas, qiyin ahvolga tushgan yonidagi o'rtog'ini o'yladi.

Atrofdagilar qarsak chalib yuborishdi.

Kavsar Turdiyeva

2. Savollarga javob bering.

1. Siz oromgohga borganmisiz?
2. Oromgohning o'ziga jalb qiladigan tomonlarini ayting.
3. Oromgohda orttirgan do'stlaringiz haqida gapiring.

LUG‘AT

O‘zbek tili	Rus tili	Ingiz tili	Qozoq tili	Tojik tili	Turkman tili	Qirg‘iz tili	Qoraqalpoq tili
afsus	разочарование	disappointment	көңіл қалу	надомат	göwnüçök-günlik	көңүлү калуу	pushayman
afzallik	преимущество	advantage	артықшылығы	бартарй	üstünlük	артыкчылык	abzallıq
almashmoq	обменять	to exchange	алмасу	иваз шудан	alyş-çalyş etmek	алмашуу	almaslaw
amaldor	должностное лицо, чиновник	official	лауазымды адам	сохиби мансаб, мансабдор	resmi, emeldar	кызмат кишиси	hámeldar
asl o‘g‘lon	настоящий мужчина	strong man	шынайы бомақай	писари ҳақиқй	hakyky oglan	чыныгы балбан	batır
asos solmoq	основать	to establish	негізін салу	асос гузоштан	döretmek, esaslandyrmak	негиз салуу, түзүү	tiykar salıw
attang	какая жалость	What a pity!	эттең екінішті	афсўс, дарег	gynançly	өкүнүчтүү	átteñ
aylanmoq	повернись	to spin	айналдыру	давр задан	öwrülmek	айлануу	aylanıw
baxmal	бархат	velvet	барқыт	махмал	bahmal	баркыт	maqpal
bag‘oyat	очень	very much	өте	бағоят	örän köp	абдан көп	kútá
belbog‘	пояс	belt	белбеу	камарбанд	guşak	кур, бел курчоо	belbaw
belgila-moq	помечать	to mark	белгілеу	ишора кардан	bellemek	белгилөө	belgilew
bemor	пациент	patient	науқас	бемор	näsag	бейтап	nawqas
boshpana	приют	shelter	баспана	паноҳгоҳ	başpene	баш калкалоочу жай	turar jay
bunyod etilmoq	созданный	to be created	құрылу	бунёд кардан	döredildi	түзүлгөн	qurıldı
buyruc	команда	command	бўйрық	фармон	buýruk	буйрук	buyrıq
bo‘taloq	верблюжонок	camel calf	бота	бачаи шутур, уштурча	köşek	бото, тайлак	botalaq
daromad	доход	income	табыс	даромад	girdeji	киреше	dáramat
dastlab	изначально	initially	бастапқыда	аввалан	ilki bilen	баштапкы	dáslep
dong taratmoq	прославиться, стать известным	to be popular	атышулы	овоза баровардан	däne yaýratmak	атагы чыгуу	danq shıǵarıw
evaziga	вместо	instead	орнына	ба чои ин ё он	munuñ yerine	ордуна	ornına
eng	самый	the most	ең	аз ҳама бештар	iñ köp	эң	eñ
dangasalik	лень	laziness	жалқаулық	танбалй	ýaltalyk	жалкоолук	erinshekklik
eng qadimiy	старейший	the oldest	ең көне	қадимтарин	iñ köne	байыркы	eñ áyyemgi
eng yuqori	самый высокий	the highest	ең жоғары	баландтарин	iñ beýik	жогорку	eñ joqarı
faoliyat	мероприятия	activity	қызмет	фаёлият	işjeñlik	активдүүлүк	iskerlik
fikr	мнение	opinion	пікір	андеша	pikir	пикир	pikir
ganchkorlik	профессия мастера резьбы по ганчу	pattern-making	ою-орнек	ганчкорй	nagyş yasamak	скульптура	ganch ustasılıq
guldon	ваза	vase	ваза	гулдон	waza, güldan	ваза	gúl túbek
havasi kelmoq	завидовать	to envy	әуестенді	ҳавасаш омадан	howeslenmek	суктануу	háwesi keldi
hudud	территория	territory	территория	сарҳад	Çäk, teritoriya	территория	aymaq

O'zbek tili	Rus tili	Ingiz tili	Qozoq tili	Tojik tili	Turkman tili	Qirg'iz tili	Qoraqalpoq tili
hurmat bilan	с уважением	with respect	қўрметпен	бо эҳтиром	hormat bilen	урматтоо менен	hürmet penen
hushtak	свист	whistle	ысқырық	хуштак	sygyrmak	ышқырык	isqırıq
ijodkorlik	креативность	creativity	шығармашылық	эчодкорӣ	döredijilik	чыгармачылык	dóretiwshilik
ilg'or	передовой	advanced	озат	пешрафта	õñde baryjy	өнүккөн	aldıñgı
imkon	возможность	possibility	мүмкіндік	имкон	mümkinçilik	мүмкүнчүлүк	mümkinshilik
imtiyoz	привилегия	privilege	жеңилдик	имтиёз	ýeñillik	артыкчылык	jeñillik
ipak	шёлк	silk	жібек	абрешим	yüpek	жибек	jipek
iqtidor	талант	talent	талант	истеъдод	zehin	талант	qábilyet
issiq holda	в горячем виде	in hot condition	ыстық	дар ҳолати гарм	yssy ýagdaýda	ысык	ıssı halatında
istak	желание	desire	қалау	хоҳиш	isleg	каалоо	qálew
ishlab chiqarilgan	произведено	to be produced	өндірілген	истехсол шудан	öndürilen	өндүрүлгөн	islep shıqarılgan
ishtaha ochmoq	разыгрался аппетит	to appetize	тәбетін ашу	иштаҳа кушодан	işdäni açmak	аппетиттүү	ishtey ashıw
ishtiyoq	желание	desire	қызығушылық	иштиёқ, талабгорӣ	isleg	каалоо	qızıǵıwshılıq
jahon merosi	всемирное наследие	world heritage	дүниежүзілік мұрасы	мероси ҷаҳонӣ	dünýä mirasy	дүйнөлүк мурас	jáhán miyrasları
jarayon	процесс	process	үдеріс	раванд, жараён	prosesi	процесс	process
joziba	очарование	charm	сұлулық	дилрабоӣ	jadyly	өзүнө тартуу	ózine tartatúǵın
juda	очень	very	өте	хеле	orän	абдан	júdá
jo'natmoq	отправлять	to send	жіберу	фиристодан	ibermek	жиберүү	jiberiw
kamzul	жилет	vest	камзол	камзўлча	jilet	жилет	beshpent
kamchilik	недостаток	shortcoming, drawback	кемшілік	камбудӣ	kemçilik	кемчилдик	kemshilik
kesishmoq	отрезать	to cross	кесу	буридан	kesişmek	кесүү	kesesiw
ketmaketlik	преемственность	continuity	реттілік	пайдарпай	zygiderlilik	удаалаштык	izbe-iz
kitobxon	читатель (книг)	book reader	кітап оқырманы	китобхон	kitap okyjy	окурман	kitapxan
kulol	гончар	potter	құмырашы	кулол	kúlal	карапачы	gúlal
kulolchilik	керамика	pottery	құмырашылық	кулоли	kúyzeǵarçilik	карапачылык	gúlalshılıq
kutmoq	ждать	to wait	күту	интизор шудан	garaşmak	күтүү	kútiw
ko'hna	старый	old	ескі	кўҳна	köne	эскирген	góne
ko'katchi	садовник	gardener	жасылдаушы	фурўшандаи кабудӣ	bagban	бакчы, багбан	baǵman
ko'rgazma	выставка	exhibition	көрме	намоиш	sergi	көргөзмө	kórgezbe
ko'richak	аппендицит	secum	соқырішек	варами кўррўда	kör içege	көричек	soqır ishek
ko'rkam	я красивый	handsome	көрікті	зебо	owadan	көрктүү	kórkem
ko'rkam-lashmoq	стало красивее	to become more beautiful	әдемі болу	зеботар шудан	owadan-laşmak	көрктүүлүк	kórkemlesdi
ko'z	глаз	eye	көз	чашм	göz	көз	kóz
ko'za	кувшин	jug	көзе	кўза	kúýze	кумура	gúze
loyiha	проект	project	жоба	лоиҳа	taslama	долбоор	joybar
mablag'	количество	money	қаржыландыру	маблағ	san, mukdar	киреше	aqsha
mahsulot	товар	product	өнім	маҳсулот	önüm	продукт	ónim
manfaat	польза	interest	мүдде	манфиат	haýyr	пайда	máp

O'zbek tili	Rus tili	Ingiz tili	Qozoq tili	Tojik tili	Turkman tili	Qirg'iz tili	Qoraqalpoq tili
maxsus	специальный	special	арнайы	махсус	ýörite	атайын	arnawlı
maysa	трава	grass	шөп	алаф	ot, maysa	чөп	maysa
mashhur	известный	famous	атақты	машхур	meşhur	атактуу	ataqlı
mashhur bo'lmoq	быть известным	to be famous	атақты болу	машхур шудан	meşhur bolmak	белгилүү болуу	ataqlı bolıw
miya	мозг	brain	ми	майна	beýni	мээ	mıy
muallif	автор	author	автор	муаллиф	awtor	автор	avtor (dúziwshi)
muolaja	лечение	treatment	емдеу	муолича	bejergi	дарылоо	emlew
mutaxassis	эксперт	expert	маман	мутахассис	ekspert	специалист, адис	qánige
mo'ljal-lamoq	планировать	to aim	көздеу	ба нақша гирифтан	meýilnama-laşdyrmak	көздөө	qaratıw
namoyish qilish	демонстрация	demonstration	демонстрациялау	намоиш додан	görkezime	демонстрация	kórsetiw, názerge usınıw
narxni kelishtir-moq	договориться о цене	to bargain	бағасын келісіп алу	нархро мувофиқат кунондан	bahasy bara-da gepleşik geçiriñ	баасын сүйлөшүү	bahani kelisiw,
natija	результат	result	нәтиже	натица	netije	натыйжа, жыйынтык	nátiyje
nazorat-siz	неконтролируемый	uncontrolled	бақылаусыз	беназорат	gözegçiliksiz	көзөмөлсүз	qa-dağalawsız
nihoyatda	в конце концов	Extremely	тым	бенихоят	ahyrynda	акыры	asa
nuqsan	дефект	defect	кемтік	нуқсон, иллат	kemçilik	кемчилик, майып	kemshilik
nutq so'zla-moq	выступить с речью	to give a speech	сөз сөйлеу	нутқ кардан	çykyş etmek	сүйлөө	sóylew sóyleiw
o'rindiq	сиденье	seat	орындық	çои нишаст, нишастгоҳ	oturguç	отургуч	otirğış
odob-sizlik	непристойность	obscenity	әдепсіздік	беодобӣ	edepsizlik	адеписиз	ádepsiz, tárbiyasız, uyatsız,
ommaviy axborot	публичная информация	mass media, public information	бўқаралық ақпарат	ахбори оммавӣ	jemgyýetçilik habarlary	коомдук маалымат	ǵalaba xabar
oqilona	разумный	reasonably, sanely	ақылға қонымды	оқилона	adalatly	ақылдуу	aqılǵa say
ozuqa	еда	food	тамақ	ғизо	iýmit	азык	azıq, azıqlıq
og'ir xastalik	серьезная болезнь	serious illness	ауыр ауру	бемории вазнин	agyr kesellik	оорулуу	awır kes-sellik
panjara	решетка	grid	тор	панзараи оҳанин	gözenek	тосмо, решетка	tor
pasaytiril-gan narx	сниженная цена	reduced price	төмендетілген баға	нархи камшуда	bahanyñ ar-zanlamagy	төмөндөтүлгөн баа	tómen-letilgen bahada,
paydo bo'lmoq	появляться	to appear	пайда болу	пайдо шудан	peýda bolmak	пайда болуу	aqılǵa say
royabzal	обувь	shoes	аяқ-киім	пойафзол	ayakgap	бут кийим	ayaq kiyim
roytaxt	столица	capital	астана	пойтахт	paytagt	борбор	paytaxt
pushay-mon bo'lmoq	он сожалел об этом	to regret	өкіну	пушаймон шудан	puşman bolmak	бушайман болуу	pushaymon boldı

O'zbek tili	Rus tili	Ingiz tili	Qozoq tili	Tojik tili	Turkman tili	Qirg'iz tili	Qoraqalpoq tili
qad ko'tarmoq	подниматься	to be built	еңсесін көтеру	қад рост қардан	galmak	көтөрүү	ósiw, boy tiklew
qariyb	почти	almost	шамамен	қариб	diýen ýaly	кээ бир	derlik
qarorgoh	местопребывание	residence	мекен жай	қароргоҳ, манзил	menzil	резиденция (өкмөт же өкмөт баштыгы туруучу жай)	rezidenciya
qarovsiz	беспечный	careless	қараусыз	бенигоҳбин	aladasyz	кароосуз	qarawsiz
qayg'urmoq	горевать	to grieve	қайғыға түсу	ғам хўрдан	gynanmak	кайғыруу, күйүт тартуу	qayg'ılanıw
qiziqish	интерес	interest	қызығушылық	майлу рағбат пайдо қардан	gyzyklanma	қызығуу	qızıǵıwshılıq
quduq	колодец	well	құдық	чоҳ	guýu	кудук	qudıq
qayerlik-san?	откуда вы	Where are you from?	қайдан боласың?	ту аз кучой?	sen nireli?	кайжерден болосуң?	qay jerliseñ,
qo'llab-quvvatlamoq	поддерживать	to support	қолдап-қуаттау	дастгирй қарданд	goldamak	колдоп-кубаттоо	qollap-quwatlamoq
quloqchin	наушник	headphones	қулаққап	асбоби гушмонак	gulakçyn	наушник	qulaqshın
qumloq	песок	sand	құм	санглох	gumlyk	кумдуу	mayda bólekshe
quturish	бешенство	rabies	қўтыру	касалии девонабашара	guduzlyk	курутуу	qutırw
quvur	трубка	pipe	қўбыр	қубур	turbajyk	түтүк	truba
rasadxona	обсерватория	observatory	обсерватория	расадхона	observatoriya	обсерватория	observatoriya
rasta	лавка, торговый ряд	stall	қатар	раста	oturgys	катар	sawda qatarları
rag'bat	стимул	incentive	ынталандыру	ҳавас-мандқунй	hōweslendirme	сыйлоо	xoshamet
rivoyat	повествование	narrative	әңгіме	ривоят	rowayat	рыбаят	rāwiyat
ruhan	духовный, психический	marally	рухани	руҳан	ruhy taýdan	рухий	ruhan
ro'yxat	список	list	тізім	рўйхат	sanaw	тизме	dizim
sabrllilik	терпение	patience	сабырлы	сабрнокй	sabyrlylyk	сабырдуулук	sabirlılıq
safar	путешествие	trip	сапар	сафар	sy'ahat	сапар	saparǵa shıǵıw
saqich	жвачка	bubble gum	сағыз	сақич	sakgyç	чакыч	saqız
sarf qilmoq	тратить	to spend	жұмсау	харч қардан	sarplamak	коротуу	sawmaq
sayohat qilmoq	путешествовать	to travel	саяхаттау	саёхат қардан	sy'ahat etmek	саякаттоо	sayaxat qılıw
sir	секрет	secret	қўпия	асрор	syg	сыр	sır
soha	область, сфера	sector	кәсіп	соҳа	ugur, pudak	тармак	taraw
sohada yetuk	лучший в отрасли	mature in the field	сала маманы	дар соҳа барқамол	ugurda kāmīl	тармагында жеткилең	tarawda jetik
sopol	керамический	ceramic	керамика	сафолй	keramika	керамика	sapal
sovg'a tariqasida	как подарок	as a gift	сыйлық ретінде	ҳамчун тўхфа	sowgat hōkmünde	белек қатары	siyılıq
sog'aymoq	поправляйся	to get well	жазылу	шифо ёфтан	sagalmak	сакайып кетүү	sawalıw
sun'iy	искусственный	artificial	жасанды	сунъй	emeli	жасалма	jasalma

O'zbek tili	Rus tili	Ingiz tili	Qozoq tili	Tojik tili	Turkman tili	Qirg'iz tili	Qoraqalpoq tili
suyuqlik	жидкость	liquid	сўйықтық	моеъ	suwuklyk	суюк	suyiqliq
taas-surot	впечатление	impression	әсер	таассурот	duýgy	таасир	tásirler
tahsinga sazovor	похвально	commendable	мақтауға тұрарлық	ба эътироф сазовор	öwgä mynasyp	мактоого татыктуу	maqtawğa ilayiq
taklif qilmoq	предлагать	to offer	ўсыну	таклиф кардан	hödürlemek	сунуш кылуу	usınıw
tamg'a-lash	маркировка	branding	мөрлеу	мўхркунӣ	belgi, nyşan	тамгалаш	tamǵalaw
tomosha qilish	смотреть	watching	тамашалау	тамошо кардан	seretmek	көрүү	tamashalaw
taqdim etmoq	представлять	to present	көрсету	пешниход кардан	hödürlemek	көрсөтүү	usınıs etiw
tarixiy	исторический	historical	тарихи	таърихӣ	taryhy	тарыхый	tariyxiy
tasvirlamoq	описание	to describe	бейнелеу	тасвиркунӣ	suratlandyrmak	сүрөттөө	súwretlew
taxminan	приблизительно	approximately	шамамен	тақрибан	takmynan	болжол менен	shama menen
tashabbus	инициатива	initiative	бастама	ташаббус	inisiatiwa başlangyç	демилге	ǵayrat
ta'kid-langandek	как указано	as noted	атап өткендей	чунон ки кайд карда шуд	bellenişi ýaly	белгиленгендей	aytip ótkeni
tezyurar poyezd	высокоскоростной поезд	fast train	жылдам пойыз	қаторай тез	çalt otly	тез жүрүчүү поезд	tez júrer poyezd
tengdosh	ровесник	peer	құрдас	ҳамсол	deñ	қурдаш	qatar
tiklamoq	восстановить	to restore	қалпына келтіру	барқарор кардан	dikeltmek	калыбына келтирүү	tiklew
tokcha	полка	shelf	сөре	раф	tekje	текче	tekshe
tom-chilatib sug'orish	капельное орошение	drip irrigation	тамшылатып суару	обёрии қатрағӣ	damjalayn suwarmak	тамчылатып сугаруу	tamshilatip suwǵarıw
tuvak	горшок	pot	түбек	хурма, тубак	güldan	гүл отургузулуучу карапа	túbek
tuynuk	дыра	hole	тесік	сўроҳ	tüynük	тешик	tesik
to'plamoq	собирать	to collect	топтау	чамъ овардан	ýygnamak	чогултуу, топтоштуруу	toplaw
tuzmoq	сочинять	to compose	құрастыру	тартиб додан	düzmek	түзүү	dúziw, qurıw
uddaburon	способный	agile	епшил	чолок, чаққон	ukyply	чыйрак	uqipli, shaqqan
unumli	плодотворный	fruitful	өнімді	пурсамар	peýdaly	түшүмдүү	ónimli
vazifasini bajarmoq	выполняй свой долг	to do one's task	міндетін орындау	вазифаи худро ичро кардан	borjuñy ýerine ýe-tirmek	милдетинди аткаруу	wazıypasın orınlaw
vaziyat	ситуация	situation	жағдай	вазъият	ýagdaý	қырдаал	jaǵday
va'da	обещать	promise	уәде	ваъда, қавл	wada bermek	убада	wáde
xalqaro savdo	международная торговля	international trade	халықаралық сауда	савдои байналхалқӣ	halkara söwda	эл аралык соода	xalıq aralıq sawda
xavfsizlik	безопасность	safety, security	қауіпсіздік	бехатарӣ	howpsuzlyk	коопсуздук	qawıpsızlık
хайрият	благотворительность	thankfully	іске сәт амандықта	хайрият	hemaýat-kärlik	кудайга шүгүр	qudayǵa shukir, áwmet
xumcha	ковш, горшок	pot	құмыра	хумча	hum	карапа	gúze
xushmuomala	учтивость	polite	әдепті	хушмуомила	sypaýyçylyk	сылык	kishi piyil
yaratmoq	создавать	to create	жарату	сохтан	döretmek	жаратуу	jaratıw

O'zbek tili	Rus tili	Ingiz tili	Qozoq tili	Tojik tili	Turkman tili	Qirg'iz tili	Qoraqalpoq tili
Yer kurrasida	на Земле	on Earth	жер бетінде	дар кураи замин	ýer ýüzünde	Жер жүзү	jer júzinde
yer uzra	над землей	over the ground	жер үстінде	дар болои замин	ýer üsti	жер үстүндө	jer jáhände
yirik	большой	giant	үлкен	калон	iri	чоң	iri, úlken
yordamchi	помощник	assisstant	көмекші	мададгор	kömekçi	жардамчы	járdemshi
yutuq	достижение	achievement	жетістік	муваффақият	üstünlük	ийгилик	tabis
yuzi qizarib ketdi	его лицо покраснело	his/her face turned red	беті қызарып кетті	рўяш сурх шуд	ýüzi gyzardy	анын жүзү кызарып кетти	júzi qizarıp ketti
yo'nalish	направление	direction	бағыт	самт	ugur	бағыт	jónelis
o'rkach	горб	hump	өркеш	кўз, кўж	örküç	өркөч	örkesh
o'rtamiyona	средний	average	орташа	миёнаҳол	ortaça	орточо	ortasha
zardo'z	золотошвейка	sewer (uses golden thread)	зергер	зардўз	zardoz, keşdesi	зардоз	zardoz
zargarlik sohasi	ювелирная промышленность	jewelry industry	зергерлік өнеркәсібі	соқай заргай	zergärçilik pudagy	зергерчилик тармагы	zergerklik tarawı
zarchopon	вышитый золотом чапан	embroidered coat	зер шапан	чомаи заррин	zer don (çapan)	зар тон	zer shapan
zavqlanmoq	наслаждаться	to enjoy	рахаттану	завқ бурдан	lezzet almak	ырахат алуу	ráhátleniw
ziyoratgoh	святыня	shrine	зиярат ететін жер	зиёратгоҳ	keramatly ýer	зыярат кылуу жери	ziyarat ornı, muqaddes jer
g'amxo'rlik	заботливый	caring	қамқорлық	ғамхорй	aladaly	камкордук	ğamxorlıq
g'oya	идея	idea	идея	ғоя, ақида	ideya	идея	ideya
g'oyat	большой	great	тамаша	бағоят	uly	абдан жакшы	oğada
shogird	ученик	apprentice	шәкірт	шогирд	şägirt	шакирт	shákirt
charx	прялка	wheel	жіп иіретін аспап	чарх	çarh	чарк	charx
cheklangan	ограничено	limited	шектелген	маҳдуд	çäklendirilen	чектелген	sheklengen
chit	ситец	chit (type of fabric)	шыт (мата)	чит (газвор)	çit (mata)	чыт (кездеме)	shit (shúberek túp)

O'quv nashri

O'ZBEK TILI

*Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
6-sinfi uchun darslik*

*Muharrir Orifjon Madvaliyev
Badiiy muharrir Sarvar Farmonov
Texnik muharrir Akmal Sulaymonov
Rassom Aziz Jabborov
Sahifalovchi-dizayner Alimardon Aqilov
Musahhih Xurshidbek Ibrohimov*

Muqova dizayneri Alimardon Aqilov

Bosishga 16.09.2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 $\frac{1}{8}$.
Arial garniturasini. Kegli 12. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog'i 20,46. Nashriyot-hisob tabog'i 18,28.
Adadi _____ nusxa. Buyurtma № ____.

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

№	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari bor, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.